

2024-yil 2-son



TURON SCIENCES

ILMIY JURNAL

TURON
UNIVERSITY PRESS

Bosh muharrir:

Yoziyev Lutfullo Habibullayevich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Xalilova Dilbar Jalilovna

Mas'ul kotib:

Toshtemirov Farhod Shodiyevich

Muharrirlar:

Tilovova Muyassar Yo'ldosh qizi
Nurmurotov Ilhom Bekmurod o'g'li

Texnik muharrir:

Qodirov Mirjalol Tolmasovich
Abdusalomov Behruz O'ktam o'g'li

Manzilimiz:

Qarshi shahri, Nasaf ko'chasi, 1/4-uy

e-mail: turon.science@gmail.com

Tel: +998(75) 220-00-25

Jurnal 2024-yil 7-martda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Adminstratsiyasi huzuridagi

Axborot va ommaviy

kommunikatsiyalar agentligi

tomonidan 236670-sonli raqami

bilan ro'yxatdan o'tgan

Tahrir hay'ati:

prof. Baxriddinova Bashorat

prof. Bobonazarov G'affor

dots. Boysunov Bobir

prof. Choriyev Sanjar

dots. Eshqorayeva Norxol

dots. Hamrayeva Yorqinoy

prof. Jumayev Tursunali

dots. Kamolov Luqmon

dots. Karimov Xolmurod

dots. Nuriddinov Shahobiddin

prof. Nurillayeva Shahlo

prof. Oripova Nodima

dots. Ostonov Akmal

dots. Qayumova Nasiba

prof. Qo'yliyev Bahrom

dots. Qurbonov Abdulaziz

dots. Qurbonov Pahlavon

dots. Qurbonov Parda

dots. Rahmatullayev Yorqin

prof. Raxmonov Faxriddin

dots. Ro'ziyev Baxtiyor

dots. Samatova Shohista

dots. Shaymanova Adiba

prof. Shodmonov Nafas

prof. Shoimqulov Bahodir

dots. Soatov Asadulloh

dots. To'xtayeva Ra'no

prof. Tojiyeva Gulbahor

dots. Yo'ldosheva Nilufar

dots. Yoziyev Erkin

dots. Yoziyev G'olibjon

dots. Yoziyeva Umida

MUNDARIJA

ANIQ FANLAR

Meyliev Kh. Zh., Rakhimov Kh. A. In one class of subjective quadratic operators defined on.....	2
--	---

FILOLOGIYA

O'rayeva D., Komilova D. O'zbek va ingliz og'zaki ijod namunalarida til odobi talqini	10
Nodira OFOQ Navoiy va psixoanaliz.....	20
Xalilova D. Adabiy an'ana va novatorlik mahorati.....	31
Karamova Sh. Badiiy tafakkurning yangilanish tamoyillari.....	38
Kurbanov P. J.G.Bayron she'riyatida sharq va g'arb manzaralari o'rtasidagi ohang va yondashuvdagi farqlar	47
Juraqobilova H. O'zbek tilidagi zoonim asosli metaforalarning tarjimada ifodalanishi	52
Eshdavlatova A. Rauf parfi she'riyatida vizual tasvir tajribalari.....	60
Каримов Б. Методы и приемы обучения русскому языку на материале произведений В. М. Шукшина.....	65

IQTISODIYOT

Ostanov A. Oliy ta'lim tizimida inson resurslarini boshqarishga doir meyoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish yo'llari.....	72
Yuldoshev O. Aholiga moliyaviy xizmat ko'rsatishni rivojlantirish.....	79

FALSAFA

Shaymanova A. Intellektual mulkdorlar qatlamining inson manfaatlarini ro'yobga chiqarishdagi o'rni.....	87
--	----

PEDAGOGIKA

Yoziyeva U. Methodology for teaching pupils to work with information.....	97
Xaitova Y. Pedagogik konfliktologiya. Zamonaviy ta'limda nizolarning psixologik omillari.....	103

BIOLOGIYA

Samatova Sh., Eshquvvatova D. Qarshi vohasi sharoitida shamisso arnikasining fenologiyasi.....	109
Jumaqulova G. Sut sifatini yaxshilashda biostimulyatorlarning ahamiyati.....	112

XALQARO MUNOSABATLAR

Ergashev K. Globallashuv sharoitida milliy manfaatlarni himoya qilish: kichik davlatlar tajribasi.....	118
---	-----

IN ONE CLASS OF SURJECTIVE QUADRATIC OPERATORS DEFINED ON

Khabibulla Zhamolovich Meyliev

University of Economics and Pedagogy

Kholmurot Abdullayevich Rakhimov

University of Economics and Pedagogy

Abstract. Any surjective quadratic operator defined on a simplex S^3 , corresponds to some self-combination $\pi_l, l = \overline{1,2,4}$.

A quadratic operator defined on a simplex S^3 is surjective if and only if it is bijective.

Keywords. surjective, quadratic, operator, simplex, homeomorphism, bijective, self-combination, tetrahedron, transformation, group, vertex, movement, convex, linear, combination, composition.

Introduction. The article examines the following problems related to the study of surjective quadratic operators: $V(S^{n-1}) = S^{n-1}$ where S^{n-1} simplex and V is a quadratic operator defined on S^{n-1} . On $S^3 = \left\{ (x_1, x_2, x_3, x_4) : x_l \geq 0, l = \overline{1,4}; \sum_{l=1}^4 x_l = 1 \right\}$ an arbitrary quadratic operator V , defined as follows

$$(Vx)_k = \sum_{l,j=1}^4 P_{lj,k} x_l x_j, \quad k = \overline{1,4} \quad (1)$$

$$\text{g de } P_{lj,k} \geq 0, \quad P_{lj,k} = P_{jl,k}, \quad \sum_{l,j=1}^4 P_{lj,k} = 1.$$

Uniquely determined by the following matrix

$$\left[\begin{array}{cccc|cccc} P_{11,1} & P_{22,1} & P_{33,1} & P_{44,1} & P_{12,1} & P_{13,1} & P_{14,1} & P_{23,1} & P_{24,1} & P_{34,1} \\ P_{11,2} & P_{22,2} & P_{33,2} & P_{44,2} & P_{12,2} & P_{13,2} & P_{14,2} & P_{23,2} & P_{24,2} & P_{34,2} \\ P_{11,3} & P_{22,3} & P_{33,3} & P_{44,3} & P_{12,3} & P_{13,3} & P_{14,3} & P_{23,3} & P_{24,3} & P_{34,3} \\ P_{11,4} & P_{22,4} & P_{33,4} & P_{44,4} & P_{12,4} & P_{13,4} & P_{14,4} & P_{23,4} & P_{24,4} & P_{34,4} \end{array} \right] \text{ where } 0 \leq p_{lj,k} \leq 1.$$

We define 24 classes of surjective quadratic operators and prove that they exhaust the entire set of surjective quadratic operators. To describe these classes, we will use the well-known groups of self-combinations of regular polyhedra [1], since S^3 is a regular tetrahedron.

Note that the combination itself means movement, i.e. transformation that preserves the metric. Group of self-combinations of a tetrahedron in R^3 consists of 12 elements. But we consider the simplex in R^4 then it is easy to show that the group

of self-combinations of the tetrahedron, G in, R^4 consists of the group of all permutations of the vertices of this tetrahedron, i.e. $G = \{\pi_l\}_{l=1}^{24}$

We will say that a quadratic operator V defined on a simplex S^3 corresponds to some self-composition π_l if V maps the vertices of the simplex S^3 to vertices and the edges of the simplex to edges in the same way as the combination itself $\pi_l, l = \overline{1,24}$.

1. Surjective quadratic operator

Let us prove that any surjective quadratic operator corresponds to some self-combination.

Theorem 1 . Any surjective quadratic operator defined on a simplex S^3 corresponds to some self-combination $\pi_l, l = \overline{1,24}$.

We reduce the proof of Theorem 1 to the proof of the following three lemmas.

Lemma 1 . Let V be a surjective quadratic operator. Then no interior point of the simplex S^3 can be transferred under the mapping V to one of the vertices of the simplex.

Proof . Let $A = (x_1, x_2, x_3, x_4) \in \text{Int}S^3$ and $V(A) = A_l$ for some $l = 1, 2, 3, 4$ where A_l the vertices. Let's consider the case $l = 1$ (other cases are considered in exactly the same way). From the equality $V(A) = A_l$ it follows that

$$\begin{aligned} 1 &= a_1x_1^2 + b_1x_2^2 + c_1x_3^2 + d_1x_4^2 + 2\alpha_1x_1x_2 + 2\beta_1x_1x_3 + 2\gamma_1x_1x_4 + 2\xi_1x_2x_3 + 2\eta_1x_2x_4 + 2\delta_1x_3x_4 \\ 0 &= a_2x_1^2 + b_2x_2^2 + c_2x_3^2 + d_2x_4^2 + 2\alpha_2x_1x_2 + 2\beta_2x_1x_3 + 2\gamma_2x_1x_4 + 2\xi_2x_2x_3 + 2\eta_2x_2x_4 + 2\delta_2x_3x_4 \\ 0 &= a_3x_1^2 + b_3x_2^2 + c_3x_3^2 + d_3x_4^2 + 2\alpha_3x_1x_2 + 2\beta_3x_1x_3 + 2\gamma_3x_1x_4 + 2\xi_3x_2x_3 + 2\eta_3x_2x_4 + 2\delta_3x_3x_4 \\ 0 &= a_4x_1^2 + b_4x_2^2 + c_4x_3^2 + d_4x_4^2 + 2\alpha_4x_1x_2 + 2\beta_4x_1x_3 + 2\gamma_4x_1x_4 + 2\xi_4x_2x_3 + 2\eta_4x_2x_4 + 2\delta_4x_3x_4 \end{aligned}$$

And

because $x_1x_2x_3x_4 > 0$, then it follows that

$$\begin{aligned} \alpha_1 &= b_1 = c_1 = d_1 = \alpha_1 = \beta_1 = \gamma_1 = \xi_1 = \eta_1 = \delta_1 = 1 \\ \alpha_l &= b_l = c_l = d_l = \alpha_l = \beta_l = \gamma_l = \xi_l = \eta_l = \delta_l = 0 \quad l = 2, 3, 4 \end{aligned}$$

Then for any point $A \in S^3, V(A) = A_l$, i.e. $V(S^3) = A_l$ which contradicts its surjectivity.

Lemma 2 . Let V surjective quadratic operator. Then no internal point of the simplex S^3 can go to the boundary point of the simplex when V moves.

Proof . Let $A = (x_1, x_2, x_3, x_4) \in \text{Int}S^3$, i.e. $x_1x_2x_3x_4 > 0$.

Let us assume for definiteness that $V(A) \in [A_3, A_4]$ then from the equality

$$\begin{aligned} x'_1 = 0 &= \alpha_1x_1^2 + b_1x_2^2 + c_1x_3^2 + d_1x_4^2 + 2\alpha_1x_1x_2 + 2\beta_1x_1x_3 + 2\gamma_1x_1x_4 + 2\xi_1x_2x_3 + 2\eta_1x_2x_4 + 2\delta_1x_3x_4 \\ x'_2 = 0 &= \alpha_2x_1^2 + b_2x_2^2 + c_2x_3^2 + d_2x_4^2 + 2\alpha_2x_1x_2 + 2\beta_2x_1x_3 + 2\gamma_2x_1x_4 + 2\xi_2x_2x_3 + 2\eta_2x_2x_4 + 2\delta_2x_3x_4 \end{aligned}$$

follows that

$$\begin{aligned} a_1 &= b_1 = c_1 = d_1 = \alpha_1 = \beta_1 = \gamma_1 = \xi_1 = \eta_1 = \delta_1 = 0 \\ a_2 &= b_2 = c_2 = d_2 = \alpha_2 = \beta_2 = \gamma_2 = \xi_2 = \eta_2 = \delta_2 = 0 \end{aligned}$$

Then for any point $A \in S^3$ we get $V(A) \in [A_3, A_4]$ i.e. $V(S^3) \in [A_3, A_4]$, which contradicts surjectivity.

Lemma 3. Let V be a surjective quadratic operator. Then no boundary point other than the vertices can be transferred under the mapping V to one of the vertices of the simplex.

Proof. Let $A = (x_1, x_2, x_3, x_4) \in \partial S^3$, $A \neq A_l$, $l = 1, 2, 3, 4$ us offer it for certainty $A \in [A_1, A_4]$. We must prove that $V(A) \neq A_l$, $l = 1, 2, 3, 4$. Let us propose the opposite and let it be for certainty $V(A) = A_l$. Then

$$\begin{aligned}
 1 &= \alpha_1 x_1^2 + b_1 x_2^2 + c_1 x_3^2 + d_1 x_4^2 + 2\alpha_1 x_1 x_2 + 2\beta_1 x_1 x_3 + 2\gamma_1 x_1 x_4 + 2\xi_1 x_2 x_3 + 2\eta_1 x_2 x_4 + 2\delta_1 x_3 x_4 \\
 0 &= \alpha_2 x_1^2 + b_2 x_2^2 + c_2 x_3^2 + d_2 x_4^2 + 2\alpha_2 x_1 x_2 + 2\beta_2 x_1 x_3 + 2\gamma_2 x_1 x_4 + 2\xi_2 x_2 x_3 + 2\eta_2 x_2 x_4 + 2\delta_2 x_3 x_4 \text{ from where} \\
 0 &= \alpha_3 x_1^2 + b_3 x_2^2 + c_3 x_3^2 + d_3 x_4^2 + 2\alpha_3 x_1 x_2 + 2\beta_3 x_1 x_3 + 2\gamma_3 x_1 x_4 + 2\xi_3 x_2 x_3 + 2\eta_3 x_2 x_4 + 2\delta_3 x_3 x_4 \\
 0 &= \alpha_4 x_1^2 + b_4 x_2^2 + c_4 x_3^2 + d_4 x_4^2 + 2\alpha_4 x_1 x_2 + 2\beta_4 x_1 x_3 + 2\gamma_4 x_1 x_4 + 2\xi_4 x_2 x_3 + 2\eta_4 x_2 x_4 + 2\delta_4 x_3 x_4 \\
 a_l &= b_l = c_l = d_l = \alpha_l = \beta_l = \gamma_l = \xi_l = \eta_l = \delta_l = 0, \quad l = 2, 3, 4.
 \end{aligned}$$

Therefore, for any point $A \in [A_1, A_4]$, $V(A) = A_1$, i.e. $V([A_1, A_4]) = A_1$ which, as is easy to see, contradicts surjectivity.

Proof of Theorem 1. By Lemmas 1-3, the surjective quadratic operator maps vertices of a simplex to vertices and edges to edges, i.e. A surjective quadratic operator corresponds to some combination itself π_l , $l = \overline{1, 2, 4}$.

2. Discussion and results.

Let us now determine what type of quadratic operators correspond to each self-composition of a regular tetrahedron.

Let's start with identical self-combination π_1 . The quadratic operator V corresponding to this self-combination must satisfy the following conditions:

$V(A_l) = A_l$, $l = 1, 2, 3, 4$ and also

$$\begin{aligned}
 V([A_1, A_2]) &= [A_1, A_2], \quad V([A_1, A_3]) = [A_1, A_3], \quad V([A_1, A_4]) = [A_1, A_4] \\
 V([A_2, A_3]) &= [A_2, A_3], \quad V([A_2, A_4]) = [A_2, A_4], \quad V([A_3, A_4]) = [A_3, A_4]
 \end{aligned}$$

If we rewrite these conditions using Theorem 1, taking into account that $A_1(1,0,0,0)$, $A_2(0,1,0,0)$, $A_3(0,0,1,0)$, $A_4(0,0,0,1)$ we obtain the following relations:

$$\begin{aligned}
 P_{11,1} &= 1 & P_{22,1} &= 0 & P_{33,1} &= 0 & P_{44,1} &= 0 \\
 P_{11,2} &= 0 & P_{22,2} &= 1 & P_{33,2} &= 0 & P_{44,2} &= 2 \\
 P_{11,3} &= 0 & P_{22,3} &= 0 & P_{33,3} &= 1 & P_{44,3} &= 0 \\
 P_{11,4} &= 0 & P_{22,4} &= 0 & P_{33,4} &= 0 & P_{44,4} &= 1
 \end{aligned} \tag{2}$$

Now, since an arbitrary point belonging to an edge $[A_1, A_2]$ has coordinates, $(x_1, 1-x_1, 0, 0)$ we $V([A_1, A_2]) = [A_1, A_2]$ have

$$0 = x'_3 = P_{11,3}x_1^2 + P_{22,3}(1-x_1)^2 + 2P_{12,3}x_1(1-x_1)$$

$$0 = x'_4 = P_{11,4}x_1^2 + P_{22,4}(1-x_1)^2 + 2P_{12,4}x_1(1-x_1)$$

And from (1) it follows that $2P_{12,3} = 0, 2P_{12,4} = 0$ where $P_{12,3} = 0, P_{12,4} = 0$; similarly from $V([A_1, A_3]) = [A_1, A_3], V([A_1, A_4]) = [A_1, A_4]$, $V([A_2, A_3]) = [A_2, A_3]$, $V([A_2, A_4]) = [A_2, A_4], V([A_3, A_4]) = [A_3, A_4]$. We have

$$P_{23,1} = 0, P_{24,1} = 0, P_{34,1} = 0, P_{13,2} = 0, P_{14,2} = 0, P_{14,3} = 0, P_{24,3} = 0, P_{34,2} = 0, P_{13,4} = 0, P_{23,2} = 0$$

Thus, the quadratic operators corresponding to the combination itself π_1 have the following form:

$$V_1(\alpha, \beta, \gamma, \xi, \eta, \delta) = \begin{bmatrix} 1 & 0 & 0 & 0 & \alpha & \beta & \gamma & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 & 0 & 1-\alpha & 0 & 0 & \xi & \eta & 0 \\ 0 & 0 & 1 & 0 & 0 & 1-\beta & 0 & 1-\xi & 0 & \delta \\ 0 & 0 & 0 & 1 & 0 & 0 & 1-\gamma & 0 & 1-\eta & 1-\delta \end{bmatrix} \quad \text{where } \alpha, \beta, \gamma, \xi, \eta, \delta \in [0,1] \text{ are}$$

arbitrary numbers.

Obviously, the convex linear combination of quadratic operators corresponding to the combination itself π_1 also corresponds to this combination itself.

Let us show that the quadratic operator $V_1(1/2, 1/2, 1/2, 1/2, 1/2)$ corresponding to the combination itself π_1 coincides with the combination itself π_1 . Indeed, when $\alpha, \beta, \gamma, \xi, \eta, \delta = 1/2$ the quadratic operator $V_1(1/2, 1/2, 1/2, 1/2, 1/2, 1/2)$ is an identity operator, since

$$\begin{cases} x'_1 = x_1^2 + x_1x_2 + x_1x_3 + x_1x_4 \\ x'_2 = x_2^2 + x_1x_2 + x_2x_3 + x_2x_4 \\ x'_3 = x_3^2 + x_1x_3 + x_2x_3 + x_3x_4 \\ x'_4 = x_4^2 + x_1x_4 + x_2x_4 + x_3x_4 \end{cases} \text{ or } \begin{cases} x'_1 = x_1(x_1 + x_2 + x_3 + x_4) \\ x'_2 = x_2(x_1 + x_2 + x_3 + x_4) \\ x'_3 = x_3(x_1 + x_2 + x_3 + x_4) \\ x'_4 = x_4(x_1 + x_2 + x_3 + x_4) \end{cases}$$

whence, due to the fact that $x_1 + x_2 + x_3 + x_4 = 1$, we obtain that $V_1(1/2, 1/2, 1/2, 1/2, 1/2, 1/2)$ coincides with the combination itself π_1 .

For quadratic class operators, $V_1(\alpha, \beta, \gamma, \xi, \eta, \delta)$ transformation (1) takes the form:

$$\begin{cases} x'_1 = x_1^2 + 2\alpha x_1 x_2 + 2\beta x_1 x_3 + 2\gamma x_1 x_4 \\ x'_2 = x_2^2 + 2(1-\alpha) x_1 x_2 + 2\xi x_2 x_3 + 2\eta x_2 x_4 \\ x'_3 = x_3^2 + 2(1-\beta) x_1 x_3 + 2(1-\xi) x_2 x_3 + 2\delta x_3 x_4 \\ x'_4 = x_4^2 + 2(1-\gamma) x_1 x_4 + 2(1-\eta) x_4 x_2 + 2(1-\delta) x_3 x_4 \end{cases}$$

Where, after some transformations, we get

$$\begin{cases} x'_1 = x_1[1 + (2\alpha - 1)x_2 + (2\beta - 1)x_3 + (2\gamma - 1)x_4] \\ x'_2 = x_2[1 + (1 - 2\alpha)x_1 + (2\xi - 1)x_3 + (2\eta - 1)x_4] \\ x'_3 = x_3[1 + (1 - 2\beta)x_1 + (1 - 2\xi)x_2 + (2\delta - 1)x_4] \\ x'_4 = x_4[1 + (1 - 2\gamma)x_1 + (1 - 2\eta)x_2 + (1 - 2\delta)x_3] \end{cases} \quad (3)$$

A quadratic operator of the form (3) belongs to the class of Voltaire operators. This class of operators is considered in [3]. In particular, for Voltaire quadratic operators it has been proven that operators of this type are one-to-one and mutually continuous operators [14]. From here we have the following.

Proposition 1. Any surjective quadratic operator corresponding to the combination itself $\pi_l, l = \overline{1,24}$ is a homeomorphism of the simplex S^3 .

Without repeating the rather simple calculations done above, we give a description of the classes of surjective quadratic operators corresponding to the remaining self-combinations $\pi_l, l = \overline{2,24}$. The surjective quadratic operator $V_l(\alpha, \beta, \gamma, \xi, \eta, \delta)$ corresponding to the combination itself π_l is defined as follows.

Consider the case when π_1 , has the following form:

(other cases are considered similarly).

$$\begin{bmatrix} 0 & 0 & 0 & 1 \\ 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 1 & 0 \end{bmatrix} \quad (4)$$

The quadratic operator $V_l(\alpha, \beta, \gamma, \xi, \eta, \delta)$ of self-combination of this self-combination has the following form:

The combination itself has the following form:

$$\begin{bmatrix} 0 & 0 & 0 & 1 & 0 & 0 & \gamma & 0 & \eta & \delta \\ 1 & 0 & 0 & 0 & \alpha & \beta & 1-\gamma & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 & 0 & 1-\alpha & 0 & 0 & \xi & 1-\eta & 0 \\ 0 & 0 & 1 & 0 & 0 & 1-\beta & 0 & 1-\xi & 0 & 1-\delta \end{bmatrix} \quad (5)$$

where $\alpha, \beta, \gamma, \xi, \eta, \delta \in [0,1]$ are arbitrary numbers. In this case, transformation (1) takes the following form:

$$\begin{cases} x'_1 = x_4^2 + 2\eta x_4 x_2 + 2\eta x_1 x_4 + 2\delta x_3 x_4 \\ x'_2 = x_1^2 + 2(1-\gamma)x_1 x_4 + 2\alpha x_2 x_1 + 2\beta x_1 x_3 \\ x'_3 = x_2^2 + 2(1-\alpha)x_1 x_2 + 2(1-\eta)x_2 x_4 + 2\xi x_3 x_2 \\ x'_4 = x_3^2 + 2(1-\beta)x_1 x_3 + 2(1-\xi)x_3 x_2 + 2(1-\delta)x_3 x_4 \end{cases}$$

Where, after some transformations, we get

$$\begin{cases} x'_1 = x_4 [1 + (2\gamma - 1)x_1 + (2\eta - 1)x_2 + (2\delta - 1)x_3] \\ x'_2 = x_1 [1 + (1 - 2\gamma)x_2 + (2\beta - 1)x_3 + (2\alpha - 1)x_4] \\ x'_3 = x_2 [1 + (1 - 2\alpha)x_1 + (1 - 2\eta)x_4 + (2\xi - 1)x_3] \\ x'_4 = x_3 [1 + (1 - 2\beta)x_1 + (1 - 2\xi)x_2 + (1 - 2\delta)x_4] \end{cases}$$

It is easy to verify that when $\alpha = \beta = \gamma = \xi = \eta = \delta = 1/2$ the quadratic operator (5) coincides with the combination itself (4). Similarly, in other cases, $\alpha = \beta = \gamma = \xi = \eta = \delta = 1/2$ the quadratic operator $V_l(\alpha, \beta, \gamma, \xi, \eta, \delta)$ coincides with the combination itself $\pi_l, l = \overline{1,24}$. Repeating the above reasoning, we can give a description of the classes of surjective quadratic operators corresponding to the remaining self-combinations $\pi_l, l = \overline{1,24}$.

Let us denote by \tilde{v}_l the set of all surjective quadratic operators of the form $V_l(\alpha, \beta, \gamma, \xi, \eta, \delta), l = \overline{1,24}$.

From the construction it follows

Suggestions 2 . For any $l = \overline{1,24}$ convex linear combination of quadratic operators from \tilde{v}_l again belongs to \tilde{v}_l .

Theorem 2 . Any surjective operator is a homeomorphism of a simplex S^3 .

Proof . From Theorem 1 it follows that an arbitrary surjective quadratic operator belongs to one of the classes $\tilde{v}_l, l = \overline{1,24}$. This $l = 1$ statement is proven in Proposition 1.

Let $l \neq 1$. Then the quadratic operator $V_l(\alpha, \beta, \gamma, \xi, \eta, \delta)$ is a composition of two transformations.

$V_l(\alpha, \beta, \gamma, \xi, \eta, \delta) = V_1(1/2, 1/2, 1/2, 1/2, 1/2, 1/2) V_l(\alpha, \beta, \gamma, \xi, \eta, \delta)$. Here the operator $V_1(\alpha, \beta, \gamma, \xi, \eta, \delta)$ is a homeomorphism by virtue of Proposition 1, and the transformation $V_1(1/2, 1/2, 1/2, 1/2, 1/2, 1/2)$ coinciding with the combination itself π_1 is obviously a homeomorphism. Since the composition of two homeomorphisms is a homeomorphism, the statement of Theorem 2 follows from this.

As a corollary, we present the following theorem.

Theorem 3 . A quadratic operator defined on a simplex S^3 is surjective if and only if it is bijective .

Proof. From the cases considered above it is clear that the quadratic operators V_l from \tilde{v}_l for any $\alpha, \beta, \gamma, \xi, \eta, \delta \in [0,1]$ are one-to-one mappings of the simplex S^3 onto S^3 .

Conclusion. The article examines surjective quadratic operators $V(S^{n-1}) = S^{n-1}$ where S^{n-1} simplex and V is a quadratic operator defined on

We defined 24 classes of surjective quadratic operators and proved that they exhaust the entire set of surjective quadratic operators.

We looked at the simplex in R^4 then it was easy to show that the group of self-combinations of the tetrahedron, G in, R^4 consists of the group of all permutations of the vertices of this tetrahedron, i.e. $G = \{\pi_l\}_{l=1}^{24}$

We proved that 1. A quadratic operator V defined on a simplex S^3 corresponds to some self-combination π_l if V maps the vertices of the simplex S^3 to vertices and the edges of the simplex to edges in the same way as the combination itself $\pi_l, l = \overline{1,24}$.

2. Any surjective quadratic operator corresponding to the combination itself $\pi_l, l = \overline{1,24}$ is a homeomorphism of the simplex S^3 .

3. For any $l = \overline{1,24}$ convex linear combination of quadratic operators from \tilde{v}_l again belongs to \tilde{v}_l .

4. Any surjective operator is a homeomorphism of a simplex S^3 .

5. A quadratic operator defined on a simplex S^3 is surjective if and only if it is bijective.

Those. You can study all the properties of surjective quadratic operators defined on the simplex S^3 , with a wave of 24 surjective quadratic operators.

Literatures

- [1]. Александров П.С. Введение в теорию групп. М.: Учпедгиз, 1938. 125с.
- [2]. Бернштейн С.Н. Решение одной математической проблемы, связанной с теорией наследственности. Уч. Зап. Н.И. кафедр. Украины, отд.матем.1924, вып.1.с 83-115.
- [3]. Ганиходжаев Р.Н. Квадратичные стохастические операторы. Функции Ляпунова и турниры.// Матем. Сб.,1992.Т.183, №8, с. 119-140.
- [4]. Генетика и наследственность. // Сб .статей. Мю,1987. 300 с.
- [5]. Абдирасулов, Х., & Холбеков, Ш. О. (2022). ПРИМЕНЕНИЕ БЕТА И ГАММА ФУНКЦИЕЙ К ВЫЧИСЛЕНИЮ НЕКОТОРЫХ ВАЖНЫХ В ПРИКЛАДНЫХ ЗАДАЧАХ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(4), 955-963.
- [6]. Xolbekov, S.O., & Omonova, N.R. (2022). A-ANALITIK FUNKSIYALARNING UMUMLASHMASINI OPERATORLAR YORDAMIDA KIRITILISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(4), 946-954.

- [7]. Мейлиев, Х. Ж., & Холбеков, Ш. О. (2021). НЕПОДВИЖНЫЙ ТОЧКИ КВАДРАТИЧНЫЕ СТОХАСТИЧЕСКИЕ ОПЕРАТОРЫ НА $S^1 \times S^1$. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 1152-1155.
- [8]. Meyliev, K.J., & Kholbekov, S.O. (2021). Voltaire quadratic stochastic operators of a bisexual population. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 56-64.

O'ZBEK VA INGLIZ OG'ZAKI IJOD NAMUNALARIDA TIL ODOBI TALQINI

O'rayeva Darmonoy

*Buxoro davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori*

Komilova Dildora,

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada til odobi badiiy talqin qilingan og'zaki badiiy asarlar: qo'shiqlar, yor-yorlar, kelin salomlar, ertaklar, maqol va topishmoqlarga alohida e'tibor qaratildi va ular matni lingvopoetik nuqtai nazardan tahlilga tortildi. Shu asosda til odobining poetik tasvir va talqin xususiyatlarini aniqlashga harakat qilindi. Bu masalani og'zaki adabiyotda so'zning sehri qudratiga ishonch, yaxshi va yomon so'zlarning inson ruhiyatiga ta'siri, til foydasi va ofati, to'g'riso'zlik va yolg'onchilik, shirinso'zlik, xushmuomalalik haqida yaratilgan badiiy matnlarni ijodkorlik mahorati nuqtai nazaridan qiyosiy adabiyotshunoslik doirasida o'rganish asosida til va so'zning ijtimoiy vazifasi estetik baholanishiga oid adabiy tamoyillarni aniqlash ko'zda tutildi.

Kalit so'zlar: til, til odobi nutq odobi, xushmuomalalik, folklor, qo'shiq, ertak, maqol, topishmoq, yor-yor, kelin salom.

Annotation: This article focuses on the artistic interpretation of linguistic etiquette in oral literary works such as songs, "yor-yor" chants, bride greetings, tales, proverbs, and riddles. These texts were analyzed from a linguopoetic perspective, aiming to identify the poetic imagery and interpretation of language etiquette. Based on this analysis, the study sought to determine the characteristics of linguistic etiquette in poetic depictions, with particular attention to the magical power of words in oral literature, the effects of good and bad words on human psychology, the benefits and harms of language, truthfulness and deceit, pleasant speech, and politeness. The aim was to identify literary principles related to the social function and aesthetic evaluation of language and words by examining creative texts through comparative literary analysis.

Keywords: language, linguistic etiquette, speech etiquette, politeness, folklore, song, tale, proverb, riddle, "yor-yor," bride greeting.

Kirish (Introduction). Dunyo xalqlari og'zaki va yozma adabiyotida nutq odobi, tildan e'tiborli foydalanish, xushmuomalalik, til ofatlaridan saqlanishning ijtimoiy-axloqiy ehtiyoji talqini barcha davrlarda eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib, keng targ'ib qilib kelingan. Badiiy asarlardagi til va nutq odobiga oid ta'rif,

tavsif, talqin va tasvirlar, obraz va motivlar tizimini struktural, semantik hamda antropotsentrik nuqtai nazardan tadqiq qilishga, ularning genezisi, poetik ifoda xususiyatlarini aniqlashga hamisha qiziqish bilan yondashilgan. Bunda insonlarning tildan foydalanish etikasi va estetikasi, nutq odobi, soʻzchi holi va ruhiyati, oʻz fikrini denotativ va konnotativ tarzda ifodalash sanʼati, muomala madaniyati, uning taʼsirchan vositalari va usullaridan foydalanish mahorati poetik ifoda etilishini aniqlash adabiyotshunoslikning ijtimoiy rolini, unda bosh predmet inson ekanini asoslash imkonini berishi jihatidan muhim hisoblanadi. Bu jihatdan nutq odobi aks ettirilgan ogʻzaki badiiy asarlarni alohida oʻrganish, ularda til odobining poetik tasvir va talqin xususiyatlarini aniqlashga toʻgʻri keladi. Bu masalani ogʻzaki adabiyotda soʻzning sehrli qudratiga ishonch, yaxshi va yomon soʻzlarning inson ruhiyatiga taʼsiri, til foydasi va ofati, toʻgʻrisoʻzlik va yolgʻonchilik, shirinsoʻzlik, xushmuomalalik haqida yaratilgan badiiy matnlarni ijodkorlik mahorati nuqtai nazaridan qiyosiy adabiyotshunoslik doirasida oʻrganish til va soʻzning ijtimoiy vazifasi estetik baholanishiga oid adabiy tamoyillarni aniqlashga xizmat qilishi bilan muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili (Literature review). Jahon tilshunosligida nutq odobi va nutq madaniyati masalalari tadqiqiga hamisha katta eʼtibor qaratib kelingan. [1, 2, 3, 4]. Xushmuomalalik prinsiplariga asoslanish nutq odobining bosh shartlaridan biri ekani haqida ham ayrim tadqiqotlar mavjud. [5; 6].

Til, nutq odobi va madaniyati masalasiga hamisha adabiyotning xoh ogʻzaki, xoh yozma shakli boʻlsin, asosiy mavzulardan biri sifatida yondashilib kelingan. Folklor(ogʻzaki badiiy ijod)dan boshlangan bu anʼana yozma adabiyotda ham barcha davrlarda eng faol mavzu hisoblangan.

Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asarida keltirilgan qadimiy maqollardan birida “Erdam bashi – til” deyilgan. Odobning boshi esa tillashish, yaʼni salomlashishdir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu maqolada tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, mantiqiy umumlashtirish, komponent, kontekstual, sotsiopragmatik, madaniyatlararo chogʻishtirma, etnofolkloristik, analitik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama (Result and Discussions). Oʻzbek xalq qoʻshiqlarining birida kelinlikka tanlangan qizning boʻlajak qaynsingil bilan koʻchada toʻqnash kelganida salomlashmagani, nopisandligi keskin tanqid qilinganiga guvoh boʻlish mumkin:

Aka yoringni koʻrdim,
Koʻchada turgan ekan.
Egilib salom bersam,

Tili yo‘q hayvon ekan.

Xalqimizda “Qudachilik – ming yilchilik” degan gap bor. Buning uchun qudachilikning boshlanishidanoq o‘zaro shirin til, xushmuomala bo‘lish talab etiladi. Mana shu ma’noda yor-yorlarda bunga alohida e’tibor qaratilganini kuzatish mumkin:

Qudalar keladi uzoq yo‘l bilan,
Yo‘lini supuring qizil gul bilan.
Dasturxon chiqaring ikki qo‘l bilan,
Uzatib yuboring shirin til bilan.
Xush kelibsiz, qudalar,
Xushvaqt keting, yor-yor.

O‘zbek xalq nikoh to‘yi qo‘shiqlarining mustaqil bir janr turi bo‘lgan **kelin salomlar**da til odobi talqiniga alohida e’tibor bilan yondashilgani kuzatiladi. Uning boshlanishida quyidagi misralar keltiriladi:

Kelinim salom beradi,
Tiliga kalom oladi.

Kelin salomlar kelinchakka kuyovning eng yaqin kishilarini tanishtirish uchun aytiladi. Dastlab qaynotasiga salom yo‘llanar ekan, uning “Gapi-so‘zi qimmatli”ligi muhim fazilat sifatida talqin etiladi. Undan so‘ng qaynonaga qaratilgan kelin salom aytiladi. Bunda qaynonaga nisbatan “Salom bilan so‘ylagan”, “Shirin so‘zi bilan ko‘ndirgan”, “Og‘zi bolli piyola”, “O‘tirsas so‘zni bo‘ldirgan” kabi ijobiy yoki salbiy fikrlar ham aytilishi mumkin. Jumladan:

O‘tirsas o‘poq deguvchi,
Tursas so‘poq deguvchi,
Kelinim cho‘ltoq deguvchi
Qaynonasiga salom.

Qaynakaga “Mehmon kelsa xo‘sh degan”, “Erkalab so‘zlab yosh bo‘ldi”, qaynopaga “Boldan shirin so‘zi bor”, qaynsingilga “So‘zlagani so‘kkanday”, qaynukaga “Sayrab turgan bulbulday”, “Hech so‘zining turog‘i yo‘q”, qaynammaga “So‘zlagan so‘zi ko‘rimli”, qaynxolaga “So‘zlaganda shirin so‘zi sanoli¹, qaynamakiga “Mehrdan bitilgan ajab so‘zi bor”, yangaga “Gapirgan gapi sarpali”² yoki “Gapni eldan-elga oshirgan”, to‘yni boshqaruvchi kayvoniga “Gapni olib chopuvchi” kabi sifatlashli birikmalardan foydalanilishi kuzatiladi. Ovsinga qaratilgan kelin salomlarda ham goh ijobiy, goh salbiy sifatlashlar qo‘llanishi namoyon bo‘ladi. Ovsin “Beparovuz og‘zi bor, urushmoqqa bo‘l tayyor” yoki “Gapi, so‘zi toshday” deb tanqidiy ruhda yoyinki “Suhbatini soz etgan”, “So‘z so‘zlasa qotirib, gapiradi botirib” maqtab ta’rif-tavsif bilan

¹ Sanoqli

² Vahimali, lofli

tanishtiriladi.

Ba'zida tildan g'iybat, fisq-u fasod yo'lida ham foydalanadiganlar topiladi. Shu vajdan quyidagi qo'shiqda ikki sevishganni so'z yugurtirib ayirgan toshbag'ir, g'iybatchi insonlar fosh etiladi:

Suv keladur guldur-guldur,
Sevganim qizil guldur.
Seni bizdin ayirganlar,
So'ngaksiz qip-qizil tildur. [7].

Til haqida yaratilgan ertaklar ham uchraydi. Bunga o'zbek xalqi orasida tarqalgan "Til tig'dan o'tkir" ertagini misol qilish mumkin. Unda hikoya qilinishicha, o'tmish zamonda bir mamlakatning podshosi qattiq kasal bo'lib qolibdi. Mashhur tabiblar ham ko'rib uni tuzata olmabdilar. Nihoyat, bir donishmand chol podsho qoshiga kelib: "Sher sutini ichsangiz tuzalasiz", – debdi. Podsho jar chaqirtiribdi. Hech bir joydan biror kimsa: "Sher sutini men olib kelaman", demabdi. Oradan bir necha kun o'tgach, podsho saroyiga bir yigit kelib, bu vazifani zimmasiga olishini bildiribdi. U podshodan to'rt qo'zi so'rab olib, bir ona sher bolalari bilan yashaydigan cho'lga boribdi. U qo'zilardan uchtasini sher bolalariga yedirib, qolgan to'rtinchi qo'zini ko'tarib to'g'ri ona sher oldiga boribdi. Ona sher yigitga tashlanmabdi, balki qo'zilarni yuborayotgan o'sha yigit ekanligini anglab jim yotibdi. Yigit kelib bemalol sherning sutini sog'ib olibdi va iziga qaytibdi. Yigit yo'lda qaytib ketayotganida uning qo'li, oyog'i, ko'zi va tili o'zaro janjallashib qolibdi. Quloq: "Men jarchidan eshitdim, shuning uchun yigit bu vazifani bajardi" – desa, ko'z: "Avval men ko'rdim, mensiz yigit bu joylarga kela olmas edi", – debdi. Oyoqlari: "Bizlar yurib-yurib shu joylarga olib keldik, bizlarsiz yigit bir qadam ham ilgari siljimas edi" desa, ko'llari: "Biz avaylab sher sutini sog'dik, yigit murod-maqsadiga yetadi", – deyishibdi. Indamay turgan til: "Ey og'aynilar, hammamiz bir jon, bir tanmiz, lekin dunyoda mendan o'tkir narsa yo'q. Chunki til tig'dan o'tkir, xonasi kelsa, tig'ni ham qaytaradi", – debdi. Hamma a'zolar o'zaro janjallashib, talashib, podsho saroyiga yetib kelganini bilmay qolishibdi. Yigit podsho saroyiga kirib kelganida podsho undan qanday sut olib kelganini so'rabdi. Yigit shoshib qolib: "Echki suti", – deb yuboribdi. Podsho: "Jallod!" – deb baqribdi. Jallodlar kelib yigitning qo'l-oyog'ini bog'lamoqchi bo'lganlarida, podshoning dono vaziri: "To'xtang, taqsir, bu sahroyi yigit, arkoni davlatni ko'rmagan, shoshib tili tutilib qoldi. Yana bir so'rang. Qo'lidagi ko'zachada nima olib kelganini aytib bersin", – debdi. Podsho yana so'rabdi. Shunda yigit, es-hushini yig'ishtirib olib, sher sutini keltirganini aytibdi. Podsho sher sutini ichib sog'ayibdi. Yigitning tili so'zga kirib, boshqa a'zolariga qarab: "Ey og'aynilar, ko'rdingizmi? Yigit shoshib qolib, tili g'uldirab, yanglishib: "Echki suti", deganida bekorga o'lib ketar edi. Es-hushini yig'ishtirib, o'ylab to'g'risini aytgani uchun o'limdan qoldi. Til tig'dan

o'tkir deb, bekorga aytmaganlar", – debdi.

Ko'rinadiki, ertakda inson tana a'zolarining ichida tilning o'rni va ahamiyati, qudrati, uning ong va tafakkur, aql bilan bog'liqligi o'ziga xos badiiy uslubda ochib berilgan.

O'zbek xalq maqollarining bir qismi mazmunan til odobiga bag'ishlangani jihatidan alohida tematik guruhni tashkil qiladi. Ularda til va tavoze odobi, uning hamma zamonlarda bosh axloqiy mezon sanalgani, xushmuomala va tavozeli kishi esa faqat e'zoz topgani qayd etilgan.

"Dildagi tilga ko'char" deganlaridek, odamning gapirgan gapiga qarab uning kimligini, ko'nglidagilarni, aql darajasini his etish mumkin. Shunga ko'ra, "Tilni bog'la dil bilan, Dilni bog'la til bilan", "Til – dil kaliti", "Til – dil tarjimoni, dil tilmochi", "Til – dil jarchisi", "Til – aql bezagi", "Til – aql tarozisi", "Yaxshi so'z – ko'ngil podshosi", "Bir tavakkal buzadi, ming qayg'uning qal'asin. Bir shirin so'z bitkazar, ming ko'ngilning yarasin", "Ko'zdan ko'zing toysa, so'zdan ko'ngling toyar", "Aytsam tilim kuyadi, Aytmasam dilim" deya uqtiriladi.

Xalqning bir qism maqollari **til va dil** to'g'ri bo'lishini uqtirish maqsadida paydo bo'lgan. Bunga "Tilingni to'g'ri tutolmasang, dilingni to'g'ri tut", "Dili qing'irning tili qing'ir" kabilar misol bo'la oladi. Darhaqiqat, to'g'riso'z insonlarning qo'lidan yovuzlik kelmaydi.

Yana bir qancha maqollar **til va el** birligini ta'kidlashga qaratilgani bilan e'tiborni tortadi: "El bor yerda so'z bor", "Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz", "Tilga e'tibor – elga e'tibor", "Elni sevsang, elcha gapir", "O'z aqling aqlidir, Elning aqli naqlidir", "Toza suvni yer olar, Yaxshi so'zni el olar", "Eldagi gap – dildagi gap".

Inson jamiyatda yashar ekan, o'zi kabi boshqa odamlar bilan muloqot qilishga, so'zlashishga, fikr almashishga majbur. Bunda unga ona tili xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib, "Ona tilim – jon-u dilim" deya, har bir inson o'z ona tilini qadrlashga, asrashga urinadi. Yana shuni nazarda tutib "Har kim o'z till bilan tirik" degan hikmat aytiladi.

Hayotda yaxshi so'zdan foydalanish inson manfaatiga xizmat qiladi. Ezgu so'z aytish muhim hisoblanadi. Xalq buni "Yaxshi so'z – jon ozig'i, yomon so'z – jon qozig'i" (yoki uning varianti: "Yomon gap – bosh qozig'i, yaxshi gap – jon ozig'i"), "Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqar, yomon so'z bilan pichoq qinidan chiqar", "Til yaxshisi bor etar, til yomoni xor etar", "Bir yaxshi gap esdan chiqmas, Bir – yomon gap", "Bug'doy noning bo'lmasin, Bug'doy so'zing bo'lsin", "Go'sht-yog' berma, yaxshi til ber", "Tilingda bo'lsa boling, Kulib turar iqboling", "Sen ham bir og'izdan, siz ham" singari maqollar orqali dalillashga uringan.

Yaxshi so'zlaydigan inson "shirinso'z", "shirinsuxan", "chuchuk til", "iliq so'z", "ochiq til" sifatlari bilan sifatlansa, "yomon so'z", dilozor kimsalar "achchiq til", "tili

zahar”, “sovuq so‘z” deya ajratiladi. Bu haqda ham qator maqollar yaratilgan bo‘lib, ularda “Achchiq til – zahri ilon, chuchuk tilga – jon qurbon”, “Mazali so‘zga quloq charchamas”, “Achchiq so‘z aytib, shirin so‘z kutma” yoki “Yomon so‘z egasiga qaytar”, “Bemorga shirin so‘z kerak, aqlsizga – ko‘z”, “Yomon so‘zlab sovutma, jon og‘ritib ovutma”, “Ochiq til osh yedirar, achchiq til – tosh”, “Yomon og‘izga – tosh, Yaxshi og‘izga – osh”, “Yomon gapning oyog‘i olti”, “Zahar til suyakni yorar”, “Donning achchig‘i yaxshi, so‘zning – shirini”, “Do‘st orttiramam desang, shirin suhbat qil”, “Ovqatni tuz mazali qilar, odamni – so‘z”, “Iliq so‘z – shakar, sovuq so‘z – zahar”, “Puling bo‘lmasa, bo‘lmasin, shirin so‘zing bo‘lsin”, “Shirin so‘z shakardan shirin”, “Yomon so‘z bo‘lmasa, Yaxshi so‘z bo‘lmaydi”, “Shirin so‘z – qaymoqli ayron, Achchiq so‘z – bo‘yniga arqon”, “Issiq kiyim tanni iltar, Issiq so‘z jonni iltar”, “Shakar ham tilda, zahar ham”, “Shirin so‘z shoh kosasida suv ichar”, “Shirin yuzingdan shirin so‘zing a‘lo”, “Yaxshi gapga quloq sol, Yomon gapga uloq sol”, “Yaxshi og‘izga – osh, Yomon og‘izga – tosh”, “Yaxshi so‘z bo‘ldiradi, Yomon so‘z kuydiradi” deb uqtiriladi.

Shu kabi ayrim maqollar inson xarakter-xususiyatini tavsiflash uchun ishlatiladi. “Anjom uy ziynati, so‘z inson ziynati”, “So‘zning boyligi – odamning chiroyligi”, “Ariqni suv bezar, odamni – so‘z”, “Gapi to‘mtiqning o‘zi to‘mtiq”, “Gapi to‘ngning o‘zi to‘ng”, “Birovning so‘zi yaxshi, Birovning o‘zi”, “Yomonning tili bor, Yaxshining dili bor”, “Birovning o‘zi g‘ar, Birovning so‘zi g‘ar”, “Odam – so‘zlashguncha, Yilqi – kishnashguncha”, “Yomonning tili bor, Yaxshining – dili”, “Yomonning yuzi qursin, Gapirgan so‘zi qursin”, “Qo‘yning qimmatini – yungida, Odamning qimmatini – so‘zida”, “Odam so‘zi bilan sinalar, osh – tuzi bilan”, “Taom lazzati o‘zida. Odam lazzati – so‘zida”, “O‘zi yuzsiz – so‘zi tuzsiz”, “So‘zi nodurustning o‘zi nodurust”, “O‘tarchining nashtari yeng ichida, Zahar xotin nashtari til uchida” kabi maqollar bunga dalil bo‘la oladi.

Odamning so‘zlashiga qarab, uning kimligini baholash ma‘nosi quyidagi maqollarda o‘z ifodasini topgan: “Buqa shoxidan, odam tilidan ilinar” yoki “Buqani shoxidan, odamni tilidan bog‘laydilar”.

Umuman aytganda, til odobiga nihoyatda qattiq rioya qilish, hamma narsani gap deb gapiravermaslik, o‘ylab gapirish zarurligi maqollarda alohida eslatib o‘tilgan. “Og‘zim bor deb gapirma, og‘zing yomon o‘rganar” yoki “Tilim bor deb so‘zlama, tiling yomon o‘rganar”, “Avval o‘yla, keyin so‘yla”, “Tilingni tiy, tishing sinmasin”, “Tilini tiygan boshini qutqarar”, “Til boshni yeydi, qo‘l – oshni”, “Til yugurigi boshga, oyoq yugurigi oshga” kabilar shular jumlasidandir.

Ko‘pgina maqollarda til ehtiyotlik bilan ishlatilmasa, boshga balo, falokat olib kelishi alohida uqtirilgan. Ularda “balo” so‘ziga mantiqiy urg‘u qaratilgan. Masalan: “Boshga balo tildan kelar”, “Insonga balo tilidan kelur”, “Til – balo, tish – qal‘a”, “Til bor, bol keltirar, Til bor, balo keltirar”, “Yomon til boshga balo keltirar, Yaxshi til davlat,

dunyo keltirar”, “Yo’l quvgan xazinaga yo’liqar, so’z quvgan – baloga”. Eng yomoni, til insonni o’limgacha olib borishi mumkin. Bu haqda maqollarda shunday eslatish berilgan: “Til erni go’rga solar, norni – qozonga” yoki “Til yomoni bo’yinga sirtmoq solar”.

Yana bir maqolda “Donishmandning tili yuragining orqasida bo’ladi” deyiladi. Bu bilan tilga e’tiborli bo’lgan inson donishmand sanalishi bildirilmoqda.

Qo’l yoki oyoq bilan yetkazilgan zarar yoki jarohat bitib ketadi, ammo til bilan yetkazilgan jarohat qalbni jarohatlaydi, qalbgga berilgan jarohat esa osonlikcha bitib ketmaydi. Shuning uchun ham tilga juda ham extiyot bo’lish zarurligi uqtiriladi. “Aytilgan so’z otilgan o’q” deyiladi, chunki aytilgan so’zni otilgan o’q kabi ortga qaytarib bo’lmaydi. O’q otilib borib birovning o’limiga sabab bo’lishi mumkinligi singari o’ylamay, zarb bilan aytilgan so’z ham odamning umriga zomin bo’la oladi. “So’z chumchuq emas, Og’izdan chiqsa, tutib bo’lmas”. Xullas, tildan ehtiyotkorlik bilan foydalanilmasa, u boshga balo orttiradi, egasiga ziyon-zahmat yetkazadi.

Xalq maqol va topishmoqlarida tilning tusi – qizilligi, tuzilishi – kichik va suyaksizligi, xususiyati alohida qayd etiladi: “Qizil til suyaksiz bo’lar”, “Qizil tilim bo’lmasa, qishlar edim elimda, Yashil tilim bo’lmasa, yayrar edim elimda”, “Qizil tilim tiyolmadim, Qizimnikiga borolmadim”, “Til kichik bo’lsa ham, dunyoni buzar”, “Shirindan-shirin til, achchiqdan-achchiq til” kabi. Albatta, bunday maqollarda so’z va til tushunchalari mantiqan bog’liqligi inobatga olinib, ular o’zaro sinexdoxa (butunning qismi) sifatida qo’llangani kuzatiladi.

Ba’zan qilich ishlatish, ya’ni zo’rlik bilan amalga oshirib bo’lmagan ishni yaxshi so’z, shirin gap, foydali taklif bilan amalga oshirish mumkin bo’ladi. Bu haqiqat, sinovdan o’tgan tajriba quyidagi maqollar mazmunida aks ettirilgan: “Qilich kesolmaganni so’z kesadi”, “Til tig’i qilich tig’idan o’tkir”, “Foydasiz so’zni aytma, foydali so’zdan qaytma” yoki “Foydasiz so’zni gapirma, foydalidan yuz burma”, “Aytar so’zni ayt, Aytmas so’zdan qayt” deyдилar.

Tilning qudrati quyidagi maqollarda yanada bo’rttirib ifoda etilgan. Aytilishicha, “Tig’ jarohati bitar, Til jarohati bitmas”, “Til bilan tugilgan tugun tish bilan yechilmas”, “So’zdan so’zning farqi bor, O’ttiz ikki narxi bor”, “To’qson og’iz so’zning to’qsonta tuguni bor”. “Kishining o’zi yetmagan yerga so’zi yetar”, “Kuch egmaganni so’z egar”, “Til tig’i qilich tig’idan o’tkir”, “Fil ko’tarmaganni til ko’tarar”, “Suyaksiz til suyak sindirar, “Tayog’i yo’g’on birni urar, So’zi yo’g’on mingni urar”, “So’z oyoqdan ilgari borar”.

Ayrim maqollar so’z ta’rifiga bag’ishlangan. Buni “So’z ko’rki – maqol”, “So’z ojizi bo’lguncha, ko’z ojizi bo’l”, “So’z emgak bo’lar, Bo’z – ko’ylak”, “So’zning onasi – quloq, Suvning onasi – buloq”.

Xalqimizda ko’p gapirish, mahmadanalik, vaysaqilik, be’mani so’zlash

yomonlik belgisi ekani eslatiladi: “Ko‘p gap eshakka yuk”, “Sihat tilasang, ko‘p yema; izzat tilasang, ko‘p dema”, “Gapdan gap chiqar, Balchiqdan imorat”, “Gapning qisqasi yaxshi, Qisqasidan hissasi yaxshi”, “Oz gapir – soz gapir”, “Olim so‘zi oz, oz bo‘lsa ham soz”, “So‘zdan so‘z chiqar, So‘zlamasang na chiqar”, “So‘zlagandan so‘zlamagan yaxshiroq, So‘zlab edim, boshimga tegdi tayoq”, “Tanballik – kulfat, Mahmadanalik – ofat”, “Uzun til – umr zavoli”, “Uzun til – boshga to‘qmoq, Bo‘yinga – sirtmoq”, “Gapning ozi yaxshi, Qizning – nozi”, “Dimog‘dorga bir gap – oz, Ikki gap – ko‘p”, “Elakka kirgan xotinning ellik og‘iz gapi bor” kabi.

Tilda genderlik ham o‘z aksini ko‘rsatadi. Ayollar va erkaklar nutqi bir-biridan farqli belgilarga ega. Shuni inobatga olib “Ayol tilini ayol bilar”, “Gung qizning tilini enasi tushunar” deyiladi. Yoki bolalar nutqi ham shunday farqlikka ega. Bu farq “Bola tilini bola tushunar” maqolida ifoda etilgan.

Til odobi mehmon va mezbon odobini ham namoyon etadiki, shuning uchun o‘zbek maqollarida bu haqda “Aytmas yerda og‘zingni tiy, mehmonga borsang nafsingni” deb uqtirilgan.

“Til uzuni bosh yeydi”, “Til erni go‘rga solar, norni – qozonga” kabi maqollarning yuzaga kelishiga islomiy qarashlarning ta‘sirini kuzatish mumkin. Yoki xalq orasida mavjud bo‘lgan “Chin so‘z – mo‘tabar, Yaxshi so‘z – muxtasar”, “Tilni tiygan boy bo‘lur” kabi maqollar ham hadislar ta‘sirida paydo bo‘lgan, degan xulosani beradi.

Rost (to‘g‘ri) so‘z ham tildan chiqadi, yolg‘on (egri) so‘z ham. Shuni inobatga olib, maqollarda rostgo‘ylik va yolg‘onchilik haqida alohida uqtirishlar berib o‘tilgan: “To‘g‘ri so‘z tosh yorar, egri so‘z – bosh”, “To‘g‘ri so‘z tuqqaningga yoqmas”, “Yolg‘on so‘zlab yashaguncha, rost so‘zlab o‘lgan yaxshi”, “Yolg‘on uyaltirar, rost suyuntirar”, “Yolg‘on aytib foyda ko‘rsang – oxiri zarar toparsan, rost aytib zarar ko‘rsang – oxirida foyda toparsan”, “Yolg‘onchining guvohi – qasam”, “Yov makrini yolg‘on yashirar”, “Rostga zavol yo‘q” kabi.

Til odobining yana bir muhim tomoni so‘zida turish, lafzlilik, subutilik, bir so‘zlik, lafzsiz bo‘lmaslik, munofiqlik qilmaslik shartini qo‘yadi. Bu haqda aytilgan maqollar ham mavjud. Ularning birida “Bir so‘zlikning yuzi yorug‘, Munofiqlarning yuzi choriq”, “Va‘daga vafo – mardning ishi, Va‘dasiz – subutsiz kishi”, “Yigit so‘zidan qaytmas, Arslon – izidan” deyiladi.

Tilni g‘iybat (“Orqadagi gap – og‘ildagi tezak”, “Gapda g‘iybat yomon, Dardda – quyanchiq”, “Gapdan gap chiqar, Cho‘pdan – xas”, “Gapi gapga o‘xshamas, Og‘zi gapdan bo‘shamas”, “Gapning yomoni pichir”, “Pichir-pichirdan o‘t chiqar”, “So‘zda qanquv yomon, Dardda – sanchuv”, “So‘zning yomoni – sanchiq, Dardning yomoni – quyanchiq”), qarg‘ish (“Egasiz qarg‘ish egasini topar”), xushomadgo‘ylik (“Ilmsiz bosh qashir, Xushomadgo‘y gap tashir”, “Ichak-chavoq go‘sh bo‘lmas, Laganbardor

do'st bo'lmas", "Shirin gapga uchma, Maqtaganni quchma", "Haqni aytsam urarlar, Xushomadni suyarlar") yo'lida ishlatish keskin tanqid qilinadi.

Xalq maqollarida yomon gap, yomon til va yomon so'z tushunchalari o'zaro farqlanganini kuzash mumkin:

Yomon gap yer tagida uch yil yotar.

Yomon til yo jonga urar, yo molga.

Yomon so'zning qanoti bor.

Ayni paytda bularga yaxshi gap, shirin til va yaxshi so'z tushunchalari o'zaro zid holatda qo'llanadi:

Yomonning **yaxshi so'zidan**, Yaxshining **yomon so'zi** yaxshi.

Ayrim holatda yomon so'z birikmasi matndan tushib qolsa-da, o'rni anglashilib turadi: "Dunyoni yel buzar, Odamni – (yomon) so'z.

Yomon gap birikmasi ba'zan **ko'ngilsiz gap** birikmasiga sinonim holatda qo'llanib keladi: "Ko'ngilsiz gapning kechikkani yaxshi".

Yaxshi so'z yoki **yaxshi gap** birikmalari ba'zida "duo" so'zi bilan almashtirib qo'llanganiga ham guvoh bo'lish mumkin:

Duo bilan el ko'karar, yomg'ir bilan yer ko'karar.

Duo olgan omondir, qarg'ish olgan yomondir.

Gohida yaxshi gap / ma'qul gap, yomon so'z / og'ritar so'z, sovuq so'z birikmalari bilan almashirib qo'llanganligi kuzatiladi:

Ma'qul gapga qoruv yo'q.

Og'riga joyga qo'l yugurar, **og'ritar so'zga** til yugurar.

Quloqdan kirgan **sovuq so'z**, Ko'ngilga borib muz bo'lar.

Shuningdek, yomon, be'mani gap tuzsiz oshga o'xshatilib, "tuzsiz gap" birikmasi bilan ifoda etiladi: "Tuzsiz oshning epi oson, Tuzsiz gapning epi qiyin".

Xalq orasida so'zga chechan, hozirjavob, zakiy insonlar hurmat qilinsa, ezma, vaysaqi kishilar xush ko'rilmaydi. Maqollarda shu haqda ogohlantirilib "Ming chechanni bir ezma yengar", "Muzdan suv tomar, so'zamoldan – bol", "Og'izga kelgan so'z arzon, ovulga kelgan bo'z arzon", "So'z kaltada, Un xaltada", "So'zni bir ezmadan so'ra, Bir – kezmadan" deyiladi.

Maqollarda ta'kidlanganidek, "Gap egasini topar", "Gapni gap ochar, Yomon gapdan qochar", "Dushman orttiraman desang, Chaqirtikan bo'l", "Suv o'z yo'lini topar, so'z – o'z egasini", "Gapni gapir uqqanga, Jonni jonga suqqanga", "Gapni gapirib netarsan, Onasi bemahal tuqqanga".

Asosiysi shundaki, til odobi dunyodagi barcha xalqlar adabiyotida mushtarak talqinga ega. Masalan, inglizlar orasida til odobi haqida quyidagi maqollar keng tarqalgan: "Too much politeness conceals deceit" (Haddan tashqari xushmuomalalik yolg'onni yashiradi), "Politeness is what warmth is to wax" (Xushmuomalalik

mumday yoqadi), “Polite words open iron gates” (Muloyim odobli so‘zlar temir eshiklarni ochadi), “A polite devil is more agreeable than a rude saint” (Muloyim shayton qo‘pol avliyodan ko‘ra yoqimliroqdir).

Xulosa. Ko‘rinyaptiki, bu maqollarda xushmuomalalik, muloyim va shirin so‘z bo‘lish targ‘ib qilinmoqda. Shu maqsad tufayli ko‘pincha o‘zbek va ingliz tillaridagi maqollarning so‘zma-so‘z mos kelishi ham kuzatiladi. Masalan:

o‘zbek tilida: “Suydirgan ham til, kuydirgan ham til” yoki “Sevdigan ham til, bezdirgan ham til”;

ingliz tilida: “*The tongue that loves and the tongue that burns*”.

“Bulbulning sayrashi guldir, mehr xazinası tildir” deganday insonning til odobi masalasi hamisha barcha xalqlar orasida diqqat-e‘tiborda bo‘lgan. Til odobi talqin topgan maqollarda yaxshi so‘z, yaxshilik va yomonlik, bu borada hushyorlik, ehtiyot bo‘lish, farosat masalaari markaziy o‘ringa qo‘yilgan.

Adabiyotlar

1. Brown P. Gender, Politeness and Confrontation in Tenejapa. – Discourse Process, 13 (1), 1990. – 151 p.
2. Cordella M. Spanish Speakers Apologizing in English: A cross-cultural pragmatic study //Australian Review of Applied Linguistics, 14 (12), 1991. – 140 p.
3. Grice P. Logic and Conversation / / Syntax and Semantics / Ed. Peter Cole, Jerry Morgan. Vol. 3: Speech Acts.
4. Lakoff R. The Limits of Politeness // Multilingua 8, 1990. –P.101-129/
5. Азнабаева Л. А. Принцип вежливости в английском диалоге: Монография. Уфа: РИО БашГУ, 2005. – 55 б.
6. Кошманова О.В. – “Концепт «скромность» в русской, американской и иранской лингвокультурах”. – Волгоград, 2007. – 256 б.
7. Ўзбек халқ кўшиқлари (сайланма) / Тузувчилар: Турдимов Ш., Назарова Ш. – Тошкент: Фан, 2020.

NAVOIY VA PSIXOANALIZ

Nodira O'FOQ,*"Tafakkur" jurnali bo'lim mudiri, f.f.d.**e-mail: afokova66@mail.ru*

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodi va hayotidagi voqealar psixoanaliz nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Muallif psixoanalizdagi libido, sublimatsiya kabi tushunchalarni o'zbek klassik shoiriasarlariga va hayotiga tadbiiq qiladi vaayrim gipotezalarni o'rtaga tashlaydi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, psixoanaliz, sublimatsiya, libido, Karl Yung, Zigmund Freyd, tanatos, tush, eksperimental psixologiya.

Annotation: This article analyzes the work of Alisher Navoi and the events of his life from the point of view of psychoanalysis. The author applies such concepts of psychoanalysis as libido, sublimation to the works and life of the Uzbek classic, and also puts forward some hypotheses.

Key words: Alisher Navoi, psychoanalysis, sublimation, libido, Carl Jung, Sigmund Freud, thanatos, dream, experimental psychology.

Kirish. Muhabbat – inson hayotidagi muhim hodisa ekani (Zigmund Freydning “libido”sini shunday atasak ham bo'ladi) yangilik emas. Nafaqat Alisher Navoiy ijodi, balki butun mumtoz SHarq adabiyotining bosh mavzusi shu, aslida. O'sha o'tmish adabiyotimizdagi qahramonlarni mislsiz jasoratlarga ruhlantirgan, ba'zan aqlidan mosuvo qilgan, jamiyat-u axloqning qahrnok tutumlariga qarshi yurgizib, gohida o'ziga o'xshagan bir inson qarshisida taslim ettirgan, goho esa o'ziga qarshi bordirgan ham ishqdir. Biz, tabiiyki, “insonni shahvoniy mayllar boshqaradi” degan Freyddan yotsiraymiz. Kimdir “Bizning shoirlar ishqni ilohiyini kuylagan, bu qanaqa qiyos!” deyishi ham mumkin. Ammo bizning o'sha olim-u shoirlar haqiqiy ishqqa majoziy – ya'ni insoniy ishq ko'prigi orqali boriladi, deydilar ham. Bil'aks, Alloh va Uning bandasi o'rtasidagi muhabbatga uchinchi bir kishini tiqishtirishning nima hojati bor?

E'tibor bersak, ilohiy ishqni yuksak pardalarda kuylagan hazrat Navoiy jismoniy ishqdan butunlay ko'z yumganlar. Buning uchun “Layli va Majnun” dostonining “*Falak zoli nayrangining o'zgarib turishi Majnunni Navfal qizi visoliga etkurmey turib ayirganidek, Laylini ham Ibni Salom malomatidan salomat ayirib, hajrning qaro tunida ikki nomurodni murodga etkurgani va badansiz ruhni ruhsiz badanga kiyurgani; ruh bilan badan vasli muyassar bo'lgach, firoq tig'ini surib, o'sha suv bilan visol o'tini o'chirgani*” deb nomlangan

31-bobidagi tasvirlarni eslash kifoya. Farhod ham o‘z dilbarini ko‘zguda ko‘rib, hushdan ketadi; o‘ziga kelgach, holidan uyalib, ota-onasi oldida qayta hushdan ketguday bo‘ladi, bu ishlar ixtiyoridan tashqari sodir bo‘lganini aytadi. Yigit kishi ishqi ilohiy uchun ota-ona oldida xijolat chekib o‘tirmas, axir... Alisher Navoiy bobomiz barcha mutafakkirlar singari insonni avvalo tabiiy mavjudot deb qaraganlar, uni tabiiy va ma’naviy tomonlarning bir butunligida tasvirlaganlar; faqatgina odam ilk boshlang‘ichi darajasida, tabiiy mayllarga o‘ralib qolmasdan o‘zini tarbiyalash, barkamollashtirish yo‘lidan borishi lozim, deb hisoblaganlar.

Zigmund Freyd g‘arb odami bo‘lgani, ilm-fan vakili, ayniqsa, vrach bo‘lgani uchun yuqorida aytilgan formulasini yalang‘ochroq qilib ifodaladi. U “libido” terminini iste’molga olib kirdi; Freydda bu atama insonni harakatga keltiradigan manba o‘laroq jinsiy maylni ifodalaydi. Keyinchalik Karl Yung mazkur tushuncha chegaralarini shon-shuhrat, agressiya, boylik, hokimiyat kabilar hisobiga kengaytirdi. Ikkisi ham odam bolasining o‘z oldiga qo‘yadigan maqsadlari shundan kelib chiqadi, deydi.. Professor Uzoq Jo‘raqulov libidoni sharqona nafsoniy istaklar sifatida talqin qiladi. Freydning o‘zi ham keyinroq atamani tor ramkadan chiqarib, hayotga muhabbat ma’nosida istifoda etdi. Bunga birinchi jahon urushi maydonlaridagi g‘ayriinsoniy manzaralar tufayli ruhiy muvozanati buzilgan, umidlari butkul so‘nib, depressiyaga, tushkunlikka muhtalo bo‘lgan odamlar taqdiri sabab bo‘ldi. Freyd ruhiy buzilishlarda ijtimoiy omilning ta’siri haqida o‘ylab qoldi, urushni inson tabiatidagi tajovuzkorlik mayli hamda g‘ayriixtiyoriy o‘limga intilish (**tanatos nazariyasi**) bilan bog‘ladi. U, umuman, libido tushunchasining mukammal ta’rifini berish qiyinligini e’tirof etgan holda, keyinroq – “Lazzat printsipining narigi tarafida” (“Po tu storonu printsipa udovol’stviya”, 1920) deya eros (hayot) tushunchasini libidoga yaqinlashtiradi. “Yunonlarda bu so‘z sevgi ma’budasi ma’nosini anglatadi. Freydning mayllar haqidagi keyingi nazariyasida bu o‘limga intilishning ziddi bo‘lgan hayotga intilishlarning bir butunligi deb tushuniladi”.³

Aslida Zigmund Freyd sirr-u asrorini ochgan ruhiy hodisalar undan besh asr oldin Alisher Navoiy asarlarida badiiyat pardalarida go‘zal ifoda topgan. Darvoqe, ruhiyatning uncha-muncha tanti va tafakkurli odamni ham shoshirib qo‘yadigan sinoatlari psixoanaliz otasi tomonidan ilmiy jihatdan kashf etilgan bo‘lsa-da, ularning yoshi insoniyatning yoshi bilan teng. Bu hodisalar san’at va adabiyot ibtidosida yaratilgan asarlarda ham aks etgan, chunki ruhshunos bo‘lmay turib yozuvchi bo‘lib bo‘lmaydi. Aynan shuning uchun ham psixoanalitiklar nazariy tadqiqotlarida hayotiy misollar bilan birga adabiyotdagi timsollardan ham foydalanganlar. Freyd hatto o‘zidan o‘n uch asr oldin yashab o‘tgan dramaturg Sofokl

³ Лапланш Ж., Понталис Ж. Словарь по психоанализу. – Москва, Высшая школа, 1996. – Стр. 589.

ijodiga murojaat qilib, ilmiy qarashlari tub-asosidagi hodisani “Edip kompleksi” deb nomlagan.

Shubha yo‘qki, Alisher Navoiy yaxshigina psixoanalitik ham bo‘lgan. Shoir “Xamsa”dagi ikki asosiy ishq dostoni bo‘lmish “Farhod va Shirin” hamda “Layli va Majnun”da ishqiy mayllar boshqargan oshiq obrazining ikki modelini beradi.

Farhod dunyoning jamiyki xoy-u havaslaridan, hatto hukmdorlikdan voz kechadi; ixtiyoriy ravishda mudhish xavf-xatarlarga peshvoz chiqadi; o‘zini og‘ir jismoniy mehnatlarga quchog‘iga otadi; ma‘naviy jihatdan tuban, xudparast hukmdorning asiriga aylanadi, ish halokatgacha borib etadi... Shuncha savdo-yu g‘avg‘olar ichida bir zum bo‘lsin orqaga qaytishni xayoliga keltirmaydiki, bu uni boshqarayotgan hukmfarmo kuch borligini, o‘sha kuch ishq ekanini ochiq ko‘rsatadi.

Majnun ham xuddi shunday. Qo‘y terisini yopinib poda ichida poylashdan tortib, sahroda hayvonlar ichida yashashga qadar yaqinlarini xijolat etadigan ishlarni qilishdan uyalmaydi. Hatto Ka‘baga bosh urib-da

“To bo‘lsa hayotdin nishonim,

Savdosini qil tan ichra jonim!

Jon chiqsa bu jismi notavondin,

Yodi bila-o‘q chiqor jahondin”⁴ deya tavallo qiladi. Muqobillik tom emasdiru, lekin dostonidagi mana shu sahna psixoanalitik jarayonni eslatadi: xasta odam o‘ylamay-netmay og‘ziga kelgan gapni aytib ketaveradi, shifokor esa ko‘rinish bermay uni chetdan kuzatib turadi.

Psixoanalizda libidodan keyin “sublimatsiya” tushunchasi keladi. Bu, soddaroq aytganda, kompensatsiya – o‘rin to‘ldirish demak. Freydga ko‘ra, odamning jinsiy mayllari ijtimoiy, axloqiy to‘siqqa uchrasa, u ong ostiga qaytadi va energiyani saqlanish qonuniga muvofiq butunlay yo‘q bo‘lib ketmaydi. Oradan qancha zamonlar o‘tib, boshqa shaklda, deylik, badiiy ijod, misli ko‘rilmagan bunyodkorlik ishlari, intellektual tadqiqotlar, ilmiy kashfiyotlar, umuman, jamiyat uchun qimmatli faoliyat ko‘rinishida voqe‘lanadi. Basharti, boshqa har qanday shaklda bo‘lsa-da reallasha olmasa, sahibining aqliy-ruhiy muvozanatini buzadi. Qizig‘i shundaki, Navoiyning ikki dostonida nomurod ishqning natijasi bir xil bo‘lmay, shoir sublimatsiyani aynan Freyd aniqlagan ikki shaklda ko‘rsatadi. Farhod ham Shirinni ko‘zguda ilk ko‘rgandan so‘ng, bir muddat savdoyi bo‘lib qoladi. Keyin esa borlig‘ida jo‘sh urgan quvvatni ilm olishga, tog‘ kesish, ariq qazish, obodonchilik kabi misli ko‘rilmagan bunyodkorlik ishlariga sarflaydi. Qays esa o‘tlig‘ g‘azallar yozadi, ammo ongosti quvvati ijodda ham to‘la voqelikka aylana olmagach, yigit bora-bora aqlidan ham mosuvo bo‘ladi.

⁴ Навоий А. МАТ. 20 томлик. 9-том. – Тошкент, Фан, 1992. – 152-б.

“Qaysning majnunligi ramziy xarakterda, u Laylining telbasi bo‘lgan, xolos” deyishingiz mumkin, albatta. Navoiy bobo yaxshigina psixoanalitik bo‘lganlar, bu e‘tirozga o‘zlari javob berib qo‘yganlar. Zero, Qaysdagi ruhiy buzilishlar faqat yorni qo‘msab o‘hu faryod chekish, Laylining qabilasi tarafga qochib borish, dashtga bosh olib ketish, yolg‘izlikka intilish kabi ishq xuruji shaklidagina emas. Dostonda aqlidan mosuvo bo‘lgan chinakam telbaning surati chizilgan:

*Gohi tutub o‘lturur edi mo‘r,
Goh tufroq ila yasar edi go‘r.
Gah shug‘li kesak toshurga ta‘jil,
Yosor edi ul kesak bila mil.
Gah sochar edi boshiga tufrog‘,
Gah tish bila olur edi tirnog‘.
Gah tomg‘a qo‘pub minar edi chust,
Har soriayog‘larin etib rust.
CHimdir edi englarini har dam,
CHaynar edi englarini har dam.⁵*

“Layli va Majnun”da sublimatsiyaga oid uchinchi bir voqea ham borki, bu taxlit g‘alati hol psixoanalitiklarning ishlarida ham qayd etilmagan.

Dashtda ov qilib yurgan Navfal bir kuni Majnunni uchratib qoladi, yigitning hol-u ahvolidan taajjubga tushadi. Odamlar unga Majnun qissasini aytib beradilar. Shunda Navfal zor-zor yig‘laydi, ovdan voz kechadi va Qaysga “Mol-davlat yo kuch bilan seni Layli visoliga erishtiray, bu muyassar bo‘lmasa, o‘z qizimni berib, seni kuyov qilay”, deydi. Sovchilar bilan ish bitmaydi. Bu ishq qissasiga aralashib qolgan Navfal urush boshlaydi-yu, ammo qo‘li baland kelganiga qaramasdan o‘quvchiga ma‘lum sabab bilan jangni to‘xtatadi... Bu ajabtovur mehribonlikdan xabardor bo‘lgan o‘quvchida “Navfal nega o‘z-o‘zidan Majnunga, yetti yot begona bir yigitga yordam berish uchun bu qadar javlon urdi?” degan savol paydo bo‘ladi. Yo‘q, o‘z-o‘zidan emas. Shoir yo‘l-yo‘lakaydek tuyulgan jumlada buni asoslagandek:

*Navfal dag‘i ishq ko‘rgan erdi,
G‘am dashti aro yugurgan erdi.*

Ya‘ni Navfal ham ishq balolarini boshidan kechirgan, ishq izzitroblarining nimaligidan boxabar edi; oshiqlar birdamligi haqqi-hurmati Majnunga qo‘l cho‘zgan, desak-da bo‘ladi. Ammo bu izoh judayam zaif. Bir odamni maqsadiga erishtirish bilan qilinadigan insoniylik – tinch yashayotgan qabilaga urush ochishdek g‘ayriinsoniylik orqali qilinmaydi, Navfal obrazining tabiati ko‘tarmaydi buni. Ayni vaqtda ayni xil yondashuv Navoiyning axloqiy-ma‘naviy dasturiga ham yot. Shoir

⁵ Навоий А. МАТ. 20 томлик. 9-том. – Тошкент, Фан, 1992. – 209-2010-б.

ishq masalasiga kuch bergan, hayot mantig'ini unutgan, deyish-ku aqlga mutlaqo to'g'ri kelmaydi.

Bu kabi tushunarsiz hollar boshqa asarlarda ham uchraydi. Deylik, psixoanaliz Shekspirning mashhur tragediyasidagi mantiqliday ko'ringan mantiqsizlikka diqqat qaratadi: Hamlet otasining qotilini aniqlaydi, uni o'ldirishga jazm qiladi, ammo asar oxirigacha turli bahonalar bilan qasosni orqaga suradi va pirovardida hech nima qilmaydi. Fojia nimada? Bizni Hamletga maftun etgan farzandlik burchi, qahramonlik qani?

Psixoanalizga ko'ra, bu xil lanjlikni Hamlet tabiatidagi insonparvarlik yoki iroda zaifligi, jasoratning yetishmasligi kabi argumentlar to'la izohlay olmaydi. Aslida Hamletning ong ostida "Edip kompleksi" sabab padarkushlik istagi yashab kelgan. Baxtiga, bu istak amakisining qo'li bilan amalga oshiriladi. Jamiyatdagi tartib-qoidalar, axloq me'yorlari, or-nomus qotildan o'ch olishni talab qiladi. Ammo ongosti xohishiamalga oshib bo'ldi, shu bois jamiyatning ko'zi uchun qilinadigan bir ish o'laroq o'ch istagi orqaga chekinadi.

Freyd "Shoir va fantaziya" asarida badiiy ijodni sublimatsiyaning oliy ko'rinishlaridan biri sifatida taqdim qilar ekan, shunday yozadi: "Aytish lozimki, baxtli emas, nomurod fantaziya yaratadi. Qondirilmagan xohish-istaklar – fantaziyani uyg'otadigan stimul-turtkidir; har bir fantaziya – bu xohish-istaklarning ro'yobi, qoniqtirmaydigan voqelikning tahriridir".⁶

Freyd ijodkor shaxsni go'dakka o'xshatadi. Bola uycharlar, shaharchalar qurib o'z olamini yaratgani kabi, ijodkor ham ongosti sathiga o'tib ketgan mayl-istaklarini fantaziya yordamida qahramonlariga, xayoliy dunyosiga ko'chiradi. Bizningcha, Navfal bilan ham shunga o'xshashroq holat sodir bo'lgan. U o'zining tolesiz muhabbatini o'zga inson taqdirida baxtiyorona yakunlamoqchi, o'zini noumid qilgan voqelikni tahrirlamoqchi bo'ldi. Majnun uning xos dostoni, romani edi. Ong ostining amru farmoni hatto shu qadar kuchliki, oliyjanob Navfal o'zarmonini Majnun orqaliamalga oshirish bilan bog'liq ongosti fantaziyasida goh urush – vayron qilish, zo'rlik orqali bo'lsa ham xohlaganiga erishmoqchi, goh qizi va Majnuning ixtiyorini bir chetga surib, ularning boshini qovushtirmoqchi bo'ladi. Navfalday tuppa-tuzuk odamning tushunarsiz, o'z tabiatiga yopishmaydigan agressiv xatti-harakatlari (m., urush boshlashi) psixoanalitik talqini shunday.

Majnun-Navfal epizodini freydizm nuqtai nazaridan tushunish odam tabiati bilan bog'liq quyidagi mulohazalarni ham tug'dirdiki, ularasossizdek bo'lib tuyulsa, aziz o'quvchi ma'zur tutar, degan umiddamiz.

⁶ Фрейд З. Поэт и фантазия // <https://cyberleninka.ru/article/n/poet-i-fantaziya>. З.Фрейднинг ушбу маърузаси макола муаллифи томонидан ўзбекчага ўгирилган. Бу ҳақда к.: Фрейд З. Санъаткор ва тахайюл // "Тафаккур", 2023 йил, 4-сон. – 56-66-б.

Xullas, inson hech qachon shaxsiy manfaatdan butunlay uzilgan o'zgarlar manfaatidan harakatga kelmaydi. Qaysidir bir harakat (yoki harakatsizlik) tashqaridan qaraganda – ong mantig'iga ko'ra bus-butunicha boshqalar uchun qilinayotgandek bo'lib ko'rinsa-da, ong ostidagi cho'kindilar orqali shaxsiy manfaat bilan bog'lanadi. Hazrat Navoiy bejizga

“Naf'ingagar xalqqa beshakdurur,

Bilki, bu naf' o'zinga ko'prakdurur” – ya'ni “men xalq uchun yugurib yuribman, degan da'volarni qo'y. Qilgan ishingda xalqqa bir naf' bo'lsa, o'zingga o'n naf' bor” demagan ekanlar-da. Aslida bu erda insonni kamsitadigan hech bir malomat yo'q.

Tadqiqot natijalari. Bizda, sho'ro davridan qolgan bo'lsa kerak, shaxsiy manfaatga nisbatan salbiyroq qarash shakllangan; unda go'yo uyatli nimadir bor. Xatti-harakatlarimizning, bitta zaif halqa bilan bo'lsa-da, shaxsiy manfaatga bog'lanishi, modomiki, tabiiy bo'lsa, azal-abaddan fitratimizga solingan va har bir bandasiga xos bo'lsa, nega uni qusur, kamchilik deb baholash kerak? Odamdan shaxsiy manfaatdan butunlay voz kechishni talab qilib bo'lmas ekan, bu inson tuzilmasining ilohiy mantig'iga zid ekan, puch va balandparvoz shiorlarni bir yoqqa yig'ishtirib, jamiyat islohotini insonning shaxsiy manfaatlari bilan bog'liq nuqtadan boshlash lozim emasmi? Me'yor qonunigaamal qilib, umummanfaat va shaxsiy manfaat o'rtasidagi nisbatni buzmasak bo'ldi; o'sha nisbat buzilgandagina shaxsiy manfaat illatga, balogaaylanadi.

Umuman olganda, buyuk Navoiy asarlari o'ta qiziqarli psixoanalitik talqinlarga material bo'la oladi. “Majolis un-nafois”ning ikkinchi majlisida bir bayt keltirilgan:

Be tu chun dar girya xobam mebarad,

Xob mebinam, ki obam mebarad.

YA'ni: sensiz yig'lab-yig'lab uxlab qolsam, tushimda o'zimni suv oqizib ketayotgan holatda ko'raman.

Albatta, she'r Navoiyga tegishli emas, Xoja Mas'ud Qumiy degan shoir qalamiga mansub. Ammo negaaynan shu bayt Navoiy diqqatini tortgan?

Ma'lumki, Freyd tushlarni ham chuqur tadqiq etgan. Unga ko'ra, inson tashqi dunyoni uzluksiz qabul qilolmaydi; tush – tashqi dunyoning uxlashga xalaqit berayotgan ta'sirlariga ruhiyatning javobidir.⁷ Ya'ni tushlar tashqi ta'sirsiz paydo bo'lmaydi. Freyd o'z kuzatuvlarini tush hodisasi bilan qiziqqan Mori va Gil'debrandt, SHerner tajribalari orqali isbotlashga urinadi. Eksperimental psixologiya vakili bo'lgan Mori o'z ustida tajribalar o'tkazadi: uxlab yotganda uning peshonasiga bir tomchi suv tomizishadi. Shunda u o'zini Italiyada, terlab-pishib yurgan, Orvieto oq

⁷ Фрейд З. Введение в психоанализ. Лекции. – Москва, Наука, 1991. – Стр. 54.

vinosidan ichib o'tirgan holatda tush ko'radi. Qiziq! Demak, Navoiy aqlni shoshirib qo'yadigan ruhiy manzara bilan bog'liq baytni tanlagan ekanlar-da!

Ha, Freyd ulug' shoirimiz merosidan xabardor bo'lganda, nafaqat keltirilgan bayt bilan Mori tajribasi o'rtasida hayratlanarli o'xshashlik borligini ko'rib va sharq shoirining buyuk bir ruhshunos bo'lganidan taajjubga tushar, balki boshqa gipotezalari tasdig'iga ham qiynalmasdan yorqin-yorqin misollar topgan bo'lar edi. Ehtimol, o'zining nazari tushmagan yanada qiziqroq ruhiy hodisalarni kashf etarmidi?..

Kim nima desa desin, psixoanalizda allanechuk jozib ohanrabo bor. Bu, avvalo, undagi markaziy masala – inson harakatlarini boshqaruvchi kuch masalasi bilan bog'liq. Freyd asos solgan ilm, binobarin, ratsional tahlilga, biz bilgan mantiqlarga bo'ysunmaydigan tush, ijod, padarkushlik (umuman, qotillik, xudkushlik), o'linga intilish, yanglish harakatlar, yanglishib aytilgan so'zlar, tajovuzkorlik, og'riqdan lazzatlanish, nartsissizm singari g'alati hodisalarni tushuntirishga harakat qiladi; ularni tasodif emas, yagona sababning qonuniy oqibatlari o'laroq baholaydi. Odam bolasi, o'ziniki bo'lsa-da, ong osti olamidan bexabar, deydi. Bilib-bilmay qiladigan, tushunarli-tushunarsiz xatti-harakatlarining hammasi o'sha manbadan oqib chiqadi, deydi. O'sha noma'lum olamni kashf etib, odam bolasining xatti-harakatlarini yaxshilikka yo'naltiraylik, uning ruhiyati sog'lom bo'lsin deydi.

Darvoqe, JSSTning 2022 yil iyunidagi ma'lumotiga ko'ra, 2019 yilda qariyb bir milliard kishida (taxminan 8 odamdan birida) u yoki bu darajadagi ruhiy buzilishlar uchraydi. Bevosita kuzatishda har doim ham ko'zga tashlanavermaydigan buahvol sayyoramizda "ishsizlik, nogironlik va bemahal o'limlar sonining ortishiga olib keladi". Tashkilotning bosh direktori G.Tedrosga ko'ra, shaxsning ruhiy sog'lomligi va jamiyat farovonligi, inson huquqlari, umumjahon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'rtasida mustahkam aloqadorlik bor. Odamlarning ruhiy muvozanatini me'rida saqlash uchun kurash nafaqatalohida odamlar, balki umuman dunyo mamlakatlari va jamoatchiligi manfaatiga xizmat qiladi.⁸ Albatta-da! Psixoanaliz hamaslida XIX asr oxirida mustamlakachilik vasvavasi hamda sinfiy zulmning kuchayishi; keyinroq ikki jahon urushi, ijtimoiy jazava va ommaviy o'limlarningavj olishi; haq-huquq, boyluk va hokimiyat talashuvlarining haddia'losiga ko'tarilishi tufayli maydonga keldi va rivojlandi. U bilan qariyb bir vaqtda shakllangan marksizm ta'limoti bu taxlit g'ayriinsoniy qilmishlarning ildizini iqtisodiy munosabatlardan axtargan bo'lsa, freydizm uni odam bolasi ruhiyatidan izladi. Psixoanaliz xuruj qilayotgan ruhiy buzilishlarni e'tibordan chetda qoldirmaslik, uni davolash lozim, shu orqali sayyoramizdagi hayot oqimini osoyish o'zanga burish kerak, deb hisobladi.

⁸ K.: <https://news.un.org/ru/story/2022/06/14>

Biz ham “inson – ruhiyati tufayli inson, ya’ni yaratilmishlarning eng oliysidir” deb bilamiz. Fikrlaydigan shaxsni uning sirru sinoatlarga to’la ruhiyati qiziqtirmasdan qo’ymasligi tayin. Botin dunyosiga sayr etish, uning nimalarga qodirligidan ogoh bo’lish istagi – bizni freydizm tuynugidan bot-bot mo’ralashga undaydigan narsa mana shu.

Ayni choqda psixoanalizni qabul qilolmay, unga yotsirab qaraydiganlar ham ancha-muncha. Freyd va uning davomchilari “odam bolasini shahvoniy intilishlar, shon-shuhrat, boyluk, hokimiyat va tajovuzkorlikka intilish kabilar boshqaradi, odam – qachonlardir ong tubiga cho’kkan quyqa xohishlar farmonining so’qir ijrochisidir” deydi; mana shu formula ko’pchilikni undan itaradi. Unda odamni erga tiqadigan tahqir bor, deb hisoblaydilar. Afsuski, koinot gultoji bo’lmish insonga oid o’shanday haqiqatlar ham bor: birimiz uni tan olgimiz kelmaydi, birimiz undan qo’rqamiz, birimiz uyalamiz... – xullas, ong ostini savqi tabiiy bilan g’oyat intim maydon o’laroq his etganimiz bois uni rad qilamiz. Lekin odam bolasi nafsoniyatning ayanchli quli ekanini har nuqtada, har zumda ko’rayotganimiz-chi, uni inkor qila olamizmi?

Ulug’ shoirning hayotdan toq o’tgani ko’pchiligimizni uning ijodidan ko’ra ko’proq qiziqtiradi. Turli tadqiqotlarda shoir bir qizni sevgani haqida ko’p marta yozilgan; yozilmaganda ham, shunday bo’lganiani.

Aylamang bekasligimni ta’n bir kun, bor edi

Menda ham bir nozanin chobuksuvor, ey do’stlar, -⁹

degan bayt ham bu taxmini tasdiqlaydi. Ammo qismat bu oshiq-ma’shuqning hayot yo’lini nega tutashtirmaganiga oidaniq tarixiy ma’lumot yo’q. Ayrim tadqiqotchilar “Yoshung’on emish qaro bulutqa mohim” kabi matnlarga tayanib, o’sha sirli mahbuba bevaqt vafot etgan, deydi. Ayrim taxminlarga ko’ra esa, ul sohibjamolga qudratli hukmdorning ham nazari tushgan va, bas, o’sha nigoh bu ishq qissasiga yakun yasagan. Nima bo’lganda ham, qanday iztiroblar chekkani Hazratning o’zigayu Allohga ayon!.. Darvoqe, SHarq shoirining nokom muhabbati va favqulodda muhtashamu mukammal ijodi psixoanalizdagi sublimatsiya to’g’risidagi gaplar rost ekanligini yana bir karra tasdiqlamayaptimi?

Va nihoyat...

Xayolda yana bir g’alati parallel tug’ilgan... Fikru qarashlar, talqinlar har xilligiga dushmanlik tamg’asini bosguvchilarga dastak bermaslik uchun, fursatlarki, uniyatmoqqa jur’at etmaydi.

Xulosa. Karl Yung – psixoanalizning yorqin vakili, o’z vaqtida freydizmning istiqbolli davomchisi o’laroq ko’rilgan olim. U 1907 yilda Freyd bilan uchrashish

⁹ Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 5-том. – Тошкент, Фан, 1990. – 108-б.

uchun Venaga keladi. Xos ustozu shogird o'n soatdan ortiq vaqt mobaynida muloqot qiladilar. "Xos" deyishimizning sababi shuki, Yung doktorlik ishida Freydning "Tushlar sharhi" tadqiqotidan foydalanadi, unga taqriz ham yozadi. Freyd esa Yungga shubhadan xoli bo'lmagan katta umid bilan qaraydi; unga yosh olim psixoanaliz otasi bo'lishga da'vogardek tuyuladi. Ammo tezda shubhalariasossiz ekanini, Yung iste'dodli ruhshunos ekanini tushunib etadi, unga katta ishonch bildiradi. Xullas, ustozu shogird o'rtasidagi munosabat shu taxlit qayrilib-burilishlar bilan davom etadi. Ular 1909 yilda ular birgalikda amerikaga safar qilish oldidan Berlinda uchrashadilar. SHunda qiziq holat sodir bo'ladi: Freyd Yungning oldida hushidan ketib qoladi. Bu Freyd uchun ham, Yung uchun ham nihoyatda kutilmagan hol edi. Freyd bu voqeani o'zicha psixoanalitik tahlil qiladi. Uningcha, Yungning ong ostida ustozning o'rnini egallash, unga o'lim tilash kabi g'ayriixtiyoriy istak mavjud, hushdan ketish shu xohishning reallashuvi bo'lishi mumkin. Yung fanniy sohada Freydning sevikli o'g'li o'laroq "Edip kompleksi"ni namoyon qilar edi go'yo. Keyinchalik bu ikkovning qarashlari ham, yo'llari ham ayro tushadi...

Alisher Navoiyning qanday vaziyatda bu olamni tark etgani kitobxon o'quvchiga ma'lum, albatta. G'iyosiddin Xondamirning yozishicha, 1500 yil 29 dekabrda Navoiy Astroboddan qaytayotgan hukmdorni kutib olish uchunarkoni saltanat bilan birga Ko'saviya qasabasiga yo'l oladi. Hukmdor qo'nganamirshoh rabotiga qarab borar ekan, "hidoyat yor bo'lganamirning yorug' peshonasidan quvonch va shodlik nurlari porlar" edi.¹⁰ Xullas, hammasi joyida bo'lgan. Voqeaning davomini mavlono Xondamirdan eshitaylik: "Bir toshga yaqin masofa bosib o'tilgach, istiqbolli Sohibqironning ulug'lik va hashamat bilan bezangan taxtiravoni ko'zga tashlandi. Ayni shu chog'da olamlar Rabbining qazosiga muvofiqahli yaqinning peshvosi bo'lgan ul zotning muborak boshlariylanib ketdi-da, amirlikning namunasi bo'lgan ul olijanob Xoja Shahobiddin Abdullohni oldilariga chaqirib:

– Menga ko'z-quloq bo'lib turing, holim yomonlashmoqda, – dedilar.

SHundan so'ng a'lo hazratlarining istiqbollariga chiqib, muborak qo'llarini o'pish maqsadida otdan tushdilar. Biroq bu kasallik shiddat bilan zo'rayib, tanadan quvvat ketganligi va yurishga hol qolmaganligidan o'sha amir va Mavlono Jaloliddin Qosim oliy martabali amirning qo'ltiqlaridan tutib oldilar. SHunda (ul hazrat) ilgari yurib, boshlarini yuqori mavqeli podshohning ko'ksiga qo'yidilar".¹¹ SHoirning bolalik do'sti va eng yaqin kishisi bo'lgan Sulton Husayn qattiq qayg'uga tushsa-da, saroy etiketi talabi va vaqti-joyi bo'lmagani uchun "hol-ahvol so'rashish va o'zaro izzat-ikrom ko'rsatishdan so'ng" u yerdan jo'nab ketadi. "SHu chog' (u Hazrat

¹⁰ Гиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. Форс тилидан Комилжон Раҳимов таржимаси. – Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 142-бет.

¹¹ O'sha joyda.

chalingan) o'sha kasallik falajga aylanib, oliy nasabliamir harakatdan va tildan" qoladi. Uni taxtiravonga yotqizib olib ketadilar..

Sulton Boyqaro va Navoiy kabi tarixning bu ikki buyuk shaxsi o'rtasidagi munosabatlar chuqur tadqiq qilingan; bu boradagi qarashlar bir-biriga zid ekani ham ma'lum. Vaholanki, shoh va shoir munosabatlarining o'zi-da ziddiyatlardan xoli emas. Bir tarafda bolalikdan boshlangan do'stlik, bosh vazirlikkacha bo'lgan martaba, "sultonning muqarrabi (yaqin kishisi)" unvoni, bir masalada to'qqiz martagacha murojaat qilish ixtiyori... Bir tarafda esa shoirning g'animi bo'lgan Majdiddinga imtiyozlar berish, shoirni markazdan uzoqastrobodga chetlashtirish, turli vajlar bilan haj safaridan qoldirish, zaharlashga maxfiy tadorik, isyon bahonasida ukasi Darveshalining qatl qilinishi...¹² Har qalay, har bir nuqtai nazar sohibining tarixiy manbalarga asoslangan dalillari yetarlidir. Bizda na unisi, na bunisini qat'iy tasdiqlash darajasidagi ilmiy salohiyat ham, manbalar ham mavjud emas. Maqola oxiridagi kuzatuvlardan muddao shuki, tarix va ilmdagiayrim bahsli masalalar borasida psixoanaliz ham o'z talqinlarini o'rta tashlashga haqlidir. Yuqoridagi parallel borasida esa qat'iy xulosadan saqlanamiz:axir, bu sirlar dunyosida bir-biriga tashqi jihatdangina o'xshaydigan voqealar sodir bo'lgani kabi, ong osti olami bizning ixtiyorimiz va boshqaruvimizdan tashqari ekanligi ham haqiqatdir.

Adabiyotlar

1. <https://news.un.org/ru/story/2022/06/14>
2. Лапланш Ж., Понталис Ж. Словарь по психоанализу. – Москва, Высшая школа, 1996. – 623 с.
3. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 9-жилд: Хамса: Лайли ва Мажнун. – Тошкент. Фан, 1992. – 356 б.
4. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 5-том. – Тошкент, Фан, 1990. – 530 б.
5. Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. 19-томлик. 13-том. – Тошкент, Фан, 1979. – 512 б.
6. Фрейд З. Введение в психоанализ. Лекции. – Москва, Наука, 1991. – 456 с.
7. Фрейд З. По ту сторону принципа удовольствия. Перевод со 2-го немецкого издания. – Москва, Современные проблемы Н.А.Столляр, 1925. – 110 стр.
8. Фрейд З. Поэт и фантазия // <https://cyberleninka.ru/article/n/poet-i-fantaziya>.

¹² Misol uchun bu haqda q.: Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. 19-томлик. 13-том. – Тошкент, Фан, 1979. – 7-158-б.

9. Фрейд З. Санъаткор ва тахайюл. Фонийлик. Рус тилидан Н.Офоқ таржимаси // “Тафаккур”, 2023 йил, 4-сон. – 56-66-б.
10. Гиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. Форс тилидан Комилжон Раҳимов таржимаси. – Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 208 б.

ADABIY AN'ANA VA NOVATORLIK MAHORATI

Xalilova Dilbar Jalilovna

Turon universiteti v.b. professori

filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Maqolada adabiy tajribadagi ma'lum haqiqatlardan biri – mashhur yozuvchilarning ijodiy yo'li, badiiy metodi, mahorati, ijod olami sirlari haqida bahs olib boriladi. Adabiy an'analar – yovuzlik va ezgulik o'rtasidagi kurash, kambag'allar azobi, psixologik qiyofa, jinoyat va jazo, inson shaxsining shakllanishi yoki parchalanishi, rahm-shafqat, adolat va huquq kabi jihatlarida kuzatish va o'rganish masalalari muhokama qilinadi. Shu kabi masalalar, ta'sir va mushtaraklik hodisalari ayni vaqtda jahon adabiyotining muhim va salmoqli tarkibiy qismi o'zbek adabiyoti, jumladan, o'zbek realistik nasri uchun ham xos bo'lgan ilmiy haqiqat ekanligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: adabiy an'ana, dolzarblik va yangilik, muallif nutqi, novatorlik, portret, tabiiy landshaft tasviri, detektiv va kriminal, adabiy parallellik, psixologik mahorat.

Annotation. The article is about one of the well-known facts of literary experience - the creative way, artistic method, skills, and secrets of the world of famous writers. Literary traditions - as, the struggle between evil and good, the suffering of the poor life, the psychological image, crime and punishment, the developing or disintegration of the human personality, compassion, justice and law; in addition, the article is discussed about observation and study of the traditions. At the same time, it is said that such issues, influence to the world literature and common phenomena is an important and weighty component of it, as a scientific fact of the specific Uzbek literature, including Uzbek realistic prose.

Key words: literary tradition, relevance and innovation, author's speech, innovation, portrait, natural image, detective and criminal, literary parallelism, psychological skill.

Kirish (Introduction). O'zaro aloqadorlik jamiyat rivojining muhim o'zagi, harakatlantiruvchi mehvari ekanligi insoniyat tarixining qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Bu qonuniyat adabiyot-san'at asarlari, jumladan, badiiy adabiyot namunalari uchun ham tegishli xususiyat sifatida muhimdir. XX asrda dunyo adabiyotiga xos nasr namunalari paydo bo'lgan o'zbek adabiyotida yuzaga kelgan ijobiy natijalar tizimida ham adabiy an'ana va novatorlik hodisasining ahamiyati, harakatlantiruvchi kuchi o'ziga xos qonuniyat tusini oldi.

XIX-XXI asrlarda munosib taraqqiyot darajasiga ko‘tarilgan jahon detektiv adabiyoti an‘analari va tajribasi o‘zbek adabiyoti, xususan, nasri uchun ham foydali natijalar bera boshladi. Detektivizm voqeligi ayni vaqtda asosan o‘z bag‘rida qotillik hodisalarini o‘rganadigan, tekshiradigan va jazoga tortadigan kriminal tizim bilan o‘zaro uyg‘un xarakterga ega. Odatda, detektiv va kriminal xarakterdagi asarlar negizida, asosan, jinoyat va jazo mavzusi talqin qilinadi. Shuning uchun detektiv, kriminal usul har doim jinoyat va jazo voqeligi bilan birga tasavvur qilinadi. Artur Konan Doylning “Sherlok Xolms” turkumidagi qissalari va hikoyalari, Agata Kristining deyarli barcha romanlari, ayniqsa, o‘zbekchaga ham tarjima qilingan “O‘nta negr bolasi” romani, Jorj Simenonning “Mojatik mehmonxonasi”dagi qotillik” romani shunday mukammal kriminal syujetli asarlar sanaladi. Dostoyevskiy, Tolstoy, T.Drayzer, M.Tven, E.Po, J.London, J.Steynbek, G.Markes, A.Qodiriy, A.Cho‘lpon, A.Fitrat, S.Ahmad, O.Yoqubov, O‘.Umarbekov, T.Malik, X.Do‘stmuhammad, N.Eshonqul asarlarida detektiv-kriminal syujetlar ijtimoiy, tarixiy, oilaviy-maishiy, siyosiy mavzular bilan bog‘liq ko‘lamda talqin etiladi. Dostoyevskiy va Tolstoy kabi san‘atkorlar insoniy xarakterlar talqinida ularni ijtimoiy muammolar to‘lqinida, kuchli psixologik tahlillar ko‘lamida tasvirlaganlar. Bunday uslubiy shaklning ahamiyati hayotiylik va ta’sirchanlikni yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar tahlili (Literature review). Detektivizm xususiyati ayrim asarlarda bevosita to‘liq (A.Kristi “O‘nta negr bolasi” romani kabi) holda amal qilsa, ko‘plab asarlarda esa bilvosita shaklda namoyon bo‘ladi. Masalan, Teodor Drayzerning “Amerika fojiasi”, Jek Londonning “Uch qalb” romani, ayrim hikoyalari, Oskar Uayldning “Dorion Greyning portreti”, Lev Tolstoyning “Tirilish”, Mixail Bulgakovning “Usta va Margarita”, Gabriel Markesning “Yuz yil tanholikda”, “Oshkora qotillik qissasi” asarlarida shu xususiyat yetakchilik qiladi.

O‘z navbatida, akademik A.Bushmin Krilov, Pushkin, Dostoyevskiy, Tolstoy kabi XVIII-XIX asr rus adiblarining adabiy an‘analari, poetik tajribalari, falsafiy yoki psixologik tizimdagi kashfiyotlari o‘zining milliy adabiyoti uchungina emas, balki jahon adabiyotining taraqqiyoti uchun ham adabiy-badiiy kuchga aylanganligini uqtiradi.¹³

“Tolstoy va Dostoyevskiy kabi ikki ulug‘vor adabiy daho o‘zlarining benazir iste’dodlari bilan Yevropaning diqqat-e’tiborini Rossiyaga qaratdilar va ular shu tariqa Shekspir, Dante, Servantes, Russo, Gyote kabi nomdor ijodkorlar safidan

¹³. Каранг: Бушмин А. Преемственность в развитии литературы. -Ленинград, «Художественная литература», 1978.-стр.67-68.

munosib o‘rin egalladilar”¹⁴, – deya yuksak ehtirom va samimiy faxr bilan yozgan edi M.Gorkiy.

“F.M.Dostoyevskiyning o‘zbek adabiyoti va adiblariga ham ta’siri kattadir, – deb yozadi akademik Akmal Saidov. – Xususan, yozuvchi Tohir Malik hayotligida: “Dostoyevskiy, Tolstoy kabi buyuklarning maktabida umrimning oxiriga qadar tahsil ko‘rishim tayin”, – deya e’tirof etgan.¹⁵

Bu teran talqin o‘z bag‘rida adabiy aloqadorlik kabi murakkab, an‘ana va novatorlik singari keng miqyosli masalaning ko‘p qirralarini mujassamlashtirgani bilan xarakterlidir. Masalan, rus ijodkorlari Shekspir, Bayron, Volter Skott, Dikkens kabi Angliyaning ulkan so‘z san‘atkorlaridan shu darajada ijodiy ilhombaxshlik bilan ta’sirlanganlarki, bu allaqanday begona, nomilliy ta’sir bo‘lmay, balki, xuddi rus milliy mentaliteti, rus adabiy-ma’naviy manbalaridan bahramandlik kabi tabiiy va, albatta, ijodiy ta’sir samarasini berganki, bu adabiy ijodkorlikning g‘oyat o‘ziga xos ijobiy jihati taniqli yozuvchi merosidan ijodiy ta’sirlanish va o‘rganish, betakrorlikka erishishga oid natijadorlik bilan o‘lchanadi.

Jahon yozma adabiyotida ezgulik-yovuzlik, jinoyat-jazo motivlari, bu tushunchalararo kurash masalalari talqiniga xos sarchashmalar o‘sha olis tarix bag‘rida yaratilgan Gomerning “Iliada”, “Odisseya”, Esxilning “Zanjirband Prometey”, Firdavsiyning “Shohnoma” asarlari bo‘lganligi bilan e’tiborlidir. V.M.Jirmunskiy “Odissey” eposining jahon adabiyotida, epik dostonlarda keng ravishdagi ta’siri va adabiy parallelliklarni vujudga keltirgan hodisalarni atroflicha tadqiq etgan olim sanaladi. M.M.Baxtin va V.Y.Kirpotinning monografik ishlarida bu adibning jinoyat-jazo tasvirida psixologik mahorat qirralarining yangidan yangi jihatlarini aniqlab berganligi bilan ham ajralib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Adabiy aloqadorlik tizimida Yevropa adabiyotshunosligida tajribadan o‘tib sinalgan ilg‘or metod – komporatavistika usulining o‘zbek adabiyotshunosligida ham dadil qo‘llanishi adabiy asarlar mohiyatini aniqlashda qo‘l kela boshladi. Komporativistika usulidagi adabiy mushtaraklik hodisalari erkin, betaraf va o‘zaro tenglik asosida tahlil va tadqiq etiladi. Bu boradagi qiyosiy ishlar Izzat Sulton, Matyoqub Qo‘shjonov, Umarali Normatov, Erik Karimov, Ozod Sharofiddinov, Salohiddin Mamajonov, Ibrohim G‘afurov, Mahmudali Yunusov, G‘affor Mo‘minov singari yetuk adabiyotshunoslarning izlanishlari, amalga oshirgan tadqiqotlari e’tiborni tortdi. Masalan, taniqli adabiyotshunos olim Matyoqub Qo‘shjonov o‘zining “San‘atkor va

¹⁴. Қаранг: Мигунов А.А. Традиции и новаторство в русской советской литературе.- Москва, “Просвещение”, 1982.- стр.170.

¹⁵. Саидов А. Фёдор Достоевский ва Иброхим Фафуров. – Достоевский Ф. Ака-ука Карамазовлар. 1 жилд. – Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2021.-47-бет.

hayot” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida ulkan so‘z san’atkori Abdulla Qahhor romanlari, qissalari va hikoyalarini qiyosiy o‘rganishni maqsad qilgan. Bunda olim A.Qahhorning o‘ziga xos betakror ijodini jahon adabiyotining ayrim yirik yozuvchilari qalamiga mansub asarlari bilan qiyosan tadqiq etgan.

“Qiyosiy tahlil usulidan foydalanar ekanmiz, bu yozuvchilarni bir-biridan ustun qo‘yish niyatini anglatmaydi, – deb yozadi M.Qo‘shjonov. – Bu usul faqat bir maqsad bilan – tahlil qilinayotgan asarlarning g‘oyaviy-estetik qimmatini yorqinroq ko‘rsatish, har bir yozuvchining o‘ziga xos san’atkorlik iqtidorini aniqlab berish uchungina amalga oshiriladi.”¹⁶

Atoqli olimning fikrlari, maqsad-muddaosi adabiy asarlarning o‘ziga xosligini xolis aniqlash tadqiqot usuli sifatida asli komparativistika kabi dunyo adabiyotshunosligida adolatli usul sifatida namoyon bo‘lgan adabiy tekshirish hodisasining o‘zbek adabiyotshunosligida ham dastlabki namunalaridan biri sifatida e‘tiborni tortdi. M.Qo‘shjonov o‘z tadqiqotida A.Qahhor ijodini Gogol, Chexov, Gorkiy, Genri, Mopassan, Fitrat, G‘.G‘ulom kabi rus, Amerika, fransuz, o‘zbek adiblarining asarlari bilan erkin usulda qiyosan tahlil qilib, bu asarlarga xos betakror g‘oyaviy-badiiy fazilatlarini umumlashtirishga muvaffaq bo‘lgan.

Natijalar va muhokama (Result and Discussions). Adabiy tajribadagi muayyan halqalardan biri – ma‘lum va mashhur yozuvchilarning ijodiy yo‘lini, uning badiiy metodini, mahoratini tashviqot qilish, tushuntirish, ijod olami sirlari bilan tanishtirish usuli va harakatlari bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Masalan, Dostoyevskiy asarlarining mohir tarjimoni Ibrohim G‘ofurovning bu adib ijodi masalalari, uning yirik shaxsiyati bilan bog‘liq fikrlari e‘tiborni tortadi.

“Dostoyevskiy behad ayovli inson edi, – deya qayd qiladi I.G‘afurov. – U tom ma‘noda ezilganlar, xo‘rlanganlar va huquqsiz bo‘lganlar, ojizlar va o‘rtanchalarning yozuvchisi edi. Lekin shunday bo‘la turib nahot bu daho inson boshqa xalqlarni ezishga, ularning yerlarini tortib olishga chaqiradi? – deb o‘zingizga o‘zingiz savol berasiz va bu gaplarni Dostoyevskiy yozganligiga ishingingiz kelmaydi. Aqlingiz bovar qilmaydi.”¹⁷

Ko‘plab olimlarning maqolalarida, kitoblarida Dostoyevskiy ijodi chuqur tahlil qilinar ekan, qalban-ruhan iztirobli tuyg‘ular egasi bo‘lib yashagan ijodkorning ruhiy olami bilan asarlari, katta-kichik obrazlari shu zaylda yaratilganligi ta‘kidlanadi. M.B.Baxtin, V.Y.Kirpotin kabi yirik dostoyevskiyshunos olimlarning tadqiqotlarida ulkan adibning o‘z obrazlari chekkan iztiroblarda uning

¹⁶. Қўшжонов Матёқуб. Художник и жизнь. (Творчество Абдуллы Каххара в аспекте сравнительного изучения). Автореферат на соискание ученой степени доктора филологических наук. Ташкент-1971.-стр.6.

¹⁷. Гафуров И. Достоевский билан тунги суҳбат. //“Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1992 йил, 3 январь, №1..

o‘zi o‘n barobar ko‘p chekkanligi uqtiriladi. Kirpotinning qayd qilishicha, Dostoyevskiyning ulkan san’atkorligi shunday jinoyatlar ko‘lamini, jabrdiydalar, bag‘ri xun bo‘lgan bechoralar qismatini badiiy san’atkorlik bilan sintezlashtira olganligida namoyon bo‘ladi.¹⁸

F.M.Dostoyevskiy jahon adabiyotini ancha mukammal bilgan, badiiy adabiyot rivojida o‘zaro o‘rganish, ta’sirlanish, mushtaraklik hodisalarini teran anglagan san’atkor sifatida rus madaniyati, adabiyoti, hatto, ma’naviyati Yevropaning shu boradagi ilg‘or yutuqlari va an‘analaridan o‘rganib, ta’sirlanib oyoqqa turganligini bir necha maqolalarida, maktublarida, suhbatlarida bayon qilgan edi.

“Biz Yevropadan ko‘p narsa, hatto, juda ko‘p narsa oldik, – deya ta’kidlaydi yozuvchi. – Va biz faqat olish, o‘zlashtirish bilangina cheklanganimiz yo‘q. Chunonchi, Yevropa shoirlari va yozuvchilaridan, faylasuflari va mutafakkirlaridan biz shunchaki olmadik, balki bu o‘rganishlar, g‘oyalar qon-qonimizga singib, o‘zlashib ketganidan bular o‘z yutug‘imiz, o‘z shevalarimiz maqomiga ega bo‘ldi”.¹⁹

Dostoyevskiyning bu kabi fikrlari ko‘lamidan adabiy aloqadorlik masalasining nazariy va amaliy jihatdan muhim mazmun hamda xulosalar kelib chiqadi.

XIX asr rus adabiyoti namoyandalari qatorida F.M.Dostoyevskiyning nomi va ijodi, asralari ham o‘zbek xalqi uchun, umuman, o‘zbekistonlik kitobxonlar uchun yaqindan tanishligini ta’kidlamoq kerak. Bu yozuvchining ijod olami o‘zbek so‘z san’atkorlari uchun o‘ziga xos ijod maktabi bo‘lib kelayotganligi ham ilmiy-ijtimoiy haqiqat sanaladi. Dostoyevskiy adabiy an‘analarini yovuzlik va ezgulik kurashi, bechora odamlar g‘amini chekish, psixologik tasvir, jinoyat va jazo, insoniy shaxsiyatning shakllanishi yoki yemirilishi, rahm-shafqat, sud-huquq kabi mavzular, g‘oyaviy-falsafiy pafos, badiiy san’atkorlik singari jihatlarda kuzatish va o‘rganish mumkin. Biz bu masalaga komporativistik tekshirish metodi nuqtai nazaridan qarab, ish tutishimiz va shu tariqa adabiy mushtaraklik jihatdan o‘rganishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Dostoyevskiyshunos G.N.Pospelovning yozishicha, “Dostoyevskiy – insoniyat ma’naviy olamida ulkan va notakror hodisa. Dunyo adabiyotida ko‘plab yozuvchilar Dostoyevskiy adabiy maktabidan unumli foydalanganlar: L.Andreyev, A.Beliy, L.Leopov, M.Gorkiy kabi rus yozuvchilari, shuningdek, R.Marten dyu Gar va A.Jid, G.va T.Mannlar, U.Folkner va J.Andersen, G.Fallada va G.Byoll singari xorijiy ijodkorlar. Bu yo‘nalishda xususan Dostoyevskiy

¹⁸. Кирпотин В.Я. Избранные работы в трёх томах. Том 2.- Достоевский.- М., «Художественная литература», 1978, стр.7.

¹⁹ Қаранг: Бушмин А. Преемственность в развитии литературы. -Ленинград, «Художественная литература», 1978.- стр.48.

g‘oyaviy dahosiga xos falsafiy-axloqiy masalalar bo‘yicha ta‘sir ko‘lami ancha salmoqlidir...”²⁰

Shu kabi masalalar, ta‘sir va mushtaraklik hodisalari ayni vaqtda jahon adabiyotining muhim va salmoqli tarkibiy qismi o‘zbek adabiyoti, jumladan, o‘zbek realistik nasri uchun ham xos bo‘lgan ilmiy haqiqat sanaladi.

Masalan, adabiyotshunoslikda jinoyat-jazo motivi ko‘pincha detektiv-kriminal asarlardan qidiriladi va shu uslubdagi yaratmalarga tayaniladi; aslida esa, jinoyat-jazo motivining hayotiyligini F.Dostoyevskiy an‘analarini davom ettirgan O‘lmas Umarbekov, Omon Muxtor, To‘hir Malik, Abduqayum Yo‘ldoshev, Nazar Eshonqul kabi yozuvchilarning qalamiga mansub asarlarda ko‘rish mumkin.

“Chinakam adabiyot faqat bugun uchun xizmat qilmaydi, u kelajakka va yangi-yangi avlodlarga xizmat qiladi, yangi avlodlar undan o‘zlari uchun yangi ijodiy kuch va ilhom topadilar, bugungi adabiyotning haqiqiylikiga ham kelajakdagi avlodlar baho bera oladi”²¹.

Darhaqiqat, Dostoyevskiy jahon adabiyotida psixologik tasvir mahoratining ustasi sifatida tanilgan adib. Bechora, ezilgan bandalar ruhiy olami, jinoyatkorlar psixologiyasi, psixologik tasvirning muallif nutqi, tush, portret, tabiat konsepsiyasi – peyzaj tasviri, gallyutsinatsiya, ichki ruhiy iztirobli holatlar kabi turlarini qo‘llashdagi dostoyevskiyona mahorat jahon adabiyoti nasrida o‘ziga xos nufuzli o‘ringa va salmoqli an‘analariga ega.

Adabiy tajribadagi ma‘lum haqiqatlardan biri – mashhur yozuvchilarning ijodiy yo‘lini, uning badiiy metodini, mahoratini tashviqot qilish, tushuntirish, ijod olami sirlari bilan tanishtirish usuli va harakatlari bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Masalan, bu jihatdan Dostoyevskiy asarlarining mohir tarjimoni Ibrohim G‘ofurovning bu adib ijodi masalalari, uning yirik shaxsiyati bilan bog‘liq fikrlari e‘tiborni tortadi. Original yaratmalarni qadrlay oladigan I.G‘afurov eng mashhur yozuvchilarga ham hayot va inson, iymon va vijdon haqiqati nuqtai nazaridan munosabatda bo‘ladi.

Xulosa. Adabiy aloqadorlik, adabiy mushtaraklik, adabiy o‘xshashlik yoki adabiy hamohanglik masalasi, qachonki quruq taqliddan, ongsiz ravishdagi g‘oya yoki obraz ko‘chirishdan iborat bo‘lsa, bu kutilgan adabiy yutuq imkonini bermaydi; mashhur yozuvchidan o‘rganish tamoman erkin, ijodiy, novatorona xarakterda bo‘lsagina, notakror asarlar yuzaga kelishining o‘zagi sanaladi...”²²

²⁰ Поспелов Г.Н. Творчество Ф.М.Достоевского. Издательство. -Москва, “Знание”, 1971, стр.63.

²¹ .D.Xalilova. Badiiy tafakkur va psixologik tasvir. Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi. –6/3-2022. 183-bet.

²² Каранг: Бушмин А. Преемственность в развитии литературы.- Ленинград, «Художественная литература», 1978.-стр.48-49.

Demak, adabiy aloqadorlik tizimida ulug‘ san’atkorlar ibratini, ularga ijodiy munosabat, novatorlikka erishish badiiy adabiyotga oid eng muhim vositalardan va tayanchlardan hisoblanadi. F.Dostoyevskiy ijodiy tajribalari, mahorat maktabi dunyoning ko‘plab yozuvchilari kabi o‘zbek ijodkorlari uchun ham ilhom manbai bo‘lib kelayotganligi ma’lum adabiy-ma’rifiy haqiqat sanaladi. Yanada muhimi esa komparativistik tadqiqot metodi, erkin adabiy-ilmiy munosabat nuqtai nazaridan jahon adiblari va o‘zbek yozuvchilari asarlarini adabiy paralellik, o‘zaro g‘oyaviy, badiiy, shakliy jihatlardan o‘xshashlik, ma’naviy-ruhiy hamnafaslik asnosida o‘rganish mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Бушмин А. Преемственность в развитии литературы. -Ленинград, «Художественная литература», 1978.
2. Кушжанов М. Художник и жизнь. (Творчество Абдуллы Каххара в аспекте сравнительного изучения). Автореферат на соискание ученой степени доктора филологических наук. Ташкент-1971.
3. Пospelов Г.Н. Творчество Ф.М.Достоевского. Издательство.-Москва, “Знание”, 1971.
4. Пустовой Т. П.Г. О романе Ф.М.Достоевского «Униженные и оскорбленные» - Достоевский. Униженные и оскорбленные. Роман в четырех частях с эпилогом Издательство «ИР», Ордоникедзе-1977.
5. Saidov A. Fyodor Dostoyevskiy va Ibrohim G‘afurov. – Dostoyevskiy F. Aka-uka Karamazovlar. 1-jild. –Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2021.
6. Malik T. So‘ngso‘z o‘rnida. – Malik T. Tanlangan asarlar, 22-jild. Shaytanat. Beshinchi kitob. Toshkent, “Sharq”, 2019.
7. G‘afurov I. Dostoyevskiy bilan tungi suhbat. //“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, 1992 yil, 3 yanvar, №1.
8. D.Xalilova. Badiiy tafakkur va psixologik tasvir. Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. –6/3-2022. 183-bet.

BADIIY TAFAKKURNING YANGILANISH TAMOYILLARI

Karamova Shohida Luftillayevna

*QarDU dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi
sh.karamova72@mail.ru*

Annotatsiya: *XX asrning oxirgi choragidan badiiy tafakkur yangilana boshladi. Milliy adabiyotimizda badiiy tafakkurning yangilanishi dastlab – mustaqillik arafasida ijtimoiy voqelikni tanqidiy idrok qilish shaklida namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, XX asr oxiridan yangilangan badiiy tafakkurda tanqid ruhining kuchayishi undagi boshqa bir tamoyil bilan bog‘liq edi. Bu – badiiy tafakkurning erkinligi tamoyili edi. Badiiy, ya‘ni yaratuvchi tafakkurning erkinlashuvi, san‘at va adabiyotda bo‘lgani singari, she‘riyatda ham hamma sathlardagi o‘zgarishlarga olib keldi. Milliy badiiy tafakkurda dunyo bilan uyg‘unlashuv ruhi tug‘ilib keldi. Bu tamoyil turli shakllarda voqelandi. San‘at va adabiyotda eski usul va qoidalardan kechish, butunlay yangilanish da‘vosi bilan maydonga chiqdilar. Maqolada shu masalalar xususida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Badiiy tafakkur, milliy adabiyot, ijtimoiy voqelik, ijodkor shaxsi, olamni idrok etish, tanqidiy ruh.*

Abstract. *From the last quarter of the 20th century, artistic thinking began to be renewed. The renewal of artistic thinking in our national literature was initially manifested in the form of a critical perception of social reality on the eve of independence. Especially in the renewed artistic thinking from the end of the 20th century, the strengthening of the spirit of criticism was connected with another principle in it. This was the principle of freedom of artistic thinking. The liberation of artistic, i.e., creative thinking led to changes at all levels in poetry, as in art and literature. The spirit of harmony with the world was born in the national artistic thinking. This principle was manifested in various forms. In art and literature, they came out with the claim of breaking away from the old methods and rules and completely renewing them. The article talks about these issues.*

Key words: *Artistic thinking, national literature, social reality, creative personality, perception of the world, critical spirit.*

Kirish. *Badiiy tafakkur milliy adabiyotshunosligimizda asosan ijodkor shaxsining olamni idrok etish mexanizmi, ijodkorning shaxsni yaratuvchi tafakkuri tushuniladi.*

XX asrning oxirgi choragidan bizda shu ma‘nodagi badiiy tafakkur yangilana

boshladi. Milliy adabiyotimizda badiiy tafakkurning yangilanishi dastlab – mustaqillik arafasida ijtimoiy voqelikni tanqidiy idrok qilish shaklida namoyon bo'ldi. Qayta qurish, oshkoralik deb nom olgan yillarda sobiq ittifoq tarkibidagi boshqa respublikalarda bo'lgani singari o'zbek shoir-yozuvchilari ham davrning mohiyatini anglab yetdilar. Katta o'zgarishlar zamoni boshlanayotgani, o'tmish butun dahshatlari bilan orqada qolgani va boshqa tarafdin davr bergan imkon tufayli ayrim ijtimoiy haqiqatlar baralla aytila boshladiki, bu borada she'riyat peshqadamlikni qo'lga oldi desak yanglishmaymiz. Erkin Vohidov, Omon Matjon, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron kabi shoirlar ijodida ayniqsa, bu hol jarayon tusini oldi.

To'g'ri, XX asrning 60-70-yillarida ham tanqidiy ruhdagi misralar, she'rlar bor edi. Masalan, Abdulla Oripovning qator she'rlarida o'zi va xalqi yashayotgan ijtimoiy muhitning salbiy tomonlari ham qalamga olinadi. "Tilla baliqcha", "Ona tilim", "Yuzma-yuz", "Avlodlarga maktub", "O'ylarim", "Nekrasov hasrati" kabi o'nlab she'rlarda hayotning mutafakkir ijodkorning o'tkir ko'zlari bilan ko'rilgan fojialari ifoda etilgan. Masalan, shoir "Yuzma-yuz" she'ridagi "Rangpar singilginam, seni o'ylayman, kuzgi rayhondayin so'lg'in o'sding sen" degan ikki misradayoq ayolning qismati, jamiyatdagi holu ahvoli voqelangan. Kuzgi rayhon – yoshligi barbod bo'lgan inson fojiasini yorqin ifoda etyapti. Yoki "Avlodlarga maktub"dagi "Yer osti tinch tursin desangiz agar, Sizlar yer ustida so'ylamang yolg'on", - deganda shoir balki o'sha tarixiy voqelikda hayotning hamma jabhasini qamrab olgan ijtimoiy hamda shaxsiy yolg'onlarni nazarda tutgandir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Bunday mazmundagi misralar, she'rlar yoki boshqa janrdagi asarlarni yana ko'plab shoir-yozuvchilar ijodidan ham topa olamiz. Adabiyotimizning bu davri yetarli darajada tadqiq ham etilgan. Ammo bizning ta'kidlamochi bo'lganimiz shuki, o'tgan asrning 60-70-yillari adabiyotidagi tanqidiy ruh hali ijtimoiy-siyosiy tuzumning mohiyatini aniq, to'la anglab yetishning natijasi emas edi. Millatning ilg'or ziyolilari, jumladan, shoir-yozuvchilar hayotda illatu fojialar borligini ko'rdilar-angladilaru, ammo uning tub sababini to'liq idrok etolmadilar. Turmushning nochorligi, insonning haqsizligi tizimning noboplighi tufayli ekanligini anglashga hali ancha bor edi. Ayni vaqtda bu davr ijodkorlarining hayot fojialariga diqqat qaratganining o'zi katta jasorat bo'ldi. Sotsialistik realizm hayotni dinamik o'sishda, jiddiy konfliktlarsiz tasvirlashni, faqat g'alabalarni kuylashni, kommunistik partiya va uning daholarini madh etishni talab qilib turgan bir vaziyatda tevarak-atrofdagi g'ayriinsoniy hodisalar kechayotganini anglash va uni aytish, o'quvchiga ko'rsatish ham katta gap edi.

Biz badiiy tafakkurning yangilanishi deganda eng avvalo mana shuni – ijodkorlar tomonidan ijtimoiy borliqning tanqidiy idrok etilishini nazarda tutamiz.

Chunki aynan mana shu tanqidiy munosabat adabiyot va she'riyatda birmuncha o'zgarishlarga debocha bo'ldi.

Abdulla Oripovning "Sovg'a" she'ri 1967 yilda "Buxoro gazining Moskvaga yetib borishi munosabati bilan" yozilgan. A. Oripov o'zbek gazining rus poytaxtiga yetib borishini buyuk qardoshlikning timsoli, xalqlar tarixidagi quvonchli voqea kabi talqin qiladi. Ammo shoirning hayotni nihoyatda realistik tasvirlash bilan xarakterlanadigan uslubi yozilgan she'rning ichki qatlamlarida qayg'uli haqiqatlarni ham muhrlagan.

Baxtini bus-butun topgunicha to
Ne-ne balolarni ko'rgan o'zbekman.
Mehmon joy so'rasa, ayamay hatto
Unga jonini ham bergan o'zbekman.
Dilbar Farg'onadan sohibkor xalqim
Har yili uzatar tonnalab meva.
Bundayin bisotni ko'rmagan balkim
Makkaga qatnagan millionlab teva.
"Tomdi" yaylovida ma'sum qo'zichoq
Do'stlar deb ko'z ochmay berar jonini.
Hisoblab chiqishga son yetmas bu choq
Muruntovdan ketgan oltin konini...
Gaz degan, do'stlarim, nima bo'libdi,
Azaldan jonimiz sizga sadaqa.
Jahon-ku rost gapni ko'rib turibdi,
Bizlar shundoq edik, bizlar shunaqa.²³

26 yoshli Abdulla Oripov o'z davrining farzandi, tarixni sovetcha mafkura talqinlarida o'qigan shoir o'laroq, asrlar bo'yi yurtimiz musulmonlari tomonidan muqaddas Makkaga jo'natilgan hadyalarni "Makkaga qatnagan millionlab teva" degan istiora orqali ifodalaydi. Qarangki, sho'roning qisqa muddatlik tarixida dilbar Farg'onadan katta og'aga jo'natilgan sovg'alar oldida asrlik tuya karvonlari hech nima ekan. Endigina dunyoga kelgan qo'zichoqning hali ko'zini ochmay turib "do'st"lar uchun jon berishi shoir tomonidan faxriya ohangida yozilgan bo'lsa-da, fojining o'zginasi! "Ma'sum" degan sifatlash bu fojiani yanada bo'rttiradi... Shu o'rinda bir mulohaza. Bu she'r hozirgi tarixiy kontekstda o'qilganda shunday fojiviyy idrok etilyapti. O'sha, olis 1967 yilda esa o'quvchida faxriya ruhi ustuvor bo'lgan. Sho'ro hamda mustaqillik faktori olib tashlansa va bu she'rni biz bilgan mash'um tarixdan butkul bexabar bir o'quvchi o'qisa, ehtimol, unda shunday savollar tug'iladi:

²³ Oripov A. Tanlangan asarlar. T.: "Sharq" nashriyoti", 2019. 410 bet

nega tonnalab mevalar boshqalarga jo'natiladi? Nega qo'zichoqlar boshqalar uchun ko'z ochmay jon beradi? Nega bir xalq o'z konlaridagi oltinlarni boshqa bir xalqqa yuboradi?..

Oradan 46 yil o'tib, 2013 yilda shoir o'sha yozganlarini afsus va pushaymon bilan shunday "tahrir" qiladi:

Paxtayu gazni-ku qaroqchi har kas
O'marib ketganda to'ylar qilganmiz.
O'lsak, xokimizga Makkani emas,
Kreml devorin shon deb bilganmiz.²⁴

Gaz, to'y qilish, Makka tafsillari o'sha 1967 yilda faxriya tarzida bitilgan "Sovg'a" she'riga ishora qiladi, bu tasodif emas. Bu satrlar ongli ravishda yoshlikda yozilgan o'sha misralarga oppozitsion tarzda tug'ilgani aniq.

Sho'ro davrida yashagan yoki o'sha davr tarixini yaxshi bilgan o'quvchiga Abdulla Oripov ishlatgan istiora, ko'chimlar, ramzlarning ma'nosi ikki karra ikki kabi tushunarli. Ha, mazkur she'r faqat tarixiy voqealar kontekstidagina tushunarli. She'rni bu tarixlardan umuman xabarsiz bo'lgan yaponiyalik yoki taylandlik biror odam o'qisa, anchagina mavhum tasavvur ichida qoladi yoki ta'sir zarbi u qadar kuchli bo'lmaydi. Masalan, yapon xokkularidagi har bir obraz, tafsil ham o'z "tarix"iga, chuqur-chuqur ramziy ma'nolarga ega. O'quvchi – yapon madaniyati, san'ati bo'yicha mutaxassis bo'lmasa, u xokkularni o'qiganda, umuman estetik zavq olishi mumkin, ammo matnning ichki qavatlariga kira olmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Bu mulohazalar muayyan badiiy asarning idrok etilishi zamon va makon yoki o'quvchi shaxsga bog'liq holda turlicha bo'lishi, nisbiy xarakterda ekanligiga oid ikkinchi mulohazani ham tug'diradi. Masalan, Dante Aligyerining "Ilohiy komediya"si yoki Salmon Rushdining "Iblis qo'shiqlari" asarlari borasida tug'ilgan munozaralar, iqror va e'tiroflar ham qisman shu xil nisbiylikdan kelib chiqadi.

XX asr oxirlarida yangilangan milliy tafakkurda voqelangan tanqid ruhi to hozirga qadar ham o'z darajasida turibdi. Ayniqsa, yoshlar she'riyatida muhitdan, odamlardan, o'zidan norozilik, shularning barini tanqid qilish tamoyili nihoyatda kuchaygan. Go'yoki qariyb bir asr mobaynida ko'zaga qamalgan tanqid birdaniga ko'zasidan chiqib, oldingi bandilik o'chini ham olayotgandek...

Ijtimoiy hayotni tanqid qilish o'tgan asrning 80-90-yillarida E. Vohidov, O. Matjon, Sh. Rahmon ijodida kuchli bo'ldi. E. Vohidovda istehzoning quyuqligi, Sh. Rahmon va A. Mahkamda esa she'r matni o'z bag'ridan xalq so'zlashuv so'zlari, hatto dag'al-tabu so'zlarga ham o'rin berganini ko'ramiz. Sho'ro davrida kommunistik

²⁴ Oripov A. Tanlangan asarlar. 8-jild. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 6-bet.

jamiyat, kommunistik mafkura adabiyotda qancha ko'p madh etilgan bo'lsa, XX asrning so'nggi o'n yilliklaridan to hozirga qadar shuncha ko'p qoralandi. Inson erki cheklangan muhitlarda adabiyotda erk mavzusi ham markaziy mavzulardan bo'lishi kerak. Qizig'i shundaki, bizda Sovet ittifoqi qulab, milliy mustaqillikka erishilgandan keyin bu mavzuga ko'proq diqqat qaratildi.

XX asr oxiridan yangilangan badiiy tafakkurda tanqid ruhining kuchayishi undagi boshqa bir tamoyil bilan bog'liq edi. Bu – badiiy tafakkurning erkinligi tamoyili edi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Badiiy, ya'ni yaratuvchi tafakkurning erkinlashuvi, san'at va adabiyotda bo'lgani singari, she'riyatda ham hamma sathlardagi o'zgarishlarga olib keldi. Bular quyidagilar:

Ijodkor o'zi xohlagan mavzuda yozish imkoniga ega bo'ldi. Ayrim ijodkorlar erkinlikni hatto shu darajada tushundilarki, sho'ro mafkurasida ruhida bir zamonlar bitilgan misrayu baytlarini, she'rlarini yangi zamon ruhiga moslash uchun tahrir qilishgacha bordilar. Bunda ijodkor sifatida o'z siymolariga soya soladigan g'ayritabiiy hech nima ko'rmadilar. Buyuk adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov "E'tiqodimni nega o'zgartirdim?" - degan sensatsion chiqish qildi. Mana shu chiqishdagi mulohazalar shoirlarning o'z she'rini nima uchun o'zgartirganligini qisman izohlay oladi.²⁵ Olim Oltinbek Rauf Parfi va jahon she'riyatining o'zaro munosabatlari haqida yozar ekan, "Dunyo sonetchiligida ikkita yo'l bor: biri Petrarka yo'li (klassik sonet), ikkinchisi Shekspir yo'li (erkin sonet). R. Parfi sonetchilikda Shekspir yo'lini tutdi, o'sha yo'lda o'zbek sonetchiligini yangi bosqichga ko'tardi",²⁶ - deydi. Bizningcha, bu tanlov ham tasodif emas, R. Parfi tomonidan shekspircha erkin sonet usulining tanlanishi ham g'ayrisha'riy ravishda badiiy tafakkurning erkinlashuvini o'zida voqelantiradi.

- Janrlarga munosabat ham erkinlashdi. Sonetga e'tibor kuchaydi, janr taraqqiyoti Rauf Parfi va Faxriyor ijodida yangi bosqichga ko'tarildi. Rauf Parfi jahon she'riyatining rondo, rondel, tanka, xokku kabi janrlarida she'rlar yozdi, shular ta'sirida uchlik janriga asos soldi.
- Abdulla Oripov uch misrali banddan tashkil topgan qofiyasiz she'rlar yozdi. Faxriyor "Oy // bolta" kabi ikki so'zli she'r yozdi, geometrik she'rlarni tajriba qildi. Buxorolik shoir Isroil Subhon shashqator janriga asos soldi, "Barmoqdagi g'azallar" nomli turkum yaratdi. Namanganlik shoira Dilorom Ergasheva aruzda "Payvand"lar yaratdi (mumtoz shoirdan bir bayt tazmin tarzida olinib davom ettirildi)...

²⁵ K.: Sharafiddinov O. E'tiqodimni nega o'zgartirdim? // "Tafakkur" jurnali, 1997 yil, 10-son..

²⁶ Oltinbek O. Rauf Parfi va jahon she'riyati // <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/olim-oltinbek-rauf-parfi-va-jahon-sheriyati.html>.

- She'ning mohiyatini anglash o'zgacha tus oldi. Sharqda, ma'lumki, she'riy nutq nihoyatda shakllangan, bezakdor, o'ziga xos leksik qatlamga ega, ramziy-istoraviy bo'lgan. XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan ma'rifatparvarlik shoirlari bunday leksikani hajviy she'rlarda qo'llagan edilar. O'tgan asr shoirlarida esa bu kabi noshoirona leksika jiddiy she'rlardan ham o'rin oldi. Shunday qilib, "shoirona"lik, badiiy bezakdorlik bilan bir qatorda, she'riyatga nihoyatda jo'n so'zlashuv usuli ham kirib keldi. Bu ayniqsa, Tillanisa, Al-Fayz singari yoshlar ijodida tipiklik kasb etdi. She'riyat leksikasining o'zgarishi, unda oddiy so'zlashuvdagi dag'al, haqorat omuz, she'r tugul adabiy matnlarda-da ishlatilmaydigan so'zlarning kirib kelishi esa sal oldinroq – Shavkat Rahmon, Asqar Mahkam she'rlarida sodir bo'lgan edi.

Biz yuqorida yangilangan badiiy tafakkur tufayli shoirlar "Sho'ro mafkurasi ruhidagi misrayu baytlarini, she'rlarini yangi zamon ruhiga moslash uchun tahrir qilishgacha bordilar", - dedik. Bu esa yangilangan badiiy tafakkurga xos yana bir tamoyildan kelib chiqqan edi: malomatiylik, iqror, afsus, o'kinch. Davr ijodkorlarining ayrimlarida uzoq yillar mobaynida yolg'on g'oyalarga ishonib yurganlari uchun o'zlarini malomat qilish tamoyili paydo bo'ldi. O'sha malomatiylik tufayli allaqachon e'lon bo'lgan, o'quvchilarga ma'lum misrayu baytlar o'zgarishga uchray boshladi. Malomatiylik ruhidagi she'rlar paydo bo'ldi.

O'zbekiston Qahramoni O. Sharafiddinov adabiy jarayonni qattiq silkitgan "E'tiqodimni nega o'zgartirdim?" nomli maqolasida shunday degan edi: "Bugun shuncha odamning (20 million kompartiya a'zosi – Sh. K.) hammasi bo'lmasa-da, mutlaq ko'pchiligi kommunistik mafkuradan uzil-kesil yuz o'girib, e'tiqodini o'zgartirdi. Tuzukroq o'ylab qarang, ma'naviy suyanchig'i barbod bo'lgan, ixlos bilan ishongan ideallari sarob bo'lib chiqqan salkam 20 million odam! Hayotining yarmidan ko'pini yashab qo'ygach, birdan shuncha umr behuda ketganini anglab qolgan, dunyoni poklashdek oliy niyatga xizmat qilyapman deb o'ylagan, aslida esa o'zi butkul «kirlanib» bitgan 20 million odam! Bashariyat tarixida hali hech qachon bunaqa katta falokat, bunchalik behudud fojia ro'y bergan emas edi va ehtimolki, bundan keyin ham hech qachon ro'y bermas. Bu shunday mislsiz falokat, shu qadar ulkan ma'naviy yemirilishki, uning oqibatida kurralar mehvaridan chiqadi, jamiyatning ruhiy muvozanati buziladi, qanchadan-qancha odam to'satdan o'zini junun vodiysiga tushib qolganday his qiladi va yangi suyanch tog'larini izlab har tomon sarsari yuguradi".²⁷ Iqror, malomatiylik, afsus ruhi, xususan, o'zbek xalqining XX asrdagi eng ulkan shoiri Abdulla Oripovda kuchli bo'ldi.

Shavkat Rahmon ham so'nggi she'rlaridan birida alam va afsus bilan:

²⁷ Sharafiddinov O. E'tiqodimni nega o'zgartirdim? // "Tafakkur" jurnali, 1997 yil, 10-son.

Chindanam, bunday erk og'irmasmi ko'p
odamga ergashib qattiq aldangan,
o'limdan o'zga bir nasibasi yo'q,
bir umr qamoqda yotgan odamga...²⁸ –
deb yozgan edi. Asqar Mahkam esa “Tavajjuh” da:
Qirq bir hujra ichra qirq bitta havas,
darvozadan chiqding besharm, beg'usul,
sohilga yetding sen, daryoga emas,
ey ko'ngil, ey ko'ngil, ey telba ko'ngil!²⁹ –
deydi.

Afsus-nadomat, buyuk yolg'onlarga aldanganlikdan alam motivi, xususan, katta avlod badiiy tafakkurida asosiy tamoyil bo'ldi. E. Vohidov “Shukurkim, keldi istiqlol” nomli g'azalida shunday yozdi:

Agarchi ismim Erkin,
Erki yo'q, bandi kishan bo'ldim.
Ko'zim bog'liq, dilim dog'liq,
Tilim yo'q, besuxan bo'ldim.

A. Oripov she'riyatida o'kinch aralash iqror qayta-qayta qalamga olindi. “Afsus, afsus, aldanibman, ko'p aldanibman”, - deydi bir o'rinda to'g'ridan-to'g'ri. Yana bir o'rinda esa:

Men ham o'sha davr yalovin tutdim,
Ko'rmagan yovimga uraverdim do'q.
Sayid Olimxonni anglamay o'tdim,
Ibrohimbekni ham tushunganim yo'q.
Hazrat deb insonga o'qidim takbir,
Raso bo'lsin deya kuyladim jo'shib.
Hazratni “hasrat” deb so'ng qildim tahrir,
Rasoga “v” harfin qo'ydim-ku qo'shib,³⁰ -
deya hasrat chekadi.

Keyinroq malomatiylik afsus, nadomat ruhida emas, balki fitratidagi nuqsonlarni, xatolarini iqror etish shaklida yuz ko'rsatdi. Endi bu iqror “biz undoq, biz bundoq” kabi umumiy, hammaga doxil (aslida o'zini o'shalardan emas deb bilish bu) xato-kamchilik kabi talqin qilinmadi, balki gapning egasi to'g'ridan-to'g'ri “men” bo'ldi. Nodira Afoqova bir she'rida:

Ko'zyoshni ko'rsatmoq... yo'q-yo'q, bu o'lim.

²⁸ Rahmon Sh. Saylanma. – Toshkent, “Sharq” nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1997 yil. – 209-bet.

²⁹ Mahkam A. Haq. – Dushanbe, “Adib”, 1998. – 265-bet.

³⁰ Oripov A. Tanlangan asarlar. 8-jild. – 6-7-betlar.

Balki bu kibrdir..
Yiqilgan odam
Izzati nafsiga tasalli, balkim.
Yiqildim... - ³¹

deydi. Ko'zyoshni ko'rsatmay turishni sabr-matonat, jasorat belgisi emas, kibr, y iqilgan odamning o'z izzat-nafsiga tasallisi o'laroq taqdim etadi. Yosh shoira Tillanis o "Men samimiy, bo'lolmasman, yo'q!", - deydi.

Ana shu malomatiylik izchillik bilan boshqa bir tamoyilni ham maydonga keltirdi. O'zidan norozilik, aldanganlikdan alam o'zini boshqalar bilan qiyosda ko'rishga mayl uyg'otdi. Milliy badiiy tafakkurda dunyo bilan uyg'unlashuv ruhi tug'ilib keldi. Bu tamoyil turli shakllarda voqelandi. Erkin Vohidovning "Turkiston bir, Vatan bir" deb yozgan naqorati davrning shiori kabi jarangladi.

Abdulla Oripov xorij mavzuida ko'p she'rlar yozdi. Albatta, ularning aksariyati xorij safarlari bilan bog'liq edi. Bu she'rlarda o'zini o'zgaralar bilan qiyoslash, ulardan kam emasligini ko'z-ko'z qilish, ba'zan esa nobop tuzum tufayli ilg'orlardan ortga qolganlikdan afsus, ba'zan esa eng go'zal milliy qadriyatlar bilan moddiyunchilikka, nafsga berilgan, robotga aylangan dunyodan ustunlikdan faxr-iftixor qalamga olindi.

Sof modernistik uslubda yozadigan shoirlarning ko'payishi ham badiiy-yaratuvchi tafakkurning jadal olg'a borayotgan jahon bilan uyg'unlashuvga intilishi natijasi bo'ldi. Chunki XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jahon adabiyotida ijtimoiy-tarixiy voqelikka norozilik natijasida turli xil oqimlar paydo bo'ldi. Ular san'at va adabiyotda eski usul va qoidalardan kechish, butunlay yangilanish da'vosi bilan maydonga chiqdilar. Keyinchalik, XX asrning 60-70-yillarida modernizm elementlari Rauf Parfi she'riyatida yuz ko'rsatdi. 80-90-yillari va undan keyingi davrda modernizm Abduvali Qutbiddin, Bahrom Ro'zimhammad, Faxriyor, Go'zal Begim kabi ijodkorlar uslubida to'la qaror topdi. Ta'kidlash ortiqcha emas: modernizm o'tgan asr oxirlarida milliy adabiyotimizda dunyoning boshqa mamlakatlarida bo'lgani kabi san'at va adabiyot ahlining ijtimoiy borliqqa munosabatidan paydo bo'lgan emas, bil'aks, aynan milliy badiiy tafakkurning jahon bilan uyg'unlashuvga intilishidan paydo bo'ldi. Rauf Parfi o'z she'rlarida turli xalqlarning Pol Verlen, Isikava Takuboku, Viktor Xara, Eduard Veydenbaum, Uldis Berzinsh, Knuts Skuyeniyeks, Muktibodh, Rolando Eskardo, Bernd Iyentsh, Tavfiq Fikrat kabi ijodkor, ziyoli farzandlarini eslaydi, ularga she'rlar bag'ishlaydi, iqtiboslar oladi. Milliy badiiy tafakkurning jahon bilan uyg'unlashuvga intilishi mana shu tarzda ham yuz ko'rsatdi. Rauf Parfining ijodiy uslubiga, badiiy tafakkuriga xos bu xususiyat keyinchalik Faxriyor ijodida yanada mukammallashdi. Shoirning ingliz tilini bilishi, bu tildan

³¹ Afoqova N. yolg'izning Yori. Toshkent.: Muharrir nashriyoti. 2022 y. 146 bet

tarjimalar qilishi ham mazkur tamoyilning kuchayishiga ta'sir ko'rsatdi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Mustaqillik tufayli sho'roning dahriyona mafkurasidan keyin e'tiqod erkinligiga erishildi. Katta-kichik har bir odam muqaddas dinimiz asoslari bilan tanishish imkoniga ega bo'ldi. Masjidlar ochildi, islomiy adabiyotlar nashr qilina boshladi, diniy bilim olish, uni takomillashtirish oson bo'lib qoldi. Qatag'on, ta'qibu tazyiqlar barham topdi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, badiiy tafakkurda g'alati tamoyil paydo bo'ldi. Kommunistik mafkura hukmronligi davrida badiiy matnda "xudo", "olloh" kabi so'zlarni ishlatish-da mumkin emasdi; bu boradagi ta'qiqlar olib tashlangach esa, mustaqillik e'tiqod bobida bergan erkinlikni suiiste'mol qilishga o'xshagan bir holat kuzatiladi. Biz yashab turgan dunyo va son-sanoqsiz olamlarning Parvardigorga insonning belgilarini nisbat berish, Yaratguvchi bilan munozaraga kirishish, ba'zan uni to'g'ridan-to'g'ri inkor qilish kabi hollar ham uchray boshladi. Dardning, iztirobning kuchini ko'rsatish uchun "Parvardigor, bor bo'lsang agar..." kabi shart ergash gapli misralar paydo bo'ldi. Bir shoira "Meni xudoga nikohlab qo'ying", - deb yozdi. Bizningcha, badiiy tafakkurdagi erkinlik tamoyili inson va Parvardigor o'rtasidagi chegaraga ham o'ta erkin munosabatda bo'lish shaklida voqelandi. Umuman olganda esa, ijodkor shaxsning Yaratganga malomati, u bilan munozaraga kirishish boshqa makon va zamon adabiyotlarida ham uchrab turadi.

Adabiyotlar

1. Oripov A. Tanlangan asarlar. 8-jild. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 6-bet.
2. Rahmon Sh. Saylanma. – Toshkent, "Sharq" nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1997 yil. – 209-bet.
- 3 Mahkam A. Haq. – Dushanbe, "Adib", 1998. – 265-bet.
4. Sharafiddinov O. E'tiqodimni nega o'zgartirdim? // "Tafakkur" jurnali, 1997 yil, 10-son.
- 5.Oltinbek O. Rauf Parfi va jahon she'riyati // <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/olim-oltinbek-rauf-parfi-va-jahon-she'riyati.html>.
6. Afoqova N. yolg'izning Yori. Toshkent.: Muharrir nashriyoti. 2022 y. 146 bet

**J.G.BAYRON SHE'RIYATIDA SHARQ VA G'ARB MANZARALARI O'RTASIDAGI
OHANG VA YONDASHUVDAGI FARQLAR
DIFFERENCES IN TONE AND APPROACH BETWEEN EASTERN AND WESTERN
LANDSCAPES IN BYRON'S POETRY**

Parda Axmedovich Kurbanov,

PhD. Head of the chair "Western Languages", Turon University

e-mail: pqurbonov@yahoo.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz shoiri Jorj Gordon Bayron poemalarida Sharq tabiati va manzaralarining she'riy tasviri tahlilga tortilgan bo'lib shoirning Sharq qissalarini batafsil tahlil qilish orqali va o'z sayohatidan ilhomlangan shoirning Sharqdagi bevosita tajribalari hamda husunkor Sharq dunyosiuning ijodiga qanday ta'sir qilganligi tahlilga tortilgan.*

Kalit so'zlar: *Lord Bayron, Sharq manzaralari, tabiat, she'riyat, romantik sharqchilik, Sharq ertaklari, qiyosiy adabiyot, insonparvarlik, ozodlik.*

Abstract. *This article analyzes the poetic depiction of Eastern nature and scenery in the poems of the English poet George Noel Gordon Byron, through a detailed analysis of the poet's Eastern tales and inspiration from his travels, the poet's direct experiences in the East, and how the Eastern world influenced his work.*

Key words: *Lord Byron, Eastern landscapes, nature, poetry, Romantic Orientalism, Oriental tales, comparative literature, humanity, freedom*

Introduction. George Gordon Byron, the outstanding exponent of English romanticism, was famous for depicting exciting moments of bright nature in his works. In Europe, the people were brutally exploited by a handful of nobles and oligarchs, individual freedom and moral values declined, and the ideals of humanity, freedom, equality and brotherhood of all people of the great French Revolution were devalued. Romantic writers and poets seek to find these high values in the East. They believe that the strong figures and heroes of the East can make changes in the society in their works. Secondly, romantics see bright examples of love and devotion in Eastern life. In all of Byron's mature poems, tragedies in the fate of powerful people are described, and love is also connected with an unequal struggle against the oppressors of the time. J. Byron's journey across the Mediterranean Sea in 1809-1811, from various cities dependent on the Ottoman Turkish Empire to Constantinople (Constantinople) are the first two chapters of the epic *Childe Harold's Pilgrimage* (1809-1817). is reflected in the song and "Oriental Tales" (The Oriental Tales between 1813-1816). His travels to the East, namely through Greece,

Albania and Turkey, greatly influenced his work and led to the creation of his best works. The depiction of Oriental nature and landscapes in Byron's works, the direct influence of Oriental landscapes in English literature, [1] shaped his poetry through the great experiences gained in this research aimed at studying the image of the Oriental world. In our article, we will try to expand our understanding of J. Byron, his contribution to Romantic Orientalism and his unique approach to depicting Eastern landscapes, artistic works created by Byron and his rich experience, cultural imagination and poetic images and their interaction. we did

Literature review. This study employs a qualitative approach, combining close textual analysis with contextual and comparative methods. The primary texts examined include Byron's Oriental tales, particularly "The Giaour," "The Bride of Abydos," and "The Corsair," as well as relevant sections of "Childe Harold's Pilgrimage." These works are analyzed for their depictions of Eastern landscapes, flora, fauna, and natural phenomena.

Research methodology. The study of Byron's Eastern landscapes has been a subject of interest for many scholars. Mole (2007) explores Byron's use of landscape as a means of self-representation, arguing that the poet's depictions of Eastern nature often serve as extensions of his own persona [2]. Makdisi (1998) examines Byron's Eastern works in the context of British imperialism, suggesting that his landscapes reflect both fascination with and anxiety about the East [3].

Leask (2004) provides a comprehensive analysis of Byron's engagement with the East, including his approach to landscape description. He argues that Byron's firsthand experience of Eastern locales lends authenticity to his portrayals, distinguishing them from more conventional Orientalist depictions [4].

Sharafuddin (1994) focuses on the influence of Islam on Byron's Eastern poetry, including how Islamic concepts of nature and paradise shape his landscape descriptions [5]. This perspective is particularly relevant when considering Byron's portrayal of gardens and oases. The image of the East could not fail to arouse interest in Westerners. Byron, by his own account, understood very well the reason for such interests of the reading public, and he himself shared a common oriental interest. In a letter to Mr. John Murray, the publisher of Byron's poems, he said that the poet tries to express every oriental detail as accurately as possible.

Results and discussions. One of the most striking features of Byron's Eastern landscape poetry is the prominence of seascapes.

The Mediterranean and Aegean Seas feature heavily in his works, often serving as both setting and symbol. In "The Corsair," Byron writes:

"O'er the glad waters of the dark blue sea,
Our thoughts as boundless, and our souls as free,

Far as the breeze can bear, the billows foam,
Survey our empire, and behold our home!" [6]

This passage not only describes the physical seascape but also uses it as a metaphor for freedom and expansiveness, themes central to Byron's Eastern narratives.

Mountains play a significant role in Byron's Eastern landscapes. The rugged terrain of Albania and Greece, in particular, captured Byron's imagination. In "Childe Harold's Pilgrimage," he describes the mountains of Albania:

"Where Pelion's leafy crest Looks o'er Peneus' flood,
And Ossa's hoary crown,
Seem dwarfed by Olympus' cloud." [7]

Here, Byron blends classical allusions with personal observation, creating a landscape that is both mythical and tangible. Byron's Eastern poetry is rich in descriptions of local flora and fauna. In "The Bride of Abydos," he writes:

"The cypress and the willow tree,
The only constant mourners there,
The palm, the pine, the drooping tree,
Are bowed beneath the wintry air." [8]

This passage demonstrates Byron's attention to specific plant species and their symbolic significance in Eastern contexts. The climate and atmosphere of the East feature prominently in Byron's landscape descriptions. He often emphasizes the heat, light, and colors of Eastern settings. In "The Giaour," Byron describes a sunset:

"The sun's last rays are on the hill,
The mountain shadows grow,
There's not a breath the air to fill,
The waves scarce dare to flow." [9]

This vivid depiction captures the stillness and intensity of an Eastern evening, creating a mood that permeates the entire poem.

When compared to Byron's depictions of Western landscapes, his Eastern nature poetry reveals several distinctive features:

- Greater emphasis on sensory details, particularly light and color
 - More frequent use of exotic flora and fauna
 - Tendency to blend realistic observation with mythological allusion
 - Stronger association between landscape and emotional or philosophical themes
- For instance, while Byron's descriptions of English landscapes in "Don Juan" tend to be more satirical and detached, his Eastern landscapes are often imbued with a sense of wonder and spiritual significance.

Byron's firsthand experience of the East clearly influences his landscape descriptions. His poetry often includes specific geographical REFERENCES and accurate depictions of local features. This authenticity sets Byron's work apart from many of his contemporaries who wrote about the East without having visited it.

Byron frequently uses Eastern landscapes symbolically. The vastness of the sea often represents freedom or escape, while mountains symbolize challenge or aspiration. Gardens and oases are often associated with love and sensuality, reflecting both Eastern literary traditions and Byron's own romantic experiences in the region.

While Byron's depictions of Eastern landscapes are often more nuanced than those of his contemporaries, they are not entirely free from Orientalist tendencies. His emphasis on the exotic and the sensual in Eastern nature sometimes reinforces Western stereotypes about the region. However, his work also challenges some Orientalist assumptions by presenting Eastern landscapes as complex and multifaceted rather than simply exotic backdrops.

Byron's poetic depiction of Eastern nature and landscapes represents a significant contribution to both Romantic poetry and the development of literary Orientalism. His work demonstrates a unique blend of personal observation, classical allusion, and Romantic sensibility.

Byron's mountain imagery, particularly in his Albanian and Greek settings, reflects the profound impact these landscapes had on his imagination. The mountains in his poetry are not merely physical features but often represent challenges to be overcome or aspirations to be reached, mirroring Byron's own quest for personal and poetic achievement.

The comparison between Byron's Eastern and Western landscape poetry reveals significant differences in tone and approach. While his Western landscapes are often described with a more detached or ironic perspective, his Eastern landscapes are imbued with a sense of wonder and emotional intensity. This difference suggests that Byron found in the East a landscape that resonated deeply with his Romantic sensibilities.

Conclusion. This study has demonstrated that Byron's poetic depiction of Eastern nature and landscapes is characterized by vivid imagery, authentic detail, and symbolic resonance. His firsthand experiences in the East profoundly influenced his portrayal of its natural world, resulting in poetry that is both evocative and grounded in reality. Byron's Eastern landscape poetry represents a significant contribution to Romantic literature and to the development of literary Orientalism. While not entirely free from Orientalist tendencies, his work offers a more nuanced and authentic vision of Eastern nature than many of his contemporaries.

The prominence of seascapes, mountain imagery, and detailed descriptions of flora and fauna in Byron's Eastern poetry reflects both his personal experiences and his artistic vision. These elements combine to create a powerful representation of the Eastern landscape that continues to captivate readers and influence literary depictions of the East.

References

1. Beatty, B. (1985). *Byron's Don Juan*. Totowa, NJ: Barnes & Noble Books.
2. Bone, D. (2004). *Byron*. Tavistock: Northcote House.
3. Franklin, C. (2000). *Byron: A Literary Life*. London: Macmillan Press.
4. Leask, N. (2004). *British Romantic Writers and the East: Anxieties of Empire*. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Makdisi, S. (1998). *Romantic Imperialism: Universal Empire and the Culture of Modernity*. Cambridge: Cambridge University Press.
6. McGann, J. J. (Ed.). (1986). *Lord Byron: The Complete Poetical Works*. Oxford: Clarendon Press.
7. Mole, T. (2007). *Byron's Romantic Celebrity: Industrial Culture and the Hermeneutic of Intimacy*. Basingstoke: Palgrave Macmillan.
8. Sharafuddin, M. (1994). *Islam and Romantic Orientalism: Literary Encounters with the Orient*. London: I.B. Tauris.
9. Cochran, P. (2009). *Byron and Orientalism*. Cambridge: Cambridge Scholars Publishing.

O‘ZBEK TILIDAGI ZONIM ASOSLI METAFORALARNING TARJIMADA IFODALANISHI

Juraqobilova Hamida Xolmatovna

Turon universiteti G‘arb tillari kafedrası dotsenti, s.f.n.

e-mail: xamidajuraqobilova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada metafora xalqning milliy-madaniy xususiyatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi lingvistik hodisa sifatida lingvokognitiv, lingvomadaniy nuqtai nazardan tadqiq qilindi. O‘zbek tilidagi zoonim asosli kognitiv metaforalarning milliy-madaniy xususiyatlari va tarjimada qayta yaratilish muammolari o‘zbek adibi Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarining fransuz tilidagi tarjimasi misolida tahlil qilindi. Shuningdek, o‘zbek va fransuz tillarida so‘zlashuvchi ikkala xalqning assotsiativ tafakkuridagi o‘xshash va farqli jihatlari aniqlandi.

Tayanch so‘zlar: kognitiv metafora, zoonim asosli kognitiv metafora, til va tafakkur, konseptual metafora, konsept, lingvistik hodisa, milliy-madaniy xususiyatlar, badiiy matn, assotsiativ tafakkur.

Abstract. In the article, the phenomenon metaphor was researched as a linguistic phenomenon which reflected the national-cultural characteristics and worldview of the people from the linguo-cognitive and linguo-cultural point of view. The national-cultural features of zoonym-based cognitive metaphors of the Uzbek language were analyzed in the sample of Abdulhamid Cholpon’s novel called “Night and Day” in the translation of French language. Furthermore, the similarities and distinctions between the association of cognition of the two nations speech as Uzbek and French were also been identified.

Key words: cognitive metaphor, zoonym-based cognitive metaphors, language and cognition, conceptual metaphor, concept, linguistic phenomenon, national and cultural characteristics, fiction text, associative thinking.

Kirish. Ma’lumki, inson miyasi mohiyatan o‘zgaruvchan va nihoyatda yaratuvchandir. Unda har daqiqada kutilmagan jarayonlar va mexanizmlar sodir bo‘ladi, lekin ular ko‘pincha oldindan aytish mumkin bo‘lgan o‘xshashliklarni, taqqoslashlarni, solishtirishni keltirib chiqaradi. Biron narsa yoki hodisaning nomi tez fursatda nimasi bilandir birinchisini eslatadigan va unga o‘xshash boshqa bir narsaning ma’nosiga aylanishi mumkin. Fanda bu mexanizm ma’no ko‘chishi deb ataladi va uni metafora deb ham atash mumkin. [2.Дружинин А.С. Английский

перфект: понять и объяснить // Иностранные языки в школе. - 2016. - №2. –С. 49-53]

Metafora grekcha “μεταφορά” (ma’no ko’chishi) so’zidan olingan bo’lib, bir predmetni umumiy xususiyatlari asosida boshqa bir predmet nomi orqali ifodalaydigan trop yoki nutq mexanizmidir. Keng ma’noda “metafora” termini so’zning har qanday holatda ko’chma ma’noda qo’llanishidir. [3.Лингвистический энциклопедический словарь.- Москва, Советская энциклопедия, 1990. - 683]

Demak, metafora bu - bir turning mohiyati va his qilishini boshqa turning mohiyati nuqtai nazaridan tushunishdir.

Buyuk nemis faylasufi Lixtenberg: “Yaxshi metafora - bu hatto politsiya ham kuzatishi kerak bo’lgan narsa”, deya ta’riflagan. Rus olimi V.V.Nalimovning fikricha “Oddiy tilda mantiqning etishmasligi metafora yordamida qoplanadi. Matnning mantiqiy va metaforik tabiati uning bir-birini to’ldiradigan ikkita ko’rinishidir”. [8.Теория и метафоры. -Москва, Прогресс, 1990. -С.5.]

Metafora - oning ajralmas quroli, ilmiy tafakkurning shaklidir”. [9.Хосе Ортега-и-Гассет. Две великие метафоры. Теория и метафоры. -Москва, Прогресс, 1990. -С. 68-69]

Metafora gumanitar sohada olib borilgan tadqiqotlarning eng asosiy va ko’p organilgan “an’anaviy” obyektlaridan biridir. Biroq, ko’p yillik qiziqishlarga qaramay metafora ko’p qirrali va ko’p funktsiyali hodisa sifatida zamonaviy lingvistikaning turli yo’nalishlarining ko’p o’rganilayotgan tadqiqot obyekti bo’lib qolmoqda.

Metafora tarixiga bir nazar tashlaydigan bo’lsak, unda bir-biriga qarama-qarshi bo’lgan ikkita muhim jihatni ko’rish mumkin. Bir tomondan, u inson tafakkurining rivojlanishiga xizmat qiladigan lingvistik hodisa sifatida, boshqa tomondan ma’no ko’chishining nutqda eng keng tarqalgan va ko’p qo’llaniladigan fikr ifodalashning o’ziga xos shakli sifatida e’tirof etiladi.

O’tgan asrning 70 yillariga kelib metaforaga bo’lgan qiziqish yanada ortdi va u jahon tilshunoslarini qiziqtirgan lingvistik hodisaga aylandi. Metaforaga bo’lgan cheksiz qiziqish uning xossalari, xususiyatlari, tuzilishi, modellari, hodisaning mohiyati va u bilan bog’liq bo’lgan hamma narsani o’rganish, til va tafakkur, til va bilish, til va bilim kabi tilshunoslikning asosiy muammolariga yangi yondashuvlarni ko’rish imkonini berdi. [6.Осокина С.А, Карпухина В.Н., Савочкина Е.А. Лингвистические исследования метафоры: краткий обзор. Мир науки, культуры, образования. № 4 (89) 2021. -С.423.]

Amerikalik tilshunos olim J.Lakoff va mashhur faylasuf M.Jonsonlar o’zlarining “Metaphors We Live By” asarida kognitiv metaforalar nazariyasiga asos soldi. Tadqiqotchilar metaforani dastlab konseptual konstruktsiya sifatida ko’rib

chiqdi hamda uning inson tafakkurining rivojlanish jarayonidagi asosiy o‘rnini aniqlab berdi. Ushbu asarda aytilishicha konseptual metafora bu shunchaki stilistikaning metodi bo‘libgina qolmasdan, tafakkur va fikrlashning usulidir. [5. Лакофф Д., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем: Пер. с англ. / Под ред. и с предисл. А. Н. Баранова. - М.:Едиториал УРСС, 2004.-256 с.]

Konseptual metafora nazariyasi til va tafakkur o‘rtasidagi shunday munosabat modelini ifodalaydiki, konseptual va lingvistik ifodalar bir-biridan farq qiladi, ikkinchisi birinchisi haqida bizga ma’lumot berishi mumkin. Metaforasiz fikrlash juda qiyin, metaforalarni bir chetga surib qo‘yish haqida gapirishning o‘zidayoq, aniqrog‘i, biz hali ham metaforadamiz. [10. Keromnes Y. Les métaphores – et leur traduction – dans la vie quotidienne. Université de Lorraine, ATILF, UMR 7118, Metz. <https://www.google.com>. -P.3.]

Bu esa, til va psixik hodisalarning o‘zaro ta’siridagi tadqiqotlarning, xususan metaforani lingvistikaning bugungi kundagi dolzarb tadqiqotlaridan biriga aylantirdi. Rus tilshunoslarining ta’biri bilan aytganda lingvistik hodisa sifatida metaforaga yangidan hayot berdi”. [6.Осокина С.А, Карпухина В.Н., Савочкина Е.А. Лингвистические исследования метафоры: краткий обзор. Мир науки, культуры, образования. № 4 (89) 2021. -С.423.]

Maqsad va vazifa: Keyingi yillarda o‘zbek tili materiali asosida o‘zbek tilshunoslari tomonidan ham metaforaning lingvomadaniy, lisoniy, semantik va lingvokognitiv xususiyatlarini qiyosiy aspektda o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar ko‘lami kengayib bormoqda. Tilshunos olim B.Mengliyevning ta’kidlashicha o‘zbek tilshunosligida metaforalarning o‘rganilishi o‘zbek tilshunosligining istiqbolli yo‘nalishlaridan biri maqomiga ko‘tariladi. [4.Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek tili. -Toshkent, «Tafakkur Bo‘stoni», 2018. -B.157.]

Metafora har bir xalqning milliy-madaniy xususiyatlari, an’analari, urf-odatlari, dunyoqarashini aks ettiradigan ko‘p qirrali lingvistik hodisadir. Shu bois bugungi kunda metaforani lingvokognitiv, lingvomadaniy jihatdan muayyan bir til, yoki turli tillarni qiyoslash, chog‘ishtirish doirasida o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda. Bu esa o‘zbek va chog‘ishtirilayotgan tillarda so‘zlashuvchi xalqlarning ijtimoiy-madaniy aloqalarining rivojlanishiga, ikkala xalqning assotsiativ tafakkuridagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlashga hissa qo‘shmoqda.

Dunyo haqidagi tasavvurlarni ifodalashda ham obrazli, ham kognitiv potentsialga ega bo‘lgan murakkab lingvistik fenomen sifatida zoometaforalar har bir xalqning turmush tarzidan kelib chiqqan holda insonlarning ayrim fe’l-atvori, harakati va xarakterini tasvirlab beruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotda o‘zbek tilidagi zoonim asosli kognitiv metaforalarning milliy-madaniy xususiyatlari va tarjimada qayta yaratilishi masalalari o‘zbek adibi Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani asosida tahlilga tortildi.

Fransuz tadqiqotchisi Stephane A.Dudoignon “Kecha va kunduz” asarini fransuz tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. Tarjimon asarning nomini tarjima tilida “Nuit”, ya’ni “Kecha” deb atagan. Asar nomining bu tarzda nomlanishining o‘zidayoq biz metaforaga duch kelamiz. Bunday nomlanish kitobxonda asar voqealarining, qahramonlarning fojiali taqdiri, o‘sha davr ijtimoiy hayoti va muhitidan darak beradi hamda inson nafaqat metafora vositasida fikrlaydi, balki metaforalar yordamida fikrlaydi, ular vositasida o‘z dunyosini qurishidan dalolat beradi.

Tadqiqot ysullari: Inson tafakkurining shakllanishida metaforaning roli va o‘zbek tilidagi zoonim asosli kognitiv metaforalarning tarjimada qayta yaratilish muammolarini tadqiq qilishda tasniflash, qiyosiy tahlil va kontekstual metodlardan foydalanildi.

Natijalar va mulohaza: Zoonim asosli metaforalar – bu hayvonlar yoki ularning xususiyatlari orqali inson hayoti yoki munosabatlariga oid tushunchalarni ifodalovchi tasavvurlar yoki ifodalardir. Hayvonlar ko‘pincha odamlarning xulq-atvori, ruhiy holati, ijtimoiy roli yoki tabiiy xususiyatlariga moslashtiriladi. Bunday metaforalar ko‘pincha ijtimoiy va madaniy tafakkurda kuchli tasvirlar yaratadi va tilga boy, rang-barang va tasavvurlarni kengaytiruvchi vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Zoometaforalar xalqning madaniy tajribasi, qadriyatlarini, tarixiy va ijtimoiy kontekstiga bog‘liq bo‘lib, ular nafaqat lingvistik, balki psixologik, ijtimoiy va madaniy o‘lchovlarni ham o‘z ichiga oladi.

O‘zbek tilidagi zoometaforalar hayvonlarning xulq-atvori, tabiatini va ularning odamlar bilan bo‘lgan munosabatlarini o‘zaro bog‘laydi. Ular o‘zbek xalqining tarixiy va madaniy an‘analari bilan chambarchas bog‘liq. Har bir hayvon, o‘zining tabiati, xulq-atvori yoki umumiy qabul qilingan xususiyatlari asosida turli ma’nolarni anglatadi.

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarida o‘zbek tilidagi zoonim asosli metaforalardan ijtimoiy sinflar va guruhlar o‘rtasidagi farqlarni aks ettirishda, asar qahramonlarining ruhiy holati yoki emosional vaziyatlarini tasvirlashda, ijtimoiy qadriyatlar, mehnat va ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan yondashuvni aks ettirishda mahorat bilan qo‘llagan. Biz quyida ularning ayrimlarining tahlilga tortdik va tarjima tilida qanday ugirilganini ko‘rib chiqdik:

Uning butun baxti Razzoq so‘fining johil vujudiga bog‘liq emas-mi? O‘sha sovuq so‘fi shu quvnoq jonni va sayroq qushchani istagan vaqtida baxtli yoki baxtsiz eta olmaydimi?
(Cho‘lpon, “Kecha va kunduz”, 2019:41)

Bu jumla fransuz tiliga quyidagicha tarjima qilingan:

*Toute sa destinée allait-elle rester liée à l'existence de ce bougre de Razzaq Soufi ? Ce fichu derviche aurait-il le pouvoir de décider, selon son bon vouloir, du bonheur ou du malheur de **ce cœur plein de joie, de ce bel oiseau chanteur** ?*

(Stephane A.Dudoignon, “Nuit”, 2009:57)

Adib o‘z qahramoni Zebini “**sayroqi qushcha**”ga o‘xshtatgan, “sayroqi” so‘ziga o‘zbek tilida “davomli, yoqimli va ko‘p sayraydigan”, [11] deya izoh berilgan. Sayroqi qushlar **kekirdagi** pastki qismida joylashgan **ovoz paylari** o‘ziga xos murakkab tuzilganidan jarangdor sayrash **xususiyatiga** ega (**bulbul, qorayaloklar, kanareykalar** va boshqalar). [2] Tarjimon esa bu metaforasi fransuz tiliga **bel oiseau chanteur** (so‘zma-so‘z, *chiroyli qo‘shiqchi quch*) tarzida tarjima qilgan. O‘zbek tilidagi **sayroqi** so‘zining ma‘nosi fransuz tilida *bel* (chiroyli) va *chanteur* (achulachi, sayroqi qushlar) so‘zlarida mujassam bo‘lgan.

*Mingboshining haligi so‘ng savoliga butun shu iztiroblarning mazmuni bor edi. “Epaqa” laqabini tashiydigan **tulki** u savolning ostida yotgan behuda tashvishlarni darhol payqadi.*

(Cho‘lpon, “Kecha va kunduz”, 2019:97)

*Tous ces sujets d'inquiétude affleuraient dans la question que venait de poser le mingbochi. **Le renard** que l'on honorait de l'épithète honorifique d'“Entortilleur” sentit bien cette appréhension, aussi ajouta-t-il sans tarder: Aujourd'hui, c'est chez vous qu'il y a fête!*

(Stephane A.Dudoignon, “Nuit”, 2009:134)

Yuqoridagi jumlada adib o‘z qahramoni Miryoqubni “tulki” deb atagan. Tulki – tabiatda o‘zining silliqliqi, ehtiyotkorligi va aqligi bilan tanilgan hayvon. **Tulki** o‘zbek xalq va boshqa ko‘plab xalqlar madaniyatida **aqli, hiyla-nayrangli, sirli va ehtiyotkor** insonlarning ramzi sifatida tasvirlanadi. Ularning xulq-atvori hayvonlarning o‘ziga xos xususiyatlariga, masalan, o‘z maqsadiga erishish uchun hiyla ishlatishiga asoslanadi. Tulki o‘zining xulq-atvoridagi murakkablik va ko‘nikmalar orqali insonlar tasvirini boyitishda va ularni tushuntirishda samarali vosita hisoblanadi. Shuning uchun, **tulki** ramzi ko‘pincha **o‘zgalarini aldash yoki yengish uchun o‘zining aql-idrokidan foydalanuvchi** insonlarga ishlatiladi.

Adib ““Epaqa” laqabini tashiydigan **tulki** u savolning ostida yotgan behuda tashvishlarni darhol payqadi” jumlasida aynan tulkiga xos bo‘lgan ehtiyotkorlik va aqlilik xususiyatlariga urg‘u bergan. Tarjima tilida ham **le renard**, ya‘ni tulki tarzida o‘girilgan. Bu esa ikkala xalqning assotsiativ tafakkuridagi o‘xshash jihatlarini ko‘rsatib turibdi.

Keyingi jumla:

Miryoqubning kattakon myasi, o'tkir aqli bor! Mingboshi o'ylyadiki, Miryoqub uning quyrug'i.. Miryoqub ishonadiki, mingboshi - tuya, burniga ip o'tkazilgan, ipning uchi-sarbonda, ya'ni tuyachida, sarbonning, nomini Miryoqub qo'rganlar...

(Cho'lpon, "Kecha va kunduz", 2019:127.)

Du moins Mir Yacoub pouvait-il se prévaloir d'un cerveau hors pair, d'une intelligence pénétrante. Peut-être le mingbochi le considérait-il comme un simple appendice de sa propre dignité, mais, à l'inverse, ce que Mir Yacoub, lui, voyait dans le mingbochi, c'était un chameau dans le nez duquel on aurait passé une ficelle dont le bout se serait trouvé dans la main d'un chamelier répondant au nom de Mir Yacoub.

(Stephane A.Dudoignon, "Nuit", 2009:178)

Bu jumlada adib Akbarali mingboshini tuya deb ataydi. Chunki u Miryoqubsiz biron ishni eplolmaydi. Akbarali tuya, burniga ip o'tkazilgan, ipning uchi-sarbonda, sorbon esa Miryoqub. Tarjimon tuya so'zini fransuz tiliga ham un chameau (tuya) deb tarjima qilgan.

Ichkarida butun ishlar mingboshining istaganicha hal bo'lgan edi. Ilgari dutor chalib, "Netayxon" kuyida sayraydigan shahar bulbuli, keyincha sekin-sekin qo'lga qo'na boshlab, Sul-tonxon tashqariga yo'l solgan kechasi biroz ijirg'anib bo'lsa ham o'zini mingboshi dodhoning ixtiyorlariga topshirdi...

(Cho'lpon, "Kecha va kunduz", 2019:235)

Dans les appartements des femmes, au moins, tout allait maintenant selon les vœux du mingbochi. L'oiselle des villes avait bien commencé par pépier, en s'accompagnant au luth, mais elle avait ensuite peu à peu entrepris de se poser sur la main qui se tendait et, la nuit où Sultan Khan s'était faufilée dans les appartements des hommes, surmontant sa nausée, elle s'était soumise au bon plaisir de Sa Grâce le mingbochi.

(Stephane A.Dudoignon, "Nuit", 2009:336)

Yuqoridagi jumlada adib Zebini bulbulga o'xshatadi. "Netayxon" kuyida sayraydigan shahar bulbuli, deya chiroyli o'xshatish qilgan. Yozuvchi bu o'xshatish orqali qizning o'ziga xos go'zalligi, ovozinining jozibadorligi, uning nafaqat tashqi ko'rinishi, balki ichki dunyosi, shirin va ohangdor ovozini tasvirlanadi. Tarjimon fransuz tilida bulbul so'zi ifodalaydigan "rossignol" so'zi bilan emas, l'oiselle des villes (shahar qushchasi) tarzida tarjima qilgan.

– Hammamiz bola-chaqalik bo'lsak... Nechtadan yosh jo'jalarimiz bor... Biz o'zimiz och-yalang'och o'ta beramiz: yosh bola uni bilmaydi: «non» deydi, «osh» deydi...

(Cho'lpon, "Kecha va kunduz", 2019:242)

–C'est qu'on a tous des gosses... Et pas qu'un seul... Nous, ça va, on a l'habitude d'avoir le ventre creux, d'aller à moitié nu, mais, les petits, comment voulez-vous qu'ils comprennent: ils sont tout le temps à nous demander qui du pain, qui de la soupe...

Qu'est-ce que c'est que cette époque où, en marnant jour et nuit, on ne mange pas à sa faim ?

(Stephane A.Dudoignon, "Nuit", 2009:347)

Yuqoridagi jumladagi **yosh jo'jalarimiz** metaforasi fransuz tiliga **les petits** (*bolalar, farzandlar*) tarzida tarjima qilingan. O'zbek madaniyatida farzandlar, bolalar so'zi o'rniga *jo'jalar* so'zi yosh, himoyaga muhtoj bolalarni tasvirlash uchun qo'llaniladi

Keyingi jumlagga e'tiboringizni qaratmoqchimiz:

Yigit-yalang chinakam quturgan edi. Bu, hazilakam gap emas. Qishloqning ikki ellikboshi, bir amini hech narsa qilolmasdan, menga odam yuboribdilar.

(Cho'lpon, "Kecha va kunduz", 2019:245)

Tous ces gens étaient enragés pour de bon. Cette fois, c'est du sérieux. Deux sous-offs et le chef du village n'ont rien pu faire et il a fallu que l'un d'eux vienne me chercher en catastrophe.

(Stephane A.Dudoignon, "Nuit", 2009:203-351)

Yozuvchi bu jumladagi *yigit-yalang chinakam quturgan* jumlasini qo'llagan. Aslida bu harakat hayvonlarga, asosan itlarga xos bo'lgan xususiyatdir. Tarjima tilida bu harakat "*être enragé*" (*quturgan, qattiq g'azablangan*) iborasi bilan tarjima qilingan.

Kognitiv metaforani o'rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar, tahlillar shuni ko'rsatadiki, metafora madaniy-kognitiv xususiyatga ega lingvistik hodisa sifatida insonning fikrlash qobiliyati, uning tafakkur darajasi, dunyoqarashi va qadriyatlarini ifodalaydigan eng zarur ham lisoniy, ham mental vositadir. Shuning uchun, konseptual metaforalar tadqiqi insonning o'z-o'zini anglashi va dunyoni idrok qilish uchun muhimdir.

O'zbek adibi Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" asari va uning fransuz tiliga tarjimasida asosida zoonim asosli metaforalar asosida qilingan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, zoometaforalar xalqning madaniy tajribasi, qadriyatlari, tarixiy va ijtimoiy kontekstiga bog'liq bo'lib, ular nafaqat lingvistik, balki psixologik, ijtimoiy va madaniy o'lchovlarni ham o'z ichiga oladi va ikkala xalqning assotsiativ tafakkuridagi o'xshash va farqli jihatlarni ko'rsatib beradi. Zoometaforalar lingvomadaniy jihatdan jamiyatning tarixiy, ijtimoiy, madaniy va diniy kontekstlarini aks ettiruvchi kuchli vositadir. Bu metaforalar nafaqat tilning semantik strukturasi, balki xalqning psixologiyasi, qadriyatlari, urf-odatlar va ijtimoiy stereotiplariga bog'liq bo'lib, o'zgaruvchan madaniyatlarni va ixtisoslashgan dunyoqarashlarni ifodalashda xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Abdulhamid Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. – 288 b.
2. Дружинин А.С. Английский перфект: понять и объяснить // Иностранные языки в школе. - 2016. - №2. - С. 49–53.
3. Лингвистический энциклопедический словарь. Главный редактор Ярцева В.Н. - Москва, «Советская энциклопедия», 1990. -683 с.
4. Mengliyev V. Hozirgi o‘zbek tili. -Toshkent, «Tafakkur Bo‘stoni», 2018. -B.157.
5. Лакофф Д., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем: Пер. с англ. / Под ред. и с предисл. А. Н. Баранова. - М.:Едиториал УРСС, 2004.-256 с.
6. Осокина С.А, Карпухина В.Н., Савочкина Е.А. Лингвистические исследования метафоры: краткий обзор. Мир науки, культуры, образования. № 4 (89) 2021. -С.423.
7. Stephane A.Dudoignon. Nuit. –France, 2009. -452
8. Теория и метафоры. Под редакцией Н.Д. Арутюновой и М.А.Журинской. Э.Кассирер, Р.Якобсон, А.Ричардс, М.Блэк, Дж.Серль, Д.Вежбицка, А.Ортони, Дж.Лакофф, Н.Гудмен и др. -Москва, “Прогресс”, 1990. -С. 5.
9. Хосе Ортега-и-Гассет. Две великие метафоры / Арутюнова Н.Д. Теория и метафоры. -Москва, “Прогресс”, 1990. -С. 68-69.
10. Yvon Keromnes. Les métaphores – et leur traduction – dans la vie quotidienne. Université de Lorraine, ATILF, UMR 7118, Metz. <https://www.google.com>. - P.3.
11. <https://uz.wiktionary.org/wiki/sayroqi>
12. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sayroqi_qushlar

RAUF PARFI SHE'RIYATIDA VIZUAL TASVIR TAJRIBALARI

Eshdavlatova Aziza Ubaydulla qizi

Turon universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. ushbu maqola Rauf Parfi she'rlarida vizual tasvir tajribalari, ularning ong oqimiga ta'siri, rondellarda vizual tasvir va vizual obraz uyg'unligi haqida ilmiy tahlillarni o'zida jamlaydi. Xayol sathidagi obyekt tasviri, uning zamon kategoriyasida tushunilishi, vizuallashuv jarayonida hissiy ssenariylarning yuzaga chiqish omillari yoritilgan.

Kalit so'zlar: vizual tasvir, xayol sathi, rondel, Karl, Pol Rikur.

Abstract. this article summarizes the scientific analysis of vizual image experiences in Rauf Parfi's poems, their influence on the stream of consciousness, and the harmony of vizual image and vizual image in rondels. The image of the object on the imaginary level, its understanding in the category of time, the factors of the emergence of emotional scenarios during the vizualization process are highlighted.

Key words: vizual image, imagination level, rondel, Carl, Paul Ricoeur,

Kirish (Introduction). Har bir adabiyot ijod erkinligi tamoyilida o'sadi va rivojlanadi. She'riyat esa ko'ngilni isloh etuvchi, hayot falsafasini yangi usullarda akslantiruvchi mahzandir. XX asr o'zbek she'riyatida fikr bilan tuyg'u oqimi sintezini badiiy san'at darajasiga ko'targan, sof kechinmalarning isyonkor oqimini, vizual-majoziy ifodasini g'ayrioddiy yo'sinda omixtalashtirgan shoir Rauf Parfidir. Uning she'rlaridagi falsafiy-gumanistik g'oyalar she'riyatimizda yangilik edi. Bu g'oyalar ifoda usuliga ko'ra, tasavvur kengliklariga yoyilib ketgan vizual tasvir va majoziy obrazlarda o'zini namoyon qildi. Ba'zan ijodkorni tushunish ongdagi assotsiativ, doimiy qolip tushunchalarga qarshi borganda osonlashadi. Aynan, Rauf Parfi she'rlari ham materiya va idrok chegarasi – tasavvurdagi chegarasizlik bilan kontrast holatiga kelganda yaxshiroq anglanadi.

Adabiyotlar tahlili (Literature review). Rauf Parfi ijodi o'z davrida ham, shoir vafotidan keyin ham shoirlar, yozuvchilar, olimlar tomonidan e'tirof etilgan va tadqiq etib kelingan. Asqad Muxtor, Shukrullo, Mirzo Kenjabek, Xurshid Davron, Usmon Azim, O'roz Haydar, Behzod Fazliddin, Nazar Eshonqul, Bahrom Ro'zimuhammad kabi shoir va yozuvchilar Rauf Parfining she'rlarini turli rakurslarda tahlil etdilar. D.Quronov Y.Qosim, Q.Yo'lchiyev, O.Oltinbek, Sh.Qurbon, N.Rahimjonov, B.Qosimov, O.Fayzullayeva, Q.Yo'ldoshev, I.G'aniyev, O.Norov kabi adabiyotshunos olimlarimiz tomonidan shoir ijodi chuqur o'rganilib, ilmiy maqolalar va tadqiqot ishlari yaratildi. Biz Rauf Parfining ijodiga doir ko'plab ilmiy

adabiyotlar, maqolalar, tashbehtar-u tahlillar bilan tanishar ekanmiz, shoirning ijodini tahlil etishga jazm etgan har bir adabiyotshunos o'z yondashuvi doimo nimasi bilandir "yetarli" emasligini his etganiga ishonchimiz komil. Chunki shoirning erkin ruhini, uning isyonkor satrlarini mohiyat talabida to'liq tahlil etmoq imkonsizdir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqolada shoir she'rlari germeneytik, qiyosiy-tipologik va psixologik tahlil metodlaridan foydalangan holda tadqiq etildi.

Natijalar va muhokama (Result and Discussions). Rauf Parfi o'z she'rlarida noyob vizual tasvirlarni yaratdiki, "unda (Rauf Parfida – B. F.) har bir fikrning o'z rangi bor, ohang, bo'yog'i bor. Fikr plastikasi rang va harakat plastikasi bilan qo'shib ketadi".[2;4] Aynan shunday sintez jarayoni shoir ijodida vizual tasvirning bir necha ko'rinishlarini tahlil etish imkonini beradi. Birinchisi, tabiat tasvirining inson ruhiyatiga qorishiq holatidir.

KO'ZLARING SO'QIRMI, TUN, NIMA BO'LDI?

Bu holda bironni bosib olasan.

Mana, gugurt yondirib ol ko'zingni. [5;156]

Vizuallik, asosan, ong va ong ostida kechadigan jarayon hisoblanadi. Shu sababli har bir insonning ong ostida vizuallashtirish jarayoni turlicha kechadi. Bunga ta'sir etuvchi dastlabki omil – inson ruhiy holatidir. Mohiyatni inson shuuri qabul qilgan tasvir orqali anglash, asosiy g'oyadan butunlay uzoqlashish emas, balki unga qasddan yo'naltirilganlikni nazarda tutadi. So'qirlik inson tanasida aks etadi, uning tunga yo'naltirilishi ongdagi "mavjudlik qonuniyati" haqidagi tasavvurni buzadi. Endi, tun "tabiat hodisasi" maqomidan chiqadi. Tun – "so'qir odam" sifatida vizuallashti. Bu holatida u bironni bosib olishi mumkin. Ayni shu nuqtada shoirning "Nima bo'ldi?", – degan savoli muhim rol o'ynaydi. Shoir tomonidan yaratilayotgan voqeyiy vizuallik o'quvchi tomonidan xayol sathida idrok etiladi. Xayol sathidagi obyekt tasviri ong ostiga qanday tushib borish jarayonini to'g'ri baholash uchun Z.Freydning xayol tushunchasiga munosabatini ko'rib chiqishimiz joiz. " Xayolning vaqt bilan aloqasi juda tig'iz. Bunday deyishimizga sabab shuki, xayol har uch zamoni qamrab oladi; 1) u kishida biror bir istakni uyg'otishga qodir jonli taassurot, hozirgi zamonga tegishli sababdan boshlanadi; 2) so'ngra esa shu yoki shunga o'xshash istak ro'yobga oshgan o'tkan zamon, aksariyat, bolalik kechinmalari sari qaytadi; 3) nihoyat, hozirgi zamonga tegishli sabab va o'tkan zamonga tegishli xotiraga mos tushuvchi kelgusi zamonga doir vaziyat yaratiladi. Shunday qilib, o'tmish, hozir va kelajak birgina istak ipiga saf bo'lib tiziladi".[12;73] Shoirning ijodiy ongida qurilgan tasvirlar o'quvchining xayol olamiga uzatiladi. Bunda shoirning ijodiy niyati hech bir zamon sathida turmasligi, aksincha syurreal mavhumlik maydonida o'ziga xos voqealar zanjirini hosil qilishi mumkin. O'quvchi

idroki esa she'ning mohiyatini osonroq anglash uchun xayol maydonida ish ko'radi. Ong ostida shoir tajribasi va o'quvchi idroki birlashishi uchun xayolda ma'lum bir zamon tanlab olinishi kerak. Tanlovda qaysi zamonning ustun kelishi, tasvirni qabul qiluvchining xotira uzvlariga bog'liq. Unutish xotiraning asl mohiyati ekanligini hisobga olsak, qabul qiluvchi "nima bo'ldi?" savoliga o'tgan zamonda javob qidirishga urinadi. Demak, "tunning so'qirligi" qandaydir sabab – voqelik bilan bog'liq. So'ngra shoir muammoga ajoyib yechim beradi: "Mana, gugurt yondirib ol ko'zingni". "Narsalarning o'ziga qaytish harakati – uslubiy yo'q qilish yordamida yashiringan biror narsani chiqarishdir", – deb yozadi Pol Rikur. Shoir nega tuning ko'zlariga nurni gugurt orqali qaytarmoqchi? Bu mumkinmi o'zi? Ongsizlik maydonidagi bo'shliqlar ijod va fantaziya orqali to'ldiriladi. Idrok qonuniyatlariga ko'ra insonning ko'z nuri yo'qotilsa, asl holiga to'liq qaytmaydi. Ammo tasavvur olamida chegara yo'qki, "narsalarning o'z tabiatiga qaytish" hodisasi kabi olov taqriban nurning o'rniga xossalanmoqda.

Rauf Parfi ijodidagi tasvirlarning g'ayrioddiylik obrazlarning sirliligi bilan mukammal uyg'unlashadi. Ba'zi she'rlarda shoir nazari ma'lum bir lahzada qotib qolganga o'xshaydi. O'sha lahzani vaqtning chegarasidan tasavvur maydoniga olib chiqadi. Shunda bu lahzani yillarga cho'zish mumkin yoki u "lahzalik" maqomidan ketib, "holat" sathiga o'tadi. "Holat" da esa ma'lum bir voqelik mujassamlashadi.

*Xayrlashdik... o'ynar kapalak...
Biz asir bo'lmadik lahzaga.
Xayrlashdik beso'z, beyurak,
Bu bog', bu gul keldi larzaga.
Shabnamning sof qadahi sindi...
Kulimizni sovurdi falak –*

*Sen mendan ayrilding, men sendan.
O'yin tushar rangin kapalak.
O'ynar, o'ynar, o'ynar kapalak.
Bir lahzaning farmoni qoldi.
Xayrlashdik. Beso'z. Beyurak.
Buyuk sevgi armoni qoldi...
Qanday go'zal, rangin kapalak... [11;18]*

Rauf Parfining ushbu she'ri "Xotiro" kitobiga "Rondel" nomi bilan kiritilgan. Rondel – o'rta asrlarda fransuz she'riyatida paydo bo'lgan she'riy shakl bo'lib, 13 misradan tashkil topadi. Qofiyalanishi a-b-v-b, a-b-v-b, a-b-v-b, c. Eng mashhur rondellarni fransuz shoiri Orleanlik Karl yaratgan. Rauf Parfining ushbu she'ri qofiyalanish va mavzu jihatidan rondel she'r shakli talablariga mos keladi. Endi she'rdagi vizual tasvir va vizual obraz tahliliga o'tamiz. Eng avvalo, biz "xayrlashuv lahzasiga" emas, "xayrlashuv holatiga" diqqat qaratamiz. Bu xayrlashuv holatining o'ziga xos ssenariysida ikki oshiq va rangin kapalak obrazi mavjud. Borliq va voqelikning shuurimizdagi uyg'unlashuvi materiyadan tashqarida sodir bo'ladi. Ijodkor uzatayotgan tasvir o'quvchi tomonidan qabul qilinganda birlashish ong osti

oqimida sodir bo‘ladi. Qabul qiluvchining ongi “holat”ga dastlab, baholovchi nuqtayi nazari bilan yondashadi. Agar ongda “ayriliq”, “armon”, “iztirob”, “mahrumlik” ma’nolari ustun kelsa, baho – xafalik hissi bo‘ladi. Aksincha, ongda “buyuk muhabbat”, “romantik lahza”, “totli hijron”, “go‘zal tabiat” ma’nolari bo‘rtib tursa, baho – oshiqlik hissiga urg‘ulanadi. Baholashning “xafalik” yoki “oshiqlik” yo‘nalishidan qay biri ustun kelsa, she’rni tushunishdagi fikr oqimi shundan boradi. Vizual tasvirning tabiati ham “xafalik” yoki “oshiqlik” ma’nolariga uyg‘unlashadi. Xafalik hissida kapalakning raqsi mahzundur. Oshiqlikda esa kapalakning raqsi go‘zal va muhtasham. Xafalikda kapalakning qanotlari vido aytib parvoz qilsa, oshiqlikda kapalak ishq izhor etib, o‘yinga tushadi. Ong osti xulosasi bevosita qalbga ko‘chadi, chunki shaxsning individualligini uning hislari belgilaydi. Ong ostining xafalik xulosasidan kelib chiqsak, qalbning holati siniq va gul kabi larzaga kelgan. Xayrlashuv esa iztirobli. Obrazlarning hissiy manzarasi – fojeiy. Oshiqlik xulosasi – vizuallashuv jarayonidagi tasvir va obrazlarga boshqa hissiy ssenariyni beradi. Bunda qalbning holati fuzunli va ta’sirchan. Ayriliq esa totli.

Ong va idrok narsalarga, shaxslarga va voqealarga mazmun beradi. Syurrealistlar ijodni xotiradan ajratib qo‘yadilar. Bu ijod taqliddan iborat bo‘lmasligi zarurligini isbotlashga urinishdir. Ammo har qanday ijodkor o‘z ijodiy mantig‘i bilan o‘zini o‘rab turgan materiyani inkor eta olmaydi. Hayot falsafasini ongsizlik oqimida tasvirlash vizual obrazga yangi formatdagi hissiy voqeyilikni beradi. Bunda biz idrok etishga o‘rgangan odatiy hodisalar noodatiy shakllarga aylanadi. Abstrakt oqim tarafdorlari voqelikning vizuallashuvi ijodkor va muxlis ongida bir xil kechmasligini ta’kidlaydilar. Ammo maqsad vositani oqalaydi, taomiliga ko‘ra yondashilsa, bu kutilgan hodisaga aylanadi. Rauf Parfi ijodidagi “Bo‘g‘zimga tiqilib tirnar // Kuyib ketgan yurakning hidi”, “Seni oq qildim dedi Dunyo, // Oqardim, oqarib ketdim”, “Ko‘zimga bir yulduz yiqildi, // Eridi, aylandi bir toshga”, “Borliq yonsa, quyosh aylansa kulga, // Yulduzlarni tugma kabi yulsalar”, “Barchada nimadir bor axir. Bor. Bor. // Hech narsa yo‘q menda esa, hech narsa”, “Yashil daraxtzorni yechintirar kuz, // Poyimda bahorning alvido uni”, “Tanizorim igna uchinda // Ko‘zlarimda porlar qora nur”, “Tajang kezar qubbalar tepasida // Temurning cho‘zilgan arvohi – bulut”, “Quyoshning yog‘dusi qoradir, // Yulduzlar muzlardir to‘kilgan” kabi satrlarda rang-barang vizual tasvirlarni tahlil etishimiz mumkin. Albatta, shoirning she’riyati faqatgina “men”ning holatlarini aks ettirmaydi. Rauf Parfining she’rlaridagi ijtimoiy omillar bevosita erk hissi bilan chambarchas bog‘liq. Shoir Vatani uchun yongan qalbini tabiat tasviri bilan chuqurroq ifoda eta oladi. “Qora quyosh, singan osmon, yulingan yulduzlar, qora nur, arvoh bulut, sho‘rpehona ishq, dovdur hayot, xafa kecha, horg‘in tuman kabi metaforalar ijodkorning ongida g‘ujg‘on aylanayotgan o‘ylar aksi o‘laroq yaralgan. Rauf Parfi ijodi vizual she’riyatga daxldor ekanligining

muhim belgisi shundaki, shoir badiiy tafakkurdagi stereotip – qotib qolgan tushunchalarni sindirdi. Bu bilan idrokdan tashqari tasavvur kengliklariga ham yo'l ochdi. San'at asarlarida ijtimoiy-falsafiy g'oyalar umumbashariy ahamiyat kasb etib, ma'lum doiralar uchun xoslanmaydi. Rauf Parfi she'riyati ham inson ruhiyatining chuqur talqinlarini yaratdi va barcha ong egalari uchun o'zligini anglash imkoniyatini berdi.

Xulosa (Conclusion). Rauf Parfini anglash ehtiyoji zamonlar osha ortib, kengayib, yangicha mazmun kashf etib bormoqda. Shoir she'rni, ijodni, san'atni qalbdagi iymonga bog'lab, shunday deydi: "Har bir odamning Allohga murojaat qiladigan pok bir makoni, joynamozi bo'lishi lozim. Oq qog'oz – shoirning joynamozi. Oq qog'ozi bo'lmagan shoir iymonidan ayriladi, Allohni unutadi. San'atning barcha turlari: musiqami, rassomlikmi, shoirlikmi – barchasi Allohga munojot shaklidir. She'r yozish poklanish degani. Poklanishga doim tayyorman". [3;83] O'ylaymizki, Rauf Parfi bitgan har bir she'r o'z mohiyati bilan o'quvchining qalbida oliy ishqqa darcha ochadi va bu darchadan kirgan muhabbat epkinlari uning ham ruhini poklaydi. Shoirning komillikka yetishish yo'lida o'z-o'zini anglash usuli, erkka talpinish kuchi, butun qalbini egallagan vatanga muhabbati har bir she'riyat muxlisi qalbiga cheksiz savollar va salmoqli javoblar bilan kirib boraveradi.

Adabiyotlar

1. Asqad Muxtor Rauf Parfi. Sharq yulduzi, 1966. №1. – B.137.
2. Behzod Fazliddin So'z saltanati. <https://kh-davron.uz>
3. Fayzullayeva O. *Hozirgi o'zbek she'riyatida sonet (monografiya)*. – T.: Turon zamin ziyo, 2014. – B.83.
4. G'aniyev I. Rauf Parfi O'z turk dunyosi. – T.: Muharrir, 2021 – B.639.
5. Parfi R. Iymon asiri. – T.: Akademnashr, 2023. – B.156.
6. Qosimov B. *Adabiy-tarixiy jarayon (3-jild)*. – T.: O'qituvchi, 2017. – B.57.
7. Rahimjonov N. Daryo mavjlariga yozilmish g'azal. Jahon adabiyoti, 2011. №11. – B.150.
8. Sodiqov B. Ko'zlardagi dunyo/O'zbek adabiy tanqidi. – T.: Turon-iqbol, 2011 – B.455.
9. Tojiyev X., Fayzullayeva O. Rauf Parfi ijodida sonnet. Sharq yulduzi, 2016. №4 – B.42.
10. Yuldosheva U. Fikrlar tasviri. So'z san'ati, 2021. №3 – B.130-137.
11. Парфи Р. Хотирот. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1975. – Б.18.
12. Фрейд З. Санъаткор ва хаёлпарастлик. Тафаккур. – 2006. № 1. – Б.73.

МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ НА МАТЕРИАЛЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В. М. ШУКШИНА

Каримов Б.П.,

преподаватель кафедры западных языков университета Турон

Аннотация. Статья посвящена обучению русскому языку на материале произведений В.М. Шукшина. В ней рассматриваются методы и приемы использования произведений В. М. Шукшина в обучении русскому языку узбекских школьников. Очень большое внимание уделяется лингвострановедческому материалу.

Ключевые слова: изучение, местная топонимика, диалект, особенность, русский язык, произведение, русский автор, регион, творческий, концепт, среда, обычай, край, история.

Annotatsiya. Makolada V. M. Shukshin asarlaridan uzbek ukuvchilarni rus tilini ukitish muammosi kurib chikilgan. Bunda Shukshin asarlarida ishlatilgan ulkashunoslikka oid leksik-grammatik materiallarga e'tibor berilgan.

Kalit so'zlar: o'rganish, mahalliy toponimika, dialekt, xususiyat, rus tili, asarlar, rus muallifi, mintaqa, ijodiy, kontseptsiya, atrof-muhit, odat, chekka, tarix.

Введение (Introduction). Обучение русскому языку в связи с демократизацией общества позволило преподавателю получить большую свободу в выборе методов, приемов и средств обучения, что дает ему возможность освободиться от некоторых условностей и стимулирует творческий поиск. Лингвокраеведческий материал способствует формированию следующий минимум знаний и умений школьников:

- уметь анализировать лингвокраеведческую речевую среду, оценивать факты речи местных писателей;
- иметь представление о языке как культурно-исторической среде, воплощающей в себе историю, обычаи, традиции края;
- уметь анализировать региональные проблемы (политические, социальные, культурные).

Обзор литературы. (Literature review). Лингвокраеведческий материал способствует формированию следующий минимум знаний и умений школьников: - уметь анализировать лингвокраеведческую речевую среду, оценивать факты речи местных писателей; -иметь представление о языке как культурно-исторической среде, воплощающей в себе историю, обычаи, традиции края; -уметь анализировать региональные проблемы (политические, социальные, культурные). Включение

лингвокраеведческого материала в учебный процесс предлагает использование следующих методов обучения: -включение страноведческого материала в уроки лексики, фонетики и орфоэпии, словообразования, грамматики (задания и упражнения по культуре речи); - анализ дидактического языкового материала – отрывков из произведений В.М. Шукшина; - предполагает возможность интегрированных уроков, уроков-экскурсий, ролевых игр, творческих конкурсов, уроков – путешествий и т.д.

Включение лингвокраеведческого материала в учебный процесс предлагает использование следующих **методов обучения (Research Methodology)**:

- включение местного материала в уроки лексики, фонетики и орфоэпии, словообразования, грамматики (задания и упражнения по культуре речи);
- анализ дидактического языкового материала – отрывков из произведений местных поэтов и писателей;
- предполагает возможность интегрированных уроков, уроков-экскурсий, ролевых игр, творческих конкурсов, уроков – путешествий и т.д.

Дидактический потенциал краеведения заключается в том, что он позволяет учитывать своеобразие русской жизни, ее отличие от языка и культуры родного языка и культуры узбекского народа. Знакомство с материальной и духовной культурой русского народа, познание Севера России, ее природы и т.п. способствует осознанному усвоению учащимися учебного материала, конкретизируя его; позволяет вести учащихся от близких, доступных непосредственному наблюдению фактов и явлений, к глубоким выводам и обобщениям; активизирует мыслительную деятельность учащихся и т.д.

Формирование культуроведческой компетенции опирается на взаимосвязи отношений между языком и культурой, людьми и историей.

Поскольку особенности психологии, и национальная специфика узбекских учащихся не позволяют говорить о знаниях по русскому языку на должном уровне, то в данный период обучения актуальность приобретает работа по формированию культуроведческих знаний на русском языке.

К традиционным приемам формирования культуроведческих знаний в узбекской школе на уроках русского языка является следующее:

- широкое использование в качестве дидактического материала разных групп слов с национально-культурным компонентом значения;
- изучение фразеологизмов, пословиц и поговорок;
- привлечение текстовых материалов, которые содержат информацию о культурно-историческом наследии народа.

Включение лингвокраеведческого материала в школьную практику обучения языку может осуществляться двумя путями: во-первых, непосредственно на уроках

при изучении тематики общеобразовательной программы; во-вторых, на занятиях кружка или факультатива.

Содержательная сторона урока и внеклассной работы должна учитывать региональную специфику материала:

Этнокультуроведческий подход в преподавании русского языка в узбекской школе является ведущим в обучении языку, так как представляет тематические группы, где показана роль лексики и фразеологии.

В нашей работе представлена система работы с этнокультуроведческой группой лексики:

- наименования крестьянской утвари (печь, сундук, икона).
- названия транспортных средств и средств передвижения (тройка, сани, повозка).
- наименования продуктов питания и традиционных русских блюд (сбитень, расстегай, щи, водка, чай, блины).
- названия сословий и ремесел (председатель, крестьянин, судья, охотник).
- названия музыкальных инструментов (гармонь, гусли, балалайка).
- названия музыкальных форм, исполнителей и танцев (частушка, запевала, хоровод, песенник).
- жанры устного народного творчества (загадка, сказка, пословица, поговорка).
- слова из фольклора (травушка-муравушка, красна девица, младешенька).
- формы речевого этикета (батенька, матушка, братишка, сестренка, бабушка).
- параметрическая лексика (вершок, пядь, сажень, аршин, верста, фунт, пуд, золотник).
- названия архитектурных сооружений и их частей (деревянные дома, терем, хоромы, палата, светлица, изба).
- праздники и связанные с ними обычаи и обряды (Рождество, Крещение, Масленица, Прощеное воскресенье).

Обсуждение результатов (Result and Discussions). В работе большое внимание было обращено на важность лингвокультуроведческого комментария, так как каждое слово - отражение и факт истории, и требует особого внимания. Цель изучения этнокультуроведческой лексики – повышение речевой культуры школьников, создание условий для выработки навыков самостоятельной работы, отбор и употребление языковых средств в устной и письменной речи, формирование интереса к языку.

Система словарной работы ориентировано на то, чтобы слово было правильно воспринято в тексте, усвоено и воспроизводилось школьниками применительно к конкретной ситуации.

Перечислим систему работ с лингвистическим материалом:

1. Работа над лексическим значением слова:

- прием развернутого толкования слов: Святки – праздничные дни – промежуток времени от рождества до Крещения;
- прием показа лексической сочетаемости: сельская жизнь, большая двухэтажная хоромина, грандиозное движение;
- подбор синонимов: очи – глаза, щеки- ланиты и т. п.
- составление словаря этнокультуроведческой лексики по тематическому признаку;

2. Работа с текстами, содержащими этнокультуроведческую лексику.

При изучении диалектизмов мы пользовались материалом из произведений писателей В.Шукшина. В процессе знакомства с макротопонимами в узбекской школе можно предложить школьникам работу со словарем. Из школьного топонимического словаря Е.М. Поспелова нужно будет выписать историю возникновения некоторых макротопонимов в специальную тетрадь.

При этом, задачей нашего обучения было то, чтобы сформировать у учащихся представление о литературном языке и диалекте как об уровнях русского национального языка. Учащиеся должны были получить представление о диалекте как о части русского национального языка, имеющей право на существование и использование в определенной речевой ситуации. Констатация фактов позволяет дифференцировать несколько моментов уместного употребления диалектных явлений в речевой деятельности русского народа:

- устная речь в условиях бытового общения с носителями говора;
- обозначение этнических реалий, не имеющих эквивалентов в литературном языке;
- творческая работа (например, сочинение на материале рассказов Шукшина);
- анализ художественного произведения на материале рассказов Шукшина, в процессе которого на уровне восприятия происходит обучение использованию явлений диалекта как средства выразительности речи.

Одним из важнейших аспектом развития речи учащихся узбекских школ является обогащение словарного запаса. Поэтому лексическая работа заслуживает не меньше внимания, чем грамматико-орфографическая, так как она нужна и для формирования речевых навыков, и для умственного развития, и для понимания многих грамматических явлений. Работая над отбором такого материала, мы остановили свой отбор лексики, которой пользовался в своем творчестве Василий Макаревич Шукшин. С целью выразить стремление видеть мир в многообразии национальные и социально-психологические типы, внимание к культурной и нравственной дифференциации современного общества, отражающей сложность

происходящих жизненных процессов, Василий Макаревич в своем творчестве умело использовал лексику и фразеологию современного русского языка. Он мог уместно употребить просторечные слова, вроде шайка, горница, охламон, полати. В тексте можно найти выражения, фразы, которые присущи письму Шукшина: «хочу крестьянствую, хочу хвост дудкой», «наговорил сорок бочек», «дым коромыслом», «е-мое», «ни сном, ни духом», «хоть матушку - репку пой», «ядрена мать», «шел я лесом - просекой», «пятый угол искать», «как собаке пятая нога», «елкина мать», «чудак человек», «пришей - пристебай», «даю голову на отсечение», «кишмя кишело», «рубаха - перемываха», «баш на баш», «хватил лишка», «взятки гладки», «ушки топориком», «кудыкина гора» и многие другие.

Очень самобытно использована деревенская лексика Василий Макаревич Шукшиным в книгах ("Сельские жители", "Любавины", "Я пришел дать вам волю" и другие). Его своеобразное творчество привлекало, и будет привлекать сотни тысяч читателей не только в России, но и в Узбекистане. Ведь редко можно встретить такого мастера народного слова, такого искреннего почитателя родной земли, каким был этот выдающийся писатель. В рассказах, романах и фильмах Василия Шукшина постоянно встречаешь народную песню, частушку. Музыка к его фильмам создана на мелодии песен, звучавших на его родине, в Сростках. Герои Шукшина очень песенные люди. А разве может быть иначе? Какие только песни они не поют! И торжественные: «Врагу не сдастся наш гордый «Варяг»...» И народные, грустные, задумчивые: «По диким степям Забайкалья», «Не вейтесь, чайки, над морем, вам некуда, бедненьким, сесть...», «Сронила колечко со правой руки», «То не ветер ветку клонит», «Отец мой был природный пахарь» и многие другие. А уж, какие частушки веселые да залихватские:

Истопила мама баню,
Посылает париться.
Мне, мамаша, не до бани -
Миленький венчается...

На основе данного текста можно предложить задания по его содержанию:

- О чем этот текст?
 - Как можно его озаглавить?
 - Что было самым главным в творчестве Шукшина?
 - Что относится к этнокультурной лексике?
 - Как передает Шукшин сложность происходящих жизненных процессов в деревне? И почему этот жанр деревенский?
 - Какие лингвистические средства использует Шукшин в своем творчестве?
- Затем в связи с изучаемой учебной темой урока ребята могут выполнить следующие грамматические задания:

- назовите существительные,
- выделите окончания,
- укажите род, число, определите склонение,
- от существительных деревня, творчество образуйте однокоренные слова.

Кроме этого учащиеся выполняют и лексические задания:

- объясните смысл частушки, употребленной в тексте;
- объясните значение слов шайка, горница, охламон, полати;
- составьте предложения с данными словами;
- объясните значение фразеологизмов: «пятый угол искать», «как собаке пятая нога», «елкина мать»;
- составьте предложения с этими оборотами.

Выводы. Работа с лингвокраеведческим текстом открывает возможность для осуществления функционального подхода при изучении лексики, морфологии, синтаксиса, способствует формированию целостного представления у узбекских школьников о языковой системе, развивает языковую и речевую компетенцию учащихся. Преимущество малых текстов состоит в том, что они могут быть использованы оперативно, в соответствии с грамматико – орфографическими темами уроков русского языка, сочетая в себе задачи обучения и развития речи узбекских школьников.

Упражнения, построенные на малом тексте, позволяют рассмотреть функцию языкового явления, структуру текста, семантику слов. При планировании уроков важно определение заданий к текстам и четкую последовательность их выполнения.

Упражнения, предлагаемые на основе лингвокраеведческих текстов, могут иметь различную методическую направленность и различные формы работы. К ним относятся:

- а) комментированное письмо или письмо по памяти;
- б) объяснительный или выборочный диктант;
- в) свободный диктант или изложение;
- г) редактирование текста или восстановление его по опорным словам;
- д) сюжетная игра и игра соревнование.

В сюжетной игре инсценируются условия воображаемой ситуации, а учащиеся играют определенные роли. Ими могут быть, к примеру, ситуации из произведений Шукшина или же из его экранизации. Учащимся предлагаются разные роли из рассказов «Сельские жители».

Выразительное чтение отрывка из художественного произведения, наблюдение над содержанием текста и особенностями использования языковых средств, выполнение грамматико - орфографических заданий, соответствующих учебной теме урока, – создает на уроке ту речевую среду, которая становится

естественной для учащихся и способствует развитию всех видов речевой деятельности: говорение, слушание, чтение, письмо. А это в свою очередь активизирует учебный словарь узбекских школьников.

Литература:

- 1.Верецагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура: лингвострановедение в преподавании русского как иностранного. 3-е изд. М., 1993.-159с.
- 2.Горн В. Василий Шукшин. Штрихи к портрету. – М., 1993-29с.
- 3..Рождественская Р.Л., Туралина Н.А. Формирование этнокультурной идентификации школьников на уроках русского языка // Проблемы этнокультуры. М.: ВИТА-ПРЕСС, 2015.68с.
- 4.Сысоев П.В. Язык и культура: в поисках нового направления в преподавании культуры страны изучаемого языка.// Иностранные языки в школе. №4, 2001-С16-21.
- 5.Томахин Г.Д. Лингвострановедение: что это такое?// Иностранные языки в школе. №6, 1996, с. 22-27

OLIV TA'LIM TIZIMIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHGA DOIR MEYORIY-HUQUQIY HUIJATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Ostanov Akmal Yoriyevich

Turon universiteti Iqtisodiyot va xorijiy mamlakatlar

iqtisodiyoti kafedrası v.b. dotsenti

[*akmal.ostanov@gmail.com*](mailto:akmal.ostanov@gmail.com)

Annotatsiya. Ma'lumki, jahonda bugungi kunda, ilm-fan rivojlangan, raqamli iqtisodiyot amaliyotga keng kirib borayotgan, axborot texnologiyalari barcha sohani qamrab olgan, raqobat rivojlanib borayotgan hozirgi zamonaviy bozor iqtisodiyotida inson resurslaridan samarali foydalanishning ahamiyati ham tobora oshib bormoqda. Ayniqsa, bugungi kunda oliy ta'lim tizimida inson resurslari tarkibi va dinamikasini yaxshilashni boshqarishga doir joriy meyoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish va ulardan ta'lim tizimini isloh qilishda samarali foydalanish vazifalari o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Shu boisdan, ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida inson resurslarini boshqarishga doir joriy etilgan meyoriy-huquqiy hujjatlar tahlil etilgan, bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganilib, ulardan samarali foydalanish yo'llari bo'yicha ko'rsatmalar va ularni takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch tushunchalar: inson resurslari, oliy ta'lim tizimi, meyoriy-huquqiy hujjatlar, ishchi kuchi, mehnat bozori, kadrlar, xizmatlar bozori, raqobat, bozor iqtisodiyoti, korxonalar va tashkilotlar, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalar, intellektual salohiyatli.

Annotation. The importance of efficient use of human resources is growing in today's modern market economy, where science is advanced, the digital economy is becoming more widespread, information technology is covering all areas, and competition is developing. Especially relevant today is the task of improving the current regulatory documents on improving the structure and dynamics of human resources in the higher education system and their effective use in the reform of the education system.

The article analyzes the tasks of improving the current regulatory documents on human resource management in the higher education system, as well as studies foreign experience in this area and develops practical recommendations for improving these documents.

Key words: human resources, higher education system, regulatory documents, labor force, labor market, personnel, services market, competition,

market economy, enterprises and organizations, socio-economic structures, intellectual potential.

Kirish. Ma'lumki, bugungi kunda tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan O'zbekiston o'zining yangi taraqqiyot bosqichida samarali islohotlarni amalga oshirmoqda. Xususan, Oliy ta'lim tizimida inson resurslari boshqarishga doir joriy meyoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish vazifasi shular jumlasidan bo'lib, o'z dolzarbligicha qolmoqda. Shuningdek, globallashuv jarayonlarining kengayishi dunyoda yagona jahon bozorining shakllanishiga zamin yaratdi. Shu sababli, aytish joizki, globallashuvning keng quloq yoyishining muhim belgilari inson resurslari bilan ta'minlash sohasida raqobatning kuchayishi, inson kapitalini, iste'dodlarni va intellektual salohiyatini boshqarish zarurati bilan belgilanmoqda. Shu nuqtai nazardan, inson resurslarini boshqarish izchillikda amalga oshiriladigan, mantiqiy asoslangan, tashkilotning o'ziga xos resurslarga ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlar sifatida izlash, tanlash, rivojlantirish, o'qitish, baholash, attestatsiya qilish, motivatsiyalash, mehnatni rag'batlantirish, tashkiliy rivojlantirish va karyerani boshqarish vositasida amalga oshiriladigan jarayonlardir. Buning uchun esa, «tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak», -deb alohida ta'kidlaydi, davlat rahbari Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga qilgan murojaatnomasida.

Darhaqiqat, aytish joizki, inson rusursi – bu inson ega bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlar yig'indisigina emas, balki u: birinchidan, to'plangan bilim, malaka va qobiliyatlar zaxirasi bilan o'lchanadi. Ikkinchidan, bu shunday zaxiraki, u yoki boshqa bir muhitda inson tomonidan ijtimoiy qayta ishlashga sarflanadi va mehnat unumdorligi hamda ishlab chiqarishning o'sishiga zamin yaratadi. Uchinchidan, to'plangan bilim, ko'nikma va qobiliyatlar zaxirasining maqsadga muvofiq ishlatilishi faoliyatning yuqori unumdorligida ishchi ish haqining o'sishiga olib keladi. To'rtinchidan, esa daromadning oshishi insonni rag'batlantiradi va qiziqtiradi hamda yangi bilim va ko'nikmalar zaxirasini to'plab, kelajakda unumli qo'llashga sabab bo'ladi, hamda farovon yashashiga imkon tug'diradi.

Zero, bugungi kunda mamlakatimizda inson resurslarini boshqarish va ularning manfaatlarini har tomonlama huquqiy himoya qilishga alohida e'tibor berilmoqda hamda qator maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari: “Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda

bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”, deb alohida ta’kidlaydi. Shu bois, mamlakatimizda “mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash” ijtimoiy inson kapitalidan unumli foydalanishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Maqsad va vazifa. Oliy ta’lim tizimida inson resurslari boshqarishga doir joriy meyoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish nazarda tutilgan:

- oliy ta’lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishning nazariy asoslarini tadqiq etish;

- oliy ta’lim tizimida inson resurslarini boshqarishga qo‘yiladigan asosiy talablarni tahlil qilish;

- oliy ta’lim tizimida inson resurslari boshqarishga doir joriy meyoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishning yangicha mexanizmlarini tadqiq etish;

- oliy ta’lim tizimida inson resurslari boshqarishga doir joriy meyoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishning axamiyati, uning samarali shakllari va yo‘llarini tahlil qilish.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani nashrga tayyorlashda, ilmiy manbalardan foydalanishda, materiallarni turkimlashtirishda va mustaqil xulosalarni umumlashtirish jarayonida hamda rivojlangan mamlakatlarda mehnat va oliy ta’lim xizmatlar bozorlarini o‘zaro aloqasini modellarini tahlil qilish, statistik, solishtirma, empirik, tarixiylik, tanqidiylik, analiz, sintez metodlaridan foydalanildi. Maqolaning metodologik asosini O‘zbekiston Respublikasi Prezident Sh.M.Mirziyoyev asarlari, Farmonlari, davlatimiz rahbarining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida bayon qilingan kontseptual g‘oyalar tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta’lim tizimini kontseptual islox etish va inson resurslari samaradorligini oshirishga oid bag‘ishlangan Qarorlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek mamlakatimiz olimlarning iqtisodiy qarashlari, fikrlarini tahlil qilish, mustaqil xulosalar chiqarish uchun, inson resurslarini samarali boshqarishga bag‘ishlangan monografik tadqiqotlar, respublika mashtabida o‘tkazilgan ilmiy amaliy konferentsiyalar materiallari, ilmiy maqolalar, xorijlik olimlar arasarlaridan foydalanildi. Ushbu sohaga tegishli bo‘lgan qarashlarini umumlashtirish maqsadida, ushbu fenomen tadqiqiga bag‘ishlangan, nufuzli jurnallarda e‘lon qilingan maqolalar ilmiy manba sifatida olindi. Shuningdek jamiyat taraqqiyotining yangi davrida ommaviy axborot vositalari, jumladan internetda e‘lon qilinayotgan, inson resurslari samaradorligini

oshirish mazmunini ochib berishga qaratilgan fikrlar, O‘zbekistonlik va xorijdagi iqtisodchilarning mulohazalaridan foydalanildi.

Natijalar va mulohaza. Ushbu maqolada mavzuning dolzarbligini asoslash va ijtimoiy ahamiyatini baholashda Respublikamiz oliy ta’lim tizimida inson resurslari boshqarishga doir joriy meyoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda, oliy ta’lim muassasalarini samarali boshqarish, ta’lim sifatini oshirish, oliy ta’limda rahbar kadrlar kasbiy malakasini shakllantirish hamda ulardan inson resurslaridan samarali foydalanish yo‘llarini ishlab chiqishda qo‘llash mumkinligi bilan ahamiyatlidir. Shu boisdan, oliy ta’lim tizimida inson resurslarini boshqarishning samarali mexanizmlarini shakllantirishning asoslarini yaratish masalalarining tahlili, bu jarayonda oliy ta’lim muassasalari rahbar kadrlari malakasini takomillashtirishga asos bo‘luvchi tashkiliy, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda, bu boradagi ishlarni rejalashtirish, uni amalga oshirish, hamda nazorat etishda foydalanilishi mumkin.

Shuningdek, maqolani tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, ma’ruzalari, nutqlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlaridan foydalanildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi Farmoni bilan tasdiqlangan “Harakatlar strategiyasi”ning uchinchi va to‘rtinchi: “iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” va “ijtimoiy sohani rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishlari (ta’lim sohasining rivojlantirish” bo‘limi), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga 2017 yil 22 dekabrda, 2018 yil 28 dekabrda va 2020 yil 24 yanvarda, 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar metodologi asos bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, inson resurslarini boshqarish va kadrlarni tayyorlashda samarali usullardan foydalanib kelayotgan xorijiy mamlakatlar tajribasi muhimligi bilan ajralib turadi.

Darhaqiqat, shuni alohida ta’kidlash joizki, bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatlarda oliy malakali mutaxassislarni tayyorlash oliy ta’lim xizmatlari bozorida raqobatni kuchayishiga olib keladi. Shu sababli, raqobat oliy malakali mutaxassislarni tayyorlash sifatiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bu o‘z navbatida oliy malakali raqobatdosh mutaxassislarni tayyorlash uchun umumta’lim tizimini uzluksiz rivojlanishini va malakali mutaxassislarni tayyorlashda shaxsni rivojlantirish konsepsiyasiga o‘tishni talab etadi. Ma’lumotlarda qayd etilishicha, dunyo bo‘yicha oliy ta’limga talab oshib bormoqda, masalan 2000 yil jami 97

million student bo'lgan bo'lsa, 2025 yilga kelib bu ko'rsatkich 262 millionni tashkil qilishi mumkin.

Bu esa, Oliy ta'lim tizimida inson resurslari boshqarishga doir joriy meyoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish orqali ta'lim menejmentini zamonaviylashtirish, ijtimoiy himoyalash, jamiyat a'zolarining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga katta e'tibor qaratish muhimligini ko'rsatadi. Zero, Oliy ta'lim tizimida inson resurslarini boshqarishga doir joriy meyoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirib borish orqali ta'lim tizimini salohiyatini oshirishga, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash samaradorligini oshirishga olib keladi. Shu boisdan, Ўзбекистон Республикасида олий таълимни тизимли ислоҳ qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsad qilib olingan. Bu kabi tajribalarni amaliyotga joriy etish, birinchidan, mamlakatimizda o'tgan yillar davomida to'plagan ilg'or tajribalariga asoslanadigan bo'lsa; ikkinchidan, xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganish va tahlil etish orqali amalga oshirilmoqda.

Xususan, Germaniya, Shvetsiya, Shotlandiya, AQSH kabi ilg'or rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'lim xizmatlari bozori bilan mehnat bozorlarini o'zaro bog'liqlikda rivojlanish modellari mavjudligini ko'rish mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ushbu davlatlarning o'ziga xos betakror modellari mavjud bo'lib, ular bugungi kunda o'z samarasini bermoqda. Jumladan, Shvetsiya mehnat bozori modeli turli ishlab chiqilgan dasturlar asosida talab va taklifni rag'batlantirishga asoslangan bo'lsa, Shotlandiya mehnat bozori modeli mehnat resurslarini ishlab chiqaruvchiga va iste'molchilar o'rtasidagi bo'ladigan ijtimoiy xizmatlarini (Shotlandiya malaka boshqarmasi tomonidan) o'rganib boriladi. Shunisi bilan xarakterliki, Shotlandiya hukumati tomonidan malakaviy boshqarmaga oliy ta'lim xizmatlarini ishlab chiqaruvchilar va iste'molchi xizmatlarini ilmiy o'rgangan holda uni baholaydi va ekspertlar bilan birgalikda ish beruvchilar hamkorligida kasbiy malakalarini belgilash mazmunini va uni baholash usulini ham ishlab chiqish vazifasi yuklatiladi.

Shuningdek, AQSH modeli turli oliy ta'lim xizmatlari va mehnat bozorlarini tartiblash uchun turli dasturlar ishlab chiqadilar (Technical Preparation for a Work-Class Work Force). Ushbu dasturni ijrosini amalga oshirish uchun «Tech Prep» konsorsium tuzilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi kasbiy tayyorgarlikni va ish joylarini imidjini tayyorlash hamda yangi kasbiy mutaxassislar yo'nalishlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. AQShda mehnat munosabatlarini

tartiblash qonunlari yo‘q, lekin ishga yollanuvchi ish beruvchi va kasaba ittifoqi bilan mehnat bitimlari tuziladi. Bandlikni ta‘minlashda AQSH, Angliya, Avstraliya, Kanada, Germaniya, Fillandiya va Yaponiyada davlat xizmati tashkil etilgan. Davlat xizmat tashkilotlarida ish joylarini milliy banklari mavjud bo‘lib, bu bandlik xizmati ish joylarini, kasbiy-psixologik ishsizlar ma‘lumotlarini to‘plash va to‘plangan axborotlarni kompyuter asosida tarqatish vazifalarini amalga oshiradi. Ish bilan ta‘minlash byurolari maxsus terminal orqali bu ma‘lumotlardan foydalanadilar. Bu esa mehnat bozorida malakali kadrlarni yetishtirib chiqishga asos bo‘ladi.

Darvoqe, mutaxassislar fikriga ko‘ra, shuni alohida ta‘kidlash joizki, hozirgi sharoitda asosiy muammo, bu oliy ta‘lim xizmatlari va mehnat bozorlari o‘rtasidagi munosabatlar bozor iqtisodiyotining asosiy iqtisodiy qonuni talab va taklif qonuni talablariga rioya qilmaslik natijasida kelib chiqmoqda.

Shu boisdan, mamlakatimizda yoshlarni xorijiy mamlakatlarda oliy malakali mutaxassis sifatida bilimlarini olish va xorijda ishlashiga hamda oliy ta‘lim tizimini mohiyatini xalqaro sharoitda tushirmaslik yo‘lida milliy oliy ta‘lim tizimini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, respublikamizda oliy ta‘limni jahon oliy ta‘limidan orqada qolmasligi uchun xalqaro oliy ta‘limning ijobiy tajribalaridan unumli foydalanish, shuningdek, ularning tajribalarini qo‘llashda yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini e‘tiborga olish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Xulosa. Xulosa qiladigan bo‘lsak, Oliy ta‘lim tizimini isloh qilishning hozirgi sharoitida oliy ta‘lim muassasalarida o‘z faoliyatini muntazam diversifikatsiyalash va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish borishni taqoza qiladi. Bu esa, Oliy ta‘lim muassasalari xodimlarining inson kapitalini ahamiyatli iqtisodiy resurs sifatida baholab borish vazifasining dolzarbligini ko‘rsatadi.

Shuni alohida ta‘kidlash o‘rinliki, inson kapitali sifatini oshiradigan asosiy tarkibiy qism sifatida ilm-fan va oliy ta‘limga ajratiladigan investitsiyalar bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababli, inson kapitali sifatining past darajadali sharoitida yuqori texnologiyali tarmoqlarga investitsiyalar yuqori samaradorlik keltirmaydi. O‘rganishlar natijasi va tajribalarning ko‘rsatishicha, aholi asosiy ommasining madaniyati va bilimi inson kapitalini shakllantirish uchun asos hisoblanib, eng avvalo, bu oliy ta‘lim tizimida shakllanadi. Buning uchun, Oliy ta‘lim xizmatlari va mehnat bozorlarini o‘zaro bog‘liqlikda rivojlanishini ta‘minlash va meyoriy-huquqiy xujjatlar tizimini takomillashtirish zarur. Shuningdek, mamlakatimizda ta‘lim tizimini mehnat bozori talablariga mos ravishda rivojlantirishda talabalarni malakaviy ko‘nikmalari va amaliy tajribalarini yanada oshirish zarur. Bandlikni ta‘minlashda AQSH, Angliya, Avstraliya, Kanada, Germaniya, Fillandiya

va Yaponiyada mamlakatlari tajribalaridan kelib chiqib davlat xizmati tashkil etish muhim sanaladi.

Shuningdek, mamlakatimizda davlat xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish, texnoparklarni tashkil etish, davlat va tarmoq yoki ish beruvchi korxonalarda malakali xodimlar tomonidan dars o'tishni huquqiy asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847 sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 -yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risi"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoyevning 07.02.2017. PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, O'RQ-637-son-23.09.2020 yil. <https://www.lex.uz>.
4. Shavkat Mirziyoyev: «Demokratik islohotlar yo'li – biz uchun yagona va eng to'g'ri yo'ldir». Prezidentimizning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga MUROJAATNOMASIDAN.28.01.2020.[HTTP://PAXTAKOR29.UZ](http://PAXTAKOR29.UZ) ›
5. Shavkat Mirziyoyev: "Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir" "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. 30- iyun. 2017. <https://uza.uz › posts › zhismo...>
6. Abdurahmonov Q.X. "Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot" / Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. – T.: "FAN", 2019. – 592 b.
7. Ansoff I. Strategicheskiy menedjment. – SPb.: Piter, 2009.
8. Виханский О.С., Наумов А.И. Менеджмент. Учебник для вузов по экон. спетс. и направл. – Трете изд. – М.: Гардарика, 2008.
9. Герцман, М.А. Инновационный менеджмент – М.: 2010. – 482 с.
10. Katsarova I. Higher education in the EU approaches, issues and trends. European Parliamentary Research Service. Members' Research Service March 2015 — PE 554. 169. p 3. <http://www.eprs.ep.parl.union.eu>
11. Мигранова Л.И. Совершенствование механизма взаимодействия рынка труда и рынка образовательных услуг. Институт Государственного управления, права и инновационных технологий (ИГУПИТ) Интернет-журнал «НАУКОВЕДЕНИЕ» №1 2013. 4 с.

AHOLIGA MOLIYAVIY XIZMAT KO‘RSATISHNI RIVOJLANTIRISH

Yuldoshev Obbos Amonovich

Turon universiteti o‘qituvchisi

abbosyuldashev667@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va unda innovatsion bank xizmatlarining ahamiyati ko‘rsatiladi. Jumladan, Bank xizmatlari sifati va tezligini oshirish muhim ustuvor yo‘nalish hisoblanib, unda raqamli texnologiyalarga asoslangan bank xizmatlaridan foydalanishning afzalliklari aniq ko‘rsatkichlar asosida ifodalanadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida Bank faoliyatini transformatsiyasiga oid tadqiqotlar va bo‘yo‘nalishda mamlakatimizda erishilayotgan natijalar hamda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar xususida tahliliy xulosalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy xizmatlar, bank, raqamli texnologiya, bank transformatsiyasi, masofaviy bank xizmatlari, raqamli bank xizmatlari, blokcheyn.

Abstract. The article describes the importance of innovative banking services in the development of financial services. In particular, increasing the quality and speed of banking services is considered an important priority, and the advantages of using banking services based on digital technologies are expressed on the basis of specific indicators. In addition, analytical conclusions are also presented regarding the research on the transformation of the Bank’s activities based on technology and the results achieved in this direction in our country, as well as the tasks to be carried out in the future.

Keywords: financial services, banking, digital technology, banking transformation, remote banking, digital banking, blockchain.

Kirish. XXI asrni raqamli texnologiyalar rivojlanishi asri diyish mo‘mkin, chunki, hozirgi kunda dunyo aynan shu asosda rivojlanish yo‘lidan bormoqda. Adabiyotlarda ham iqtisodiyotni raqamli texnologiyalar asosida rivojlanishi **4.0.Industriya** atamasi bilan yuritilmoqda [2]. Jumladan, moliyaviy xizmatlar sifatini oshirishda ham raqamli texnologiyalarga asoslanilmoqda. Bunda ayniqsa, Bank xizmatlari sifati va tezligini oshirish muhim ustuvor yo‘nalish hisoblanadi [1]. Xalqaro tashkilotlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar bo‘yicha moliya texnologiyalarining joriy etilishi moliya institutlari faoliyati rentabelligini 20 foizga oshirishi aniqlangan. Masalan, Insider Monkey kompaniyasi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra 2021 yilda, ya’ni pandemiya davrida eng yuqori daromad keltiruvchi soha aynan har xil dasturiy ta’minot mahsulotlari (ilovalar va tizimlar)

ekanligi ta'kidlangan bo'lib, shu davrda kapital rentabelligi 32,07 % ni tashkil qilgan [10].

Ma'lumki, barcha moliyaviy munosabatlar bank subyekti orqali amalga oshishga asoslangan. Shu bois universal xizmatlar ko'rsatish doirasida bank tuzilmalari o'ziga xos to'g'ridan-to'g'ri ishtirokchi va vositachi bo'lib, ular moliyaviy operatsiyalar bilan cheklanib qolmasdan, mijozlarga kerak bo'lgan xizmatlarning barcha turini taklif qilishi talab etilmoqda. Mamlakatimizda ham bank transformatsiyasi asosida moliyaviy xizmat turlarini kompleks o'zgartirish bo'yicha sifat o'zgarishlarini xalqaro standartlar talabi asosida shakllantirish va uning raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro maydonda o'z o'rnini topa bilish kabi modellarni yaratish masalasi eng muhimdir.

Ushbu maqolada bank tizimida moliyaviy xizmat bo'yicha raqamli texnologiya mahsulotlarini joriy etilishi qanday natija olib kelayotganligi hamda uni rivojlantirish masalasida tahliliy fikr yuritiladi.

Adabiyotlar sharhi. Moliyaviy xizmatlar asosan bank orqali amalga oshishga asoslanadi. Shu boisdan oxirgi o'n yillikda butun dunyoda moliyaviy xizmatlarda qulayliklar yaratish maqsadida, avvalo bank sohasida raqamli texnologiyalarga asoslangan islohotlar o'tkazilmoqda. Bu shubhasiz, banklarning asosiy ustunlik drayveriga aylanib bormoqda. Mamlakatimizda ham so'nggi yillikda raqamli texnologiyalarga asoslangan bank transformatsiyasi yo'nalishida qator o'zgarishlar yuz bermoqda.

Bir qancha zamonaviy olimlar ham bank transformatsiyasi masalasini ilmiy maqolalarda yoritib bormoqda. Jumladan, S.V. Krivoshapova "hisob-kitob, to'lovlar tezligi va kassa xizmatlari kredit tashkilotlarida muhim muammolardan biri ekanligi"ni ta'kidlagan [4].

Bugungi kunga kelib, zamonaviy banklar faoliyati kamroq eksklyuziv bo'lib qoldi va uning roli asta-sekin o'zgarmoqda. Jumladan, T.A. Vasileva banklar endi noyob ma'lumotlarning yagona egasi emasligini ko'rsatib, moliya vositalarining rivojlanishi sababli bitimlar bank aralashuvisiz tuzilayotganligini va bunga misol sifatida nobank moliyaviy vositachilar tomonidan taklif qilinadigan "to'liq shartnomalar"ni keltirgan [5].

O'zbekistonda bank xizmati transformatsiyasi masalasini qator mualliflar har xil ko'rinishda yoritmoqda [6]. Jumladan, B.Berdiyarov tijorat banklarining faol operatsiyalari rentabelligini [7], F. Mirzayev bank raqobatini shakllantirishning konseptual asoslarini [8], A.Erdonayev tijorat banklari transformatsiyasi qulayliklarini [9] tahlil qilgan.

Umuman **raqamli transformatsiya** deganda, boshqaruv tizimi, tashkiliy tuzilma, rivojlanish strategiyasi, korporativ madaniyat va biznes jarayonlarida mutloq yangi innovatsion usullarni qo'llash, mavjudlarini qayta formatlash tushuniladi. Rivojlangan mamlakatlar banklarining Bank 3.0 va Bank 4.0 konsepsiyasi, shuningdek, mamlakatimizda mavjud Bank –

kliyent, Internet – banking, SMS – banking kabi tushunchalar shular jumlasidandir.

Ushbu tadqiqotlar raqamli bank faoliyatining rivojlanishiga shubhasiz o‘z hissasini qo‘shadi, ammo, raqamli texnologiyalarga asoslangan bank faoliyati yangidan tashkil etilib, rivojlanish bosqichini o‘tayotganligi sababli hali o‘zil-kesil yakunini topmagan. Istiqbolda moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishni qamrab oluvchi moliyaviy institutlar, xususan, banklar faoliyatining muvaffaqiyati va raqobatbardoshligi bevosita raqamlashtirishga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Bo‘ esa mavzuning dolzarbligini belgilaydi.


Tahlil va natijalar. Jahonning yetakchi moliya-kredit institutlari, xususan tijorat banklari tomonidan yangi shakllantirgan standartlarga moslashish chora-tadbirlari faol amalga oshirilmoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston bank tuzilmalarida ham moliyaviy xizmatlar bo‘yicha yangi standartlarni qo‘llanilishi natijasi bo‘yicha bir qancha ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rish mo‘mkin. Jumladan, masofaviy bank xizmatlari (MBX) ko‘rsatilishi bank faoliyatini raqamlashtirishda asosiy o‘rin tutmoqda. Chunki, mijozlar internet mobil aloqa qurilmalari orqali har qanday geografik yashash joyidan qat’iy nazar bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunday masofaviy bank xizmatlari uchun biometrik texnologiya, sun‘iy intellekt, blokcheyn va boshqa raqamli texnologiyalar qo‘llanilgan holda uning tezligi va xavfsizligi ta‘minlanadi.

Raqamli texnologiyalarga asoslangan masofaviy bank xizmatlari mijozlarga (yuridik va jismoniy) vaqt va moliyaviy harajatlarni sarflamasdan maksimum bank xizmatlaridan foydalanish imkonini beradi. Mamlakatimizda ushbu yo‘nalishda bank ilovalariga ulangan yuridik va jismoniy shaxslar sonini quyidagi diagrammada ko‘ramiz.

Diagramma 1

Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni*

(ming kishi)



* O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining rasmiy ma’lumotlarini o‘rgangan holda muallif tomonidan tuzilgan. – <https://cbu.uz/ru>.

Jadvalda MBX dan foydalanuvchilar soni keltirilgan bo‘lib, 2020-2024 yillarda ularning soni oshib borganligini ko‘rish mo‘mkin. Ayniqsa, MBX dan foydalanuvchi **jismoniy shaxslar** soni 2023 yilda 2019 yilga nisbatan 33 297,5 ming kishiga (42 759,9 – 9 462,4) yoki 451 % ga keskin oshgan. Bundan, MBX aholiga qulayliklar keltirayotganligini xulosa qilish mo‘mkin.

1-jadval

Masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni 2024 yil 1 avgust holatiga*

	Bank	Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar	Jismoniy shaxslar	Jami
1	Milliy bank	108 797	2 028 981	2 137 778
2	O‘zbekiston sanoat-qurilish banki	74 537	6 189 832	6 264 369
3	Agrobank	221 998	5 574 275	5 796 273
4	Ipoteka-bank	173 784	3 304 263	3 478 047
5	Mikrokreditbank	74 096	1 064 120	1 138 216
6	Xalq banki	120 781	4 791 543	4 912 324
7	Garant bank	7 000	78 836	85 836
8	Biznesni rivojlantirish banki	32 532	292 449	324 981
9	Turonbank	48 616	475 896	524 512
10	Hamkorbank	128 309	1 772 240	1 900 549
11	Asaka bank	36 861	820 191	857 052
12	Ipak Yo‘li banki	69 642	2 786 256	2 855 898
13	Ziraat bank Uzbekistan	5 298	70 690	75 988
14	Trastbank	50 026	255 080	305 106
15	Aloqabank	65 495	1 615 416	1 680 911
16	KDB Bank O‘zbekiston	1 434	51 534	52 968
17	Soderot bank Toshkent	446	2 825	3 271
18	Universal bank	13 933	166 176	180 109
19	Kapitalbank	57 660	1 519 429	1 577 089
20	Octobank	2 719	73 884	76 603

21	Davr-bank	26 149	246 796	272 945
22	Invest Finance bank	17 878	380 145	398 023
23	Asia Alliance bank	26 900	599 467	626 367
24	Oriyent Finans bank	30 729	617 509	648 238
25	Madad Invest bank	1 148	1 939	3 087
26	AVO bank	125	299	424
27	Poytaxt bank	1 157	11 268	12 425
28	Tenge bank	3 423	240 818	244 241
29	TBC bank	-	3 650 976	3 650 976
30	ANOR bank	29 812	4 210 585	4 240 397
31	UZUM bank	-	1 300 046	1 300 046
32	HAYOT bank	-	1 898	1 898
Jami		1 431 285	44 195 662	45 626 947

* O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining rasmiy sayti. – <https://cbu.uz/ru>.

Ushbu jadvalda MBX dan foydalanuvchilar soni banklar kesimida keltirilgan bo‘lib, unda MBX dan foydalanuvchi jismoniy shaxslar soni bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich O‘zbekiston sanoat-qurilish bankida (6 189 832 kishi), keyingi o‘rinlarni Agrobank (5 574 275 kishi), Xalq banki (4 791 543 kishi) va ANOR bank (4 210 585 kishi) egallamoqda. Shuni qayd etish kerakki, ANOR bank mamlakatimizda tashkil bo‘lgan yangi banklardan hisoblanishiga qaramasdan, mavjud 32 ta banklar orasida bo‘yo‘nalishda mijozlar sonini keskin oshirib, muvaffaqiyatga erishayotganligini ko‘rish mo‘mkin.

Quyidagi jadvalda O‘zbekistonda 2022-2024 yillarda o‘rnatilgan mobil bank ilovalari sonini ko‘ramiz.

2-jadval

O‘zbekistonda o‘rnatilgan mobil bank ilovalari soni*

Bank/servis	2022-yil, may	2024-yil, may
Click	5 000 000	10 000 000
Anorbank	1 000 000	5 000 000
TBC UZ	1 000 000	5 000 000
Agrobank	1 000 000	1 000 000
Ipoteka Bank	1 000 000	1 000 000
Invest Finance Bank	500 000	1 000 000

Ipak Yo‘li Banki	500 000	1 000 000
XalqBanki	500 000	1 000 000
NBU	500 000	1 000 000

* O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining rasmiy ma‘lumotlarini o‘rgangan holda muallif tomonidan tuzilgan. – <https://cbu.uz/ru>.


Ushbu ma‘lumotlardan O‘zbekistonda mobil bank ilovalari soni ikki yilda oshib borganligini ko‘rish mo‘mkin. Demak, aholi mobil bank ilovalarni o‘rnatish orqali masofaviy moliyaviy xizmatlarning qulayliklaridan manfaatdor bo‘lmoqda. O‘rnatishlar soni bo‘yicha Click ilovasi eng yuqori ko‘rsatkichga ega.

Bundan tashqari, Markaziy Bank tomonidan 2020 yilda QR-online to‘lovlarni amalga oshirish tizimi joriy qilingan bo‘lib, u xaridorlarga harid qilingan tovar (ish va xizmatlar) uchun bank plastik kartasi va to‘lov terminalini chetlab o‘tgan holda to‘lovlarni daqiqada amalga oshirishga imkon beradi. Buning uchun savdo va xizmat ko‘rsatuvchi subyekt o‘z bankiga murojaat qilib QR-kod olishi talab qilinadi va xaridorlar o‘zlarining mobil ilovasi orqali ushbu QR-kodni skanerlash bilan to‘lovni amalga oshirishi mo‘mkin bo‘ladi. Bu esa shubhasiz, oldi-sotdi jarayonida yanada qulayliklar yaratadi.

Bank plastik kartalari orqali harid qilingan tovar va xizmatlar uchun to‘lovlar amalga oshirilib, banklar orqali tranzaksiyalar bajariladi. Bu esa aholiga moliyaviy xizmatlarni amalga oshirishda qulayliklar yaratadi (Diagramma 2).

Diagramma 2.

To‘lov terminallari orqali amalga oshirilgan to‘lovlar*



* O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining rasmiy ma’lumotlarini o‘rgangan holda muallif tomonidan tuzilgan. – <https://cbu.uz/ru>.

Diagramma ma’lumotlari to‘lov terminallari orqali amalga oshirilgan to‘lovlar 2019-2023 yillar davomida o‘sib borganligini ko‘rsatadi, jumladan, 2023 yilda 2019 yilga nisbatan 183 699,1 mlrd.so‘mga (254 719,1 – 71 020,0) yoki 358,6 foizga, ya’ni 3,5 barobarga oshgan.

Erishilayotgan muvaffaqiyatlarga qaramasdan, aholiga moliyaviy xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish borasida ayrim muammolar mavjudligi ko‘zatiladi, jumladan; raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha aholi savodxonligining pastligi, ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash, internet tarmog‘i tezligini oshirish va boshqalar. Muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

Xulosa va takliflar.

1. **Raqamli texnologiyalarga savodxolikni oshirish.** Aholi savodxonligini oshirish bo‘yicha ilmiy va boshqa ko‘rgazmali eshittirishlarni televideniya va internet tarmoqlari orqali namoyish qilish;

2. **Raqamlashtirilgan bank xizmatlarini rivojlantirish.** Bank xizmatlari bo‘yicha raqamli ilovalarning turlarini ko‘paytirish, yangi funksiyalar bilan boyitish orqali mijozlarga qulayliklar yaratish va bank tizimini mavjud iqtisodiy munosabatlarga mos modelini yaratish;

3. **Infratuzilmaga investitsiya kiritish.** Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish sifatini yaxshilar maqsadida, ayniqsa o‘zoq hududlarda internet tarmog‘i tezligini oshirishga mo‘ljallangan investitsiyalarni ko‘paytirish;

4. **Xavfsizlik choralari kuchaytirish.** Pul o‘tkazmalari bilan bog‘liq tranzaksiyalar va mijozlarning shaxsiy ma’lumotlari maxfiyligini ta’minlash bo‘yicha xavfsizlik choralari kuchaytirish, jumladan, biometrik autentifikatsiya, raqamli identifikatsiya, blokcheyn va boshqa zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish;

5. **Inson resurslarini rivojlantirish.** Bank xodimlarini zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo‘llanilishi yuzasidan bilimlarini oshirib borish, uzluksiz qayta tayyorlash tizimini joriy etish;

6. **Rivojlangan davlatlar amaliyotidan foydalanish.** Bank xizmatlari ko‘rsatuvchi rivojlangan davlatlarning fintex kompaniyalarini mamlakatimiz bank tizimiga jalb qilish orqali ularning samaradorlik ko‘rsatkichlaridan foydalanish;

Huquqiy meyorlarni yaratish. Raqamli bank texnologiyalarini qo‘llanilishi va ular faoliyatini rag‘batlantirish yuzasidan huquqiy meyorlar ishlab chiqilishini tezlashtirish.

Ushbu muammolarni hal etilishi bank faoliyatini raqamlashtirish va

moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish sifatini oshirib, aholiga qulayliklar yaratadi, banklarning raqobatbardoshligini oshiradi va mamlakat iqtisodiyotini zamonaviy talablar asosida rivojlanishiga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. “2020 - 2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 12.05.2020 й. ПФ-5992-сон. [//https://lex.uz/docs/4811037](https://lex.uz/docs/4811037).
2. R.H. Ayupov, G.R. Boltaboyev. “Raqamli iqtisodiyot asoslari” T: TMI, 2020.
3. Демина Е.И., Гребенюк Т.Г., Телегин А.В. Проблемы банковского обслуживания юридических и физических лиц. // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. - 2016. - № 7-3. - С. 450-453.
4. Кривошапова С.В, Латвин Е.А. Актуальные проблемы и перспективы развития расчетно-кассовых операций клиентов кредитными организациями РФ. //Электронный научно-практический журнал «Современные научные исследования и инновации». [//https://web.snauka.ru/issues/2014/11/41074](https://web.snauka.ru/issues/2014/11/41074).
5. Васильева Т.А. Концепция банк. 3.0: Глобальные тенденции и последствия // Open Journal Systems. [Электронный ресурс]. - URL: <http://fkd.org.ua/article/view/107714/105099>.
6. Азларова А, & Рахматуллаева М. (2022). Трансформация банковского сектора – неотъемлемая часть процесса становления цифровой экономики в Республике Узбекистан. Наука и научный потенциал: основа устойчивого инновационного развития общества, 1(1), 34–37. [// https://doi.org/10.47689/inlibrary-sspbsids-2022](https://doi.org/10.47689/inlibrary-sspbsids-2022)
7. Бердияров Б.Т. Доходность активных операций коммерческих банков: Автореферат дис. на соис. уч. степ. кандидата экономических наук. - Т., 2002. -20 с.
8. Мирзаев Ф.И. Концептуальные основы формирования банковской конкуренции в Узбекистане: Автореферат дис. на соис. уч. степ. доктора экономических наук. -Т., 2011. -38 с.
9. Эрдонаев А. Теоретические основы трансформации коммерческих банков. // «Рынок, деньги и кредит» ежемесячный экономический научно- практический журнал, 4/2023. С.-3-11.
10. Внимание к клиенту – основа работы: в Сбербанке рассказали о принципах клиентоцентричности - РИАМО (riamo.ru). [// https://riamo.ru/article/288179](https://riamo.ru/article/288179).

INTELLEKTUAL MULKDORLAR QATLAMINING INSON MANFAATLARINI RO‘YOBGA CHIQRISHDAGI O‘RNI

Shaymanova Adiba Ergashevna

Turon universiteti dotsenti f.f.d. (DSc),

[*adiba_shaymanova@gmail.com*](mailto:adiba_shaymanova@gmail.com)

Annotatsiya: *XX asr oxirlariga kelib jahon iqtisodiyotining rivojlanishi sifat jihatdan yangi bosqichga o‘ta boshlandi. Hozirgi kunda mamlakatlarning xalqaro maydondagi va dunyo iqtisodiyotidagi o‘rni va raqobatbardoshligi uning tabiiy boyliklari, moliyaviy mablag‘larining hajmi yoki qurolli kuchlarining qudrati bilangina emas, balki, undagi intellektual salohiyat, yangi bilimlarni yaratish va ulardan samarali foydalanish imkoniyati va qobiliyati bilan belgilanmoqda. Bugungi kunda bilimlar iqtisodiy o‘rning asosiy omili, xalq faravonligi va mamlakat taraqqiyotini ta‘minlaydigan muhim dastakka aylandi. Xususan, dunyoda ta‘lim, aloqa va axborot kabi bilimlarni ko‘p talab qiladigan sohalar yanada jadal rivojlanmoqda, jamiyatda intellektual mulk va intellektual mulkdorlar qatlamining o‘rni va ahamiyati tobora kuchayib bormoqda. Buni “yalpi ichki mahsulot o‘rningining 90 foizini ilmiy-texnik taraqqiyot belgilab berayotgan rivojlangan mamlakatlar tajribasi tasdiqlaydi”.*

Shu boisdan, ushbu maqolada intellektual mulkdorlar qatlami, uning rivojlanish jarayonlari, bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasi, intellektual mulkdorlar qatlamining inson manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda va fuqarolik jamiyatini rivojlanishidagi o‘rni haqida fikr boradi.

Kalit so‘zlar: *mulk, intellektual mulk, mulkdorlar qatlami, inson resurslari, bozor iqtisodiyoti, raqobat, korxonalar va tashkilotlar, ijtimoiy, iqtisodiy, intellektual salohiyat.*

Annotation: *By the end of the 20th century, the development of the world economy began to enter a qualitatively new stage. Nowadays, the place and competitiveness of countries in the international arena and world economy is determined not only by their natural resources, the size of their financial resources, or the power of their armed forces, but also by their intellectual potential, the ability and ability to create new knowledge and use it effectively. Today, knowledge has become the main factor of economic growth, an important pillar that ensures the well-being of the people and the development of the country. In particular, knowledge-intensive fields such as education, communication, and information are developing more rapidly in the world, and the role and importance of intellectual property and the layer of intellectual owners in society is becoming stronger. This is "confirmed by the*

experience of developed countries where 90% of GDP growth is determined by scientific and technical development."

Therefore, this article discusses the intellectual property layer, its development processes, the experience of foreign countries in this regard, the role of the intellectual property layer in the realization of human interests and the development of civil society.

Key words: *property, intellectual property, layer of owners, human resources, market economy, competition, enterprises and organizations, social, economic, intellectual potential.*

Kirish (Introduction). Intellektual mulk jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy sohalari rivojlanishining tarkibiy qismlaridan biridir. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasida intellektual mulk va mulkdorlar qatlamining shakllanishi va rivojlanishiga katta e'tibor qaratilayotgani sababli, ularning investitsiyaviy jozibadorligi yaxshilangan, ularning ichki yalpi mahsulotdagi ulushi keskin ortganidir. Misol uchun, "intellektual mulk Yevropada yalpi ichki mahsulotning 45 foizini, Xitoyda 12 foizni, Rossiyada esa 7 foizni tashkil etadi" [10]. Ayniqsa, bugungi texnologik taraqqiyot davrida intellektual mulk har bir mamlakat ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishida, uning global iqtisodiyotdagi raqobatbardoshligini hamda insonlar turmush farovonligini ta'minlashda muhim tayanch hisoblanadi.

Agrar yoki industrial iqtisodiyotda tovarlarning ayirboshlanishi natijasida ushbu tovarlarning mamlakatdan butunlay chiqib ketishi ro'y bergan bo'lsa, jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichining asosiy tovari bo'lgan bilim va uning natijalarining sotilishiga bunday xususiyat xos emas. Tabiiy boyliklar cheklangan bo'lsa, bilimlarning asosi bo'lgan inson qobiliyatlari cheksizdir. Shu o'rinda Tomas Djeffersonning quyidagi so'zlarini eslash o'rindir: "Meni nochorlashtirmay fikrlarimni olib foydalangan inson, xuddi meni qorong'ulikka duchor etmay chirog'imning yorug'ligidan foydalangan inson kabidir" [5]. Ya'ni, bilim va uning natijalarining ayirboshlanishi uning kamayishiga emas, balki undan ham ziyoda bo'lishiga olib keladi.

XX asr oxirlarida Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga (OECD) a'zo mamlakatlar YAIMning 50 foizdan ortig'i bilimlarga asoslangan tarmoqlarda yaratilgan. Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga o'rtacha xarajatlar YAIMning 2,5 foiziga, ta'lim xarajatlari davlat xarajatlarining 12 foiziga, "o'qish va ishlash" tizimi ya'ni, shogirdlik yoki dual deb nomlangan ta'lim mavjud bo'lgan Germaniya va Avstriya kabi davlatlarda "ish joyida ta'lim olish" (on the job training) ga xarajatlar YAIMning 2,5 foizgacha yetgan. 1980 – yillarning o'rtalaridan boshlab kompyuter va dasturiy

ta'minotlarning sotib olinishi yiliga 12 foizga oshib borish kuzatildi. OECD ga a'zo mamlakatlarda yuqori malakali kadrlarga talab oshmoqda. O'rta ma'lumotlilar orasida ishsizlik 10,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, oliy ma'lumotlilar orasida 3,8 foizni tashkil etgan. Yuqori texnologiyalar, ilm talab etuvchi tarmoqlarda bandlik oshib bormoqda" [4;207].

Dunyoda ta'lim, aloqa va axborot kabi bilimlarni ko'p talab qiladigan sohalar yanada jadal rivojlanmoqda. Jamiyatda intellektual mulk va intellektual mulkdorlar qatlamining o'rni, ahamiyati tobora kuchaymoqda.

Adabiyotlar tahlili (Literature review). O'zbekistonda uchinchi renessans jarayonida intellektual mulkdorlar qatlamining inson manfaatlarini ro'yobga chiqarishga doir joriy meyoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish nazarda tutilgan:

- intellektual mulkdorlar qatlamining nazariy asoslarini tadqiq etish;
- intellektual mulkdorlar qatlamini shakllantirishga qo'yiladigan asosiy talablarni tahlil qilish;
- intellektual mulkdorlar qatlamining inson manfaatlarini ro'yobga chiqarishga doir joriy meyoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishning yangicha mexanizmlarini tadqiq etish;
- intellektual mulkdorlar qatlamining inson manfaatlarini ro'yobga chiqarishdagi samarali shakllari va yo'llarini tahlil qilish.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqolani tayyorlashda, ilmiy manbalardan foydalanishda, materiallarni turkimlashtirishda va mustaqil xulosalarni umumlashtirish jarayonida hamda rivojlangan mamlakatlarda intellektual mulkdorlar qatlamining o'rni, shuningdek, inson manfaatlarini ro'yobga chiqarishdagi ahamiyatini tahlil qilish, statistik, solishtirma, empirik, tarixiylik, tanqidiylik, analiz, sintez metodlaridan foydalanildi. Maqolaning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.M.Mirziyoyev asarlari, Farmonlari, davlatimiz rahbarining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida bayon qilingan kontseptual g'oyalar tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta'lim tizimini konseptual isloh etish va inson resurslari samaradorligini oshirishga oid bag'ishlangan Qarorlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek mamlakatimiz olimlarning iqtisodiy qarashlari, fikrlarini tahlil qilish, mustaqil xulosalar chiqarish uchun, inson resurslarini samarali boshqarishga bag'ishlangan monografik tadqiqotlar, respublika masshtabida o'tkazilgan ilmiy amaliy konferentsiyalar materiallari, ilmiy maqolalar, xorijlik olimlar arasalaridan foydalanildi. Ushbu sohaga tegishli bo'lgan qarashlarini umumlashtirish maqsadida, ushbu fenomen tadqiqiga bag'ishlangan, nufuzli jurnallarda e'lon

qilingan maqolalar ilmiy manba sifatida olindi. Shuningdek, jamiyat taraqqiyotining yangi davrida ommaviy axborot vositalari, jumladan internetda e'lon qilinayotgan, manbalarda intellektual mulkdorlar qatlamining inson manfaatlarini ro'yobga chiqarishdagi ahamiyatini ochib berishga qaratilgan fikrlar, O'zbekistonlik va xorijdagi olimlarning mulohazalaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama (Result and Discussions). Ushbu maqolada mavzuning dolzarbligini asoslash va ijtimoiy ahamiyatini baholashda mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini shakllantirishda intellektual mulkdorlar qatlamining inson manfaatlarini ro'yobga chiqarishga doir joriy meyoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda, fuqarolik jamiyatining barqarorligini ta'minlashda intellektual mulkdorlar qatlamining o'rnini va roli hamda istiqboldagi ijtimoiy mavqeni mustahkamlashga doir taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash mumkinligi bilan ahamiyatlidir.

Shuningdek, maqolani tayyorlashda O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, ma'ruzalari, nutqlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlaridan foydalanildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi Farmoni bilan tasdiqlangan "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi va to'rtinchi: "iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish" va "ijtimoiy sohani rivojlantirish" ustuvor yo'nalishlari (ta'lim sohasining rivojlantirish bo'limi), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga 2017 yil 22 dekabrda, 2018 yil 28 dekabrda va 2020 yil 24 yanvarda, 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar metodologi asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, intellektual mulkdorlar qatlamini shakllantirishning samarali usullardan foydalanib kelayotgan xorijiy mamlakatlar tajribasi muhimligi bilan ajralib turadi.

Darhaqiqat, intellektual mulk bu—ijodiy aqliy faoliyat mahsuli bo'lib, intellektual mulkdor esa uning egasi, sohibi hisoblanadi. Ensiklopediya lug'atida, intellektual mulkga quyidagicha ta'rif berilgan - "Ixtirochilik va mualliflik obyekti huquqi majmuiga kiruvchi, fan, adabiyot, san'at va ishlab chiqarish sohasida ijodiy faoliyatning boshqa turlari, adabiy, badiiy, ilmiy asarlar, ijrochi aktyorlik san'ati, jumladan ovoz yozish, radio, televideniye, asarlar, ixtirolar, ratsionalizatorlik takliflari sanoat namunalari, kompyuterlar uchun dasturlar, ma'lumotlar bazasi, nou-xauning eksperttizimlari, tovar belgilari, firma atamallari va boshqa aqliy mulk

obyektlari kiradi. Hozirgi davrda intellektual mulkni muhofaza qilish muhim vazifa hisoblanadi”.

Shu boisdan, ayni vaqtda, butun dunyoda intellektual mulk barcha narsadan qimmatli deb e'tirof etilmoqda va ushbu qatlam vakillariga keng imkoniyat va sharoitlar yaratilmoqda. Mashhur brend egalari, bestseller (eng ko'p sotuvchilar ro'yxatiga kiritilgan bestseller (ingliz bestselleri - "eng ko'p sotilgan") yoki ishlaydigan kitob [mashhur kitob yoki boshqa takroriy nashr (masalan, musiqa albomi yoki kompyuter o'yini) [9] asar mualliflari, ixtirochilarning milliarder ekani haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud bo'lib, ularning asarlari insonlarga motivatsia ulashib kelmoqda.

Zero, intellektual mulk inson tomonidan yaratiladigan ijodiy aqliy faoliyat mahsuli hisoblanadi. Intellektual mulk jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy sohalari rivojlanishining tarkibiy qismlaridan biridir. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasida intellektual mulk va mulkdorlar qatlamining shakllanishi va rivojlanishiga katta e'tibor qaratilayotgani sababli, ularning investitsiyaviy jozibadorligi yaxshilangan, ichki yalpi mahsulotdagi ulushi keskin ortganligini ko'rish mumkin. Shundan kelib chiqib, bugungi texnologik taraqqiyot davrida intellektual mulk har bir mamlakat ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishida, davlatlarning global iqtisodiyotdagi raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, o'z navbatida intellektual mulkdorlar qatlamining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga qo'shayotgan foydasi yuqoriligini, hamda insonlar turmush farovonligini ta'minlashga muhim tayanch ekanligini namoyon qilmoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, inson hayotida intellektual mulkning o'rni beqiyos bo'lib, undan faqatgina egasi emas, balki jamiyat ham manfaatdor bo'lishi kerak. Masalan, yaratilayotgan biror ixtiro yoki innovatsion g'oya jamiyat taraqqiyoti uchun, insonlar manfaati uchun xizmat qilsagina foydali bo'ladi.

Zero, tahlillar natijasiga ko'ra, intellektual mulkdorlar qatlamining o'rni va ahamiyati yildan yilga oshib bormoqda. Statistik ma'lumotlar natijalariga ko'ra, "1970-yillarda jahonda nomoddiy aktivlarning ulushi bor-yo'g'i 17 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yilda ularning ulushi 90 foizdan oshganini ko'rish mumkin" [10]. Ayniqsa, yuzaga kelgan pandemiya sharoiti intellektual mulkka bo'lgan talabni yanada oshishiga sabab bo'ldi. Masalan, "o'tgan yil boshida turli davlatlarda lokdaunlar e'lon qilina boshlagach, fevralning bir haftasida 2019-yilning butun davriga nisbatan dasturiy ta'minot mahsulotlarini yuklab olish 80 foizga oshganini ko'rish mumkin" [10].

Binobarin, intellektual mulk bugungi kunga kelib, juda serdaromad yo'nalishga aylanayotganligini, buni esa, quyida keltirilgan ma'lumotlar ham

tasdiqlab turganini ko‘rish mumkin. “Butunjahon intellektual mulk tashkiloti tahlillariga ko‘ra, 2019-yilda 17 ta davlat mashhur qahramonlar va o‘quv-ilmiy adabiyotlardan foydalanish uchun litsenziya olish natijasida 64,1 mlrd dollar foyda ko‘rgan bo‘lsa, 2017- yilda AQShning YAIMiga mualliflik huquqlari orqali kelgan daromad 2,2 trln dollarni tashkil qilgan. Bu – AQSH YAIMining 12 foiziga teng” [10]. Bu kabi raqamlardan xulosa qilish mumkinki, jamiyat a‘zolarining intellektual mulk hamda ushbu mulkdorlar qatlamiga nisbatan munosabatlarining o‘zgarganligidan dalolat beradi. Bu esa, inson aqliy faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Shu o‘rinda, intellektual mulkdorlar qatlami va ularning mulk huquqi haqida so‘z yuritilar ekan, asosan ikkita narsaga e‘tibor qaratish lozimdir. Birinchidan ularni muhofaza qilish, ikkinchidan esa ularni himoyalash. Ma‘lumki, muhofaza qilish deganda, biror intellektual mulkni yaratib, uni ro‘yxatdan o‘tkazishgacha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga oladi. Ya‘ni, biror ixtirochi tomonidan ixtiro yaratilsa, unga Intellektual mulk agentligi tomonidan patent taqdim etilganidan so‘ng u muhofazaga olinadi. Himoyalash esa undan keyingi jarayon bo‘lib, intellektual mulkdan biron bir shaxs beruxsat foydalansa, intellektual mulk himoyaga olinadi, bu esa ushbu qatlam vakillarini faoliyatini yanada rivojlantirishga turtki bo‘ladi. Shu boisdan, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga “Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi” degan yangi norma kiritilganligini ta‘kidlab o‘tish joizdir” [1;21].

O‘rganilgan tahlillar natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda intellektual mulk muhofazasi yaxshi tashkil qilingani, jumladan, intellektual mulk ekspertizasi va boshqa tartiblar yaxshi tashkillashtirilganligini ko‘rish mumkin. Biroq, intellektual mulk himoyasi borasida biroz muammolar borligini, “hozirgacha intellektual mulk huquqi himoyasiga oid sud amaliyoti to‘laqonli shakllanmaganligini” aytish mumkin. Darhaqiqat, mamlakatimizda tovar belgilari bilan bog‘liq tajriba mavjud bo‘lsada, lekin mualliflik huquqi va sanoat mulki obyektlari bilan bog‘liq amaliyot juda kam ekanligini ta‘kidlash joizdir.

Shundan kelib chiqib, O‘zbekistonda ham intellektual mulkdorlar qatlamiga nisbatan munosabatni, hamda hurmatni shakllantirish zarur. Ikkinchidan, hozir O‘zbekistonda ushbu qatlam vakillari mamlakat iqtisodiyotida qancha foizni tashkil etishini, ularning yillik daromadlari qanchani tashkil etayotganligi haqida statistik ma‘lumotlar yuritilishini ta‘minlash kerak. Bunday statistik raqamlar esa, ularning o‘zi yaratgan intellektual mulkdan foyda ya‘ni daromad qilayotganini bilishi, ularga rag‘bat paydo qiladi, hamda bu sohani rivojlanishiga va intellektual mulkdorlar qatlamining soni ko‘pashiga olib keladi. Uchinchidan, “bizda ixtirochi deganda, Fanlar Akademiyasida ishlaydigan olim, professorlar tushuniladi, lekin rivojlangan davlatlarda ixtirochilar aholining bir toifasi bilan chegaralanmaydi. Ixtirochi oddiy

odam, o‘qituvchi, olim, vrach, iqtisodchi, menejer, tadbirkor, malakali ishchi yoki boshqa kasb egasi bo‘lishi mumkin” [10]. Binobarin, ekspertlarning fikriga ko‘ra, bugungi kunda, O‘zbekistonda ixtirochilar kamligining sabablaridan biri ularga nisbatan rag‘batning yetarli darajada emasligi bilan bog‘liq. Jumladan, “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi qonunda mualliflar, sanoat mulkidan foydalanuvchilarga soliq va kredit imtiyozlari berilishi lozimligi qayd etilgan. Biroq bu normani amaliyotda tadbiiq etilishida kamchiliklarga yo‘l qo‘yilmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, hozirgi yangi taraqqiyot davrida juda ko‘p narsa virtual olamga ko‘chib, virtual tarzda tirikchilik qilayotganlarning soni ham kundan-kun ortib bormoqda. Bu jarayon esa o‘z-o‘zidan intellektual mulk huquqining ham buzilishiga olib kelishi mumkin. Bu kabi salbiy holatlarni bartaraf etish maqsadida, “O‘zbekistonda internetda mualliflik huquqini himoya qilish va dasturiy ta’minotlardan noqonuniy foydalanishga qarshi kurashish bo‘yicha «O‘zkomnazorat» axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasiga vakolat berilgan. Ichki ishlar vazirligi tizimiga qarashli Kiberxavfsizlik markazi ham internet tarmog‘ida mualliflik va turdosh huquqlarini himoya qiladi”. Ammo, shuni yodda tutish lozimki, baribir birinchi navbatda muallif o‘z huquqini himoya qilish uchun tashabbus ko‘rsatishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shuni yodda tutish lozimki, bugungi kunda dunyodagi rivojlangan davlatlar yuksak taraqqiyot va turmush farovonligiga eng avvalo, ilm-fan va ta’limga qaratilgan ulkan e’tibor tufayli erishmoqda. Shuningdek, oxirgi yillarda jahon iqtisodiy adabiyotlarida keng tarqalgan "bilimlarga asoslangan iqtisodiyot" yoki "intellektual iqtisodiyot" tushunchalari keng qo‘llanilayotganini nazarda tutgan holda, bilimlar iqtisodiyoti ta’lim tizimi, fanlar, patent sistemasini, kompyuter programmalarini ishlab chiqarish sohasi, NIOKR –("Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar" (Nauchno issledovatel’skiye opitno – konstruktorskiye razrabotki) va bilim ishlab chiqarish bilan bog‘liq boshqa tarmoqlarni qamrab olayotganini ta’kidlash joizdir.

Xulosa. Xulosa qiladigan bo‘lsak, Uchinchi Renessans — bu raqamli texnologiyalar, internet va sun’iy intellektdan samarali foydalanish orqali, kelgusi ming yillikda ko‘plab sivilizatsiyaning global muammolarini hal qilishda milliardlab odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirib, ular o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi. Shu boisdan, Yangi Renessans yangi Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino yoki Mirzo Ulug‘bek kabi buyuk allomalarni kashf etadi deyish mumkin. Bu orqali esa Yer yuzida o‘sib borayotgan aholi hayotining farovonligini ta’minlashga xizmat qiluvchi Raqamli Renessans barpo etiladi. Bu

davrga kelib, oziq-ovqat, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, epidemiologik va kosmik xavfsizlikni ta'minlash ustuvor ahamiyat kasb eta boshlaydi. Inson faoliyatining barcha sohasida miya (ong) kapitalining o'sishi va intellektualizatsiya jarayoni ro'y beradi.

Eng achinarli tomoni shundaki, hozirgi davrda mamlakatimizda bu borada ko'plab muammolar mavjud bo'lib, iqtisodchilarimiz tilida bizdagi iqtisodiy model rivojlangan mamlakatlar bizga raqamli bilimlar (dasturiy ta'minot mahsulotlari va boshqalar) hamda texnologiyalarning nusxasini (qimmat narxlarda) sotadi. Buning evaziga biz ularga xalqning tabiiy boyliklari (oltin, gaz, paxta, mevalar va boshqalar)ni sotamiz, bu orqali ularning boyligi oshadi, bizda esa, tabiiy va moddiy boyliklarimiz shunday faol foydalanish natijasida kamayib borishi kuzatilmoqda.

Vaholanki, rivojlangan mamlakatlar bugun tabiiy resurslarning atigi 3-5 foizidan foydalanib, qolganini kelajak avlodlar uchun keyingi ming yillikka saqlab qo'ymoqda. Ular ishlab chiqarayotgan va eksport qilayotgan asosiy mahsulot inson miya kapitali mahsuli, intellektual mahsulotlar hisobidan amalga oshirilmoqda. Bu borada, respublikamizning har bir shahar va tumanlarida mamlakat rahbarining tashabbusi bilan tashkil etilgan 205 dan ortiq IT maktab va IT istirohat bog'larining tashkil etilishi, shuningdek, ularni dasturiy mahsulotlar yaratish va eksport qilish yoki yoshlarning eng kam ta'minlangan qismini o'quv mashg'ulotlariga jalb etish va onlayn tarzda ish bilan ta'minlash bo'yicha muhim vazifalarni amalga oshirilayotgani bejiz emas. Zero, yuz minglab ishsiz yoshlari mavjud bo'lgan Xitoy va Hindiston ularni xorijda ishlashini ta'minlashni aynan internet orqali amalga oshirgani va bu orqali qashshoqlikni keskin kamaytirganligi tajribadan ma'lumdir.

Shu bilan birga, bu borada e'tibor qaratish lozim bo'lgan yana bir asosiy masala borki, bu jamiyatdagi har bir oilada sog'lom umr ko'rish va ularning aqliy qobiliyatni oshirishga erishishdir. Zero, "BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining 33 foizdan ortig'i (2,5 milliard kishi) yashirin ochlik (yetishmovchilik) tufayli yetarlicha intellektual rivojlanmaslikdan aziyat chekmoqda. Ularning 160 millionga yaqini bolalar" [8] hisoblanadi. Darhaqiqat, mutaxassislarning fikricha, "dunyoda insonlar aqliy qobiliyatining o'rtacha 10 foizidan ko'pidan samarali foydalanilmaydi. Bu ko'rsatkich AQSH, Yevropa Ittifoqi va Yaponiyada taxminan 50 foiz, Afrikada esa 1 foizdan kam" [8]. Bu bo'yicha rivojlangan mamlakatlarda, o'nlab markazlar faoliyat ko'rsatib, intellektual qobiliyatni yaxshilashga oid taklif va tavsiyalarini ishlab chiqmoqda, bu borada kitoblar nashr etilmoqda.

Zero, dunyoning azaliy qoidasi bor: nimagaki e'tiborli bo'lsang, omading o'shandan yurishadi. Faylasuflar ta'kidlaganidek, kimki sababni ko'p ushlasa, u ko'proq natijaga erishadi. Har tomonlama rivojlangan davlatlardagi odamlarga e'tibor bersak, ular mablag'larining asosiy qismini farzandlarining ta'lim olishiga

sarflashayotganiga guvoh bo‘lamiz. Ta’lim har qanday zamon va makonda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va farovonligini ta’minlashning asosiy dastagi vazifasini o‘tab kelgan. Insoniyat madaniy hayotning bugungi darajasiga kelguniga qadar nimagaki erishgan bo‘lsa, barchasi uning aql zakovati va bilimi mahsuli ekanligi kundek ravshan. Axborot asrida jahon iqtisodiyotining bilimlar iqtisodiyotiga tomon transformatsiyasi ta’limning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Bilimlar iqtisodiyoti sharoitida bilim eng asosiy resurs sifatida maydonga chiqadi. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda esa, intellektual mulkdorlar qatlamining o‘rni va roli bilan belgilanadi.

Bu kabi ulug‘ maqsad va vazifalar yurtimizda Uchinchi Renessansga zamin yaratadi. Davlatimiz rahbari e’tirof etganidek, “xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘shurgan hozirgi zamonda yangi O‘zbekiston yangidan-yangi yuksak marralarga erishishiga, insoniyat baxt-saodati, farovonligi va ravnaqi uchun o‘rnak bo‘lishiga shubha yo‘q” [7].

Adabiyotlar

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.-Toshkent.:O‘zbekiston, 2023.- 21 b
- 2.Ўзбекистон Республикаси «Таълим тўғрисида»ги қонуни, ЎРҚ-637-сон-23.09.2020 йил. <https://www.lex.uz>.
- 3.Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги, ПҚ -2909-сон.20.04.2017 йил. <https://lex.uz/docs/>.
4. Akramova Sh. Bilimlarga asoslangan iqtisodiyotda oily ta’limningo‘rni. Naseleniye Uzbekistana: sostoyaniye, problemyi perspektivy: Monografiya. - T., 2012. -.207 с.
- 5.МакаровВ.Л. Экономиказнаний: урокидляРоссии // Наукаижизнь, 2003.-№5.
- 6.The Knowledge Based Economy.Organization For Economic Cooperationand Development, Paris. 1996. – P. 9-10.
- 7.Bugungi O‘zbekiston – kechagi O‘zbekiston emas — Mirziyoyev O‘zbekistonda uchinchi Renessans davri yaratilayotganini ta’kidladi. <https://xs.uz/uzkr/post/bugungi-ozbekiston-kechagi-ozbekiston-emas-mirziyoyev-ozbekistonda-uchinchi-renessans-davri-yaratilayotganini-takidladi>.
- 8.Uchinchi Uyg‘onish davri tom ma’nodagi Raqamli Renessans demakdir. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. 25.12.2022 . <https://yuz.uz/news/>.
- 9.Материал из Википедии — свободной энциклопедии. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%91%>.

10. Intellektual mulkni himoyalashning huquqiy va tashkiliy asoslari takomillashadi.
-<https://yuz.uz/news/intellektual-mulkni-himoyalashning-huquqiy-va-tashkiliy-asoslari-takomillashad>

METHODOLOGY FOR TEACHING PUPILS TO WORK WITH INFORMATION

U.L.Yoziyeva

Turon universiteti Pedagogika kafedrasida dotsenti

Abstract. In today's information-rich world, it is critical for pupils to develop strong information literacy skills to effectively find, evaluate, and use information. This article presents a structured methodology for teaching information literacy to pupils, with a focus on the Uzbek educational context. The methodology emphasizes active learning, real-world application, collaboration, and the thoughtful integration of information literacy instruction throughout the curriculum. Implementing this approach can empower pupils with the information literacy skills needed for success in academia and beyond.

Keywords: information literacy, teaching methods, learning skills, Uzbekistan, education

Annotatsiya. Ma'lumotlarga boy zamonaviy dunyoda talabalar uchun ma'lumotlarni samarali izlash, baholash va ulardan foydalanish uchun kuchli axborot savodxonligi ko'nikmalarini rivojlantirish juda muhimdir. Ushbu maqolada O'zbekistonning ta'lim kontekstiga e'tibor qaratgan holda talabalarga axborot savodxonligini o'qitish metodologiyasi keltirilgan. Metodologiya faol o'qitish, amaliy qo'llash, hamkorlik va axborot savodxonligini o'qitishni o'quv dasturiga puxta integratsiyalashga qaratilgan. Ushbu yondashuvni amalga oshirish talabalarga akademiya va undan tashqarida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan axborot savodxonligi ko'nikmalarini berishi mumkin.

Kalit so'zlar: axborot savodxonligi, o'qitish usullari, o'quvchilar ko'nikmalari, O'zbekiston, ta'lim

Introduction. In the rapidly evolving information landscape of the 21st century, the ability to deftly navigate and make use of the vast array of available information is a fundamental skill for pupil success [1]. Information literacy - the capacity to locate, critically evaluate, and effectively use information - is crucial for pupils' academic performance, lifelong learning, and participation in an increasingly knowledge-based society [2].

However, many pupils lack proficiency in information literacy [3]. In Uzbekistan, there is a pressing need to equip pupils with these essential skills and systematically integrate information literacy instruction into the curriculum [4].

This article aims to present a structured methodology for teaching information literacy skills to pupils, tailored to the Uzbek educational context.

Methods and literature review. To develop the proposed teaching methodology, a comprehensive review of scholarly literature was conducted, focusing on research related to information literacy instruction, teaching methods, and the integration of information skills into curricula. Databases including JSTOR, ERIC, and Google Scholar were searched using relevant keywords.

The literature revealed several key themes and best practices. Multiple studies emphasized the effectiveness of active, pupil-centered learning approaches for teaching information literacy, such as problem-based learning and guided inquiry [5, 6]. Incorporating real-world applications and situating information literacy instruction within subject-specific contexts was also found to enhance pupil engagement and skill transfer [7].

Scholars underscored the importance of faculty-librarian collaboration in meaningfully integrating information literacy throughout the curriculum [8]. Additionally, the literature indicated that a combination of direct instruction, hands-on practice, and opportunities for reflection and assessment optimizes pupil learning [9].

Results and discussion. Drawing upon the insights gleaned from the literature review, the following multifaceted methodology is proposed for teaching information literacy skills to pupils:

a) ***Collaborative instructional design:*** Librarians and schools work together to thoughtfully integrate information literacy concepts and skills into coursework across disciplines. Learning outcomes, activities, and assessments are constructively aligned.

b) ***Active, inquiry-based learning:*** Engaging, pupil-centered pedagogical strategies are employed, such as guided inquiry, problem-based learning, and real-world information seeking scenarios. Pupils actively construct understanding through hands-on practice and application.

c) ***Scaffolded skill development:*** Information literacy instruction is sequenced and scaffolded throughout pupils' academic progression. Foundational skills are introduced early and reinforced, with more advanced competencies developed over time.

d) ***Authentic assessment:*** Pupils' information literacy skills are assessed using performance-based, authentic measures embedded within coursework. Formative assessments and reflective activities guide pupils' metacognitive growth as information literate learners.

e) **Supportive learning environment:** A learner-centered environment is fostered, with ample opportunities for practice, feedback, and reflection. Librarians and faculty provide coaching and guidance as pupils navigate the information landscape.

f) **Technology integration:** Educational technologies are thoughtfully incorporated to enhance information literacy instruction. Online tutorials, digital learning objects, and information management tools are used to support skill development and provide opportunities for self-paced, interactive learning.

g) **Collaborative learning:** Group work and peer-to-peer learning are facilitated to foster the development of collaborative information literacy skills. Pupils engage in collective problem-solving, information sharing, and peer feedback processes.

h) **Curricular mapping:** Information literacy learning outcomes are mapped across programs and levels of study to ensure systematic, programmatic skill development. Curriculum mapping helps identify opportunities for targeted skill instruction and reinforcement.

i) **Ongoing professional development:** Librarians and faculty engage in continuous professional learning to stay current with evolving information landscapes and pedagogical best practices. Professional learning communities and partnerships with information literacy organizations support this growth.

j) **Program evaluation and improvement:** The effectiveness of information literacy instruction is regularly assessed using a variety of data sources, including pupil learning outcomes, feedback from stakeholders, and institutional metrics. Continuous improvement processes are used to refine and optimize the teaching methodology over time.

The proposed methodology targets the development of key information literacy competencies, including the ability to:

- Articulate information needs
- Identify and navigate diverse information sources
- Critically evaluate information and its sources
- Synthesize and use information to create new knowledge
- Understand the ethical and legal aspects of information use

By integrating these skills across the curriculum through active, applied learning experiences, this approach facilitates deep, transferable learning. The collaborative, scaffolded nature of the methodology ensures that information literacy instruction is meaningfully contextualized and reinforced over time.

Authentic, performance-based assessments aligned with learning outcomes provide a robust means of evaluating pupils' information literacy skills. Importantly,

the emphasis on a supportive, reflective learning environment fosters pupils' metacognitive development as self-directed, lifelong learners.

Implementing this methodology requires commitment and collaboration from librarians, faculty, and administrators. Professional development opportunities should be provided to build instructional capacity and pedagogical knowledge around information literacy.

Considerations for successful implementation in the Uzbek context include adapting learning activities and assessments to be culturally responsive, and leveraging local information resources. Partnering with Uzbek libraries and information organizations can enhance the authenticity and relevance of learning experiences.

Challenges may include faculty buy-in, time constraints within existing curricula, and pupils' varying levels of prior knowledge and experience with information literacy. Strategies for addressing these challenges include demonstrating the value and relevance of information literacy skills, providing support and resources for faculty, and differentiating instruction to meet diverse learner needs.

The proposed methodology aligns with international standards and frameworks for information literacy, such as those developed by the Association of College and Research Libraries (ACRL) and the Society of College, National and University Libraries (SCONUL). Adapting and implementing these global best practices in the Uzbek context can help ensure that pupils develop internationally recognized information literacy competencies.

To support the widespread adoption of this methodology, institutional policies and resources should be aligned to prioritize information literacy as a core academic competency. This may include recognizing information literacy in institutional learning outcomes, allocating funding for instructional resources and technologies, and providing release time for faculty to engage in collaborative instructional design.

Assessment of information literacy learning outcomes is a critical component of this methodology. In the Uzbek context, culturally relevant and locally validated assessment instruments should be developed to accurately measure pupils' information literacy skills. Collaborating with Uzbek researchers and assessment experts can help ensure the reliability and validity of these measures.

The role of librarians is central to the successful implementation of this methodology. Uzbek librarians should be empowered as instructional partners and information literacy experts, with opportunities for professional growth and

leadership. Cultivating a strong professional identity and collaborative culture among librarians can enhance their impact and contributions to pupil learning.

Ultimately, the goal of this methodology is to develop pupils' information literacy skills as a foundation for lifelong learning, civic engagement, and professional success. By empowering pupils to critically engage with information and contribute to knowledge creation, this approach has the potential to transform not only individual learners but also the broader society.

Implementing this methodology at scale will require sustained commitment, resources, and collaboration among educators, administrators, and policymakers. It will also necessitate ongoing research to evaluate the methodology's impact and refine its components. By engaging in this important work, Uzbek educators can position pupils for success in an increasingly complex and information-intensive world.

Conclusions. In conclusion, the presented methodology offers a structured, pedagogically sound approach to teaching information literacy skills to pupils. By actively engaging pupils in authentic, scaffolded learning experiences across the curriculum, this methodology can foster the development of robust, transferable information literacy competencies.

Successful implementation requires collaboration, instructional design expertise, and ongoing professional development. By committing to this approach and adapting it to local contexts, Uzbek educators can empower pupils with the critical information literacy skills needed for academic, professional, and personal success in an information-rich world.

As information landscapes continue to evolve, ongoing research will be essential to refine and adapt this methodology. Future studies could examine the long-term impacts on pupil learning outcomes, as well as the effectiveness of specific instructional strategies and assessment techniques. By engaging in continuous improvement and sharing best practices, educators can ensure that pupils are well-equipped to navigate the complexities of the information age.

References

1. Bartlett, J. C., & Toms, E. G. (2005). How is information used? Applying task analysis to understanding information use. *Proceedings of the 38th Annual Hawaii International Conference on System Sciences*, 5, 105-115.
2. Bruce, C. S. (2004). Information literacy as a catalyst for educational change: A background paper. In P. A. Danaher (Ed.), *Proceedings of Lifelong Learning: Whose responsibility and what is your contribution?*, The 3rd

International Lifelong Learning Conference (pp. 8–19). Queensland, Australia: Central Queensland University Press.

3. Ziyaeva, D., & Abdullayev, U. (2020). Development of information literacy skills in higher education institutions of Uzbekistan. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(6), 112-117.

4. Yoziyeva U.L. Advanced technology of protection from harmful information in the teaching and educational process (on the example of primary education). *Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiya*. – Nukus: 2018, - 146 b.

5. Rakhmatullaev, M. A., & Karimova, B. S. (2020). Information literacy as a key factor in the formation of information culture of youth in Uzbekistan. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(04), 3844-3849.

6. Wenger, K. (2014). Problem-based learning and information literacy: A natural partnership. *Pennsylvania Libraries: Research & Practice*, 2(2), 142–154. <https://doi.org/10.5195/palrap.2014.61>

7. Korobkova, T. (2020). Guided inquiry design as effective group learning for information literacy instruction. *Continuing Professional Development & Workplace Learning*, 32(3/4), 161–172.

8. Kuhlthau, C. (2004). *Seeking meaning : A process approach to library and information services* (2nd ed.). Libraries Unlimited.

9. Oakleaf, M., Millet, M. S., & Kraus, L. (2011). All together now: Getting faculty, administrators, and staff engaged in information literacy assessment. *portal: Libraries and the Academy*, 11(3), 831-852.

PEDAGOGIK KONFLIKTOLOGIYA. ZAMONAVIY TA'LIMDA NIZOLARNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Xaitova Y.S.,

Turon universiteti dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik konfliktologiyaning mohiyati va obykti, fan sifatida rivojlanishi, predmeti, maqsadi, vazifalari bayon etilgan. Bo'lajak pedagoglarni pedagogik jarayonda yuzaga keladigan konfliktlar, ularning oldini olish yollari bilan tanishtirish, o'qituvchilarni pedagogik konfliktlarning nazariy asoslariga oid bilimlar bilan qurollantirish, pedagogik konfliktlarning oldini olish uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish, shuningdek, pedagogik konfliktlarni hal etish strategiya va usullarini qo'llay olish malakasini hosil qilishga oid masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: xavotirlanish, e'tibor, tahdid, munosabat, oqibat, aziyat chekish, xato, og'riq, uyqusizlik, hissiyot, talabchan, xarakter, o'smir, muloqot.

Abstract. This article describes the essence and object of pedagogical conflictology, its development as a science, its subject, purpose, and tasks. To familiarize future pedagogues with the conflicts that arise in the pedagogical process, ways to prevent them, to equip teachers with knowledge about the theoretical foundations of pedagogical conflicts, to form the necessary skills for the prevention of pedagogical conflicts, as well as to introduce strategies and methods for solving pedagogical conflicts. The issues related to the formation of the qualification to receive 'lly are covered.

Key words: anxiety, attention, threat, attitude, consequence, suffering, error, pain, insomnia, emotion, demanding, character, teenager, communication.

Kirish (Introduction). Pedagoglik kasbini tanlagan kishi, avvalo, sog'lom bo'lishi, so'zlarni to'g'ri va yaxshi talaffuz qila olishi, bosiq, asablari joyida bo'lishi, boshqalar bilan muomolada o'zini tuta olishi zarur. Shuningdek, bolalalarni yoqtirishi, ular bilan ishonch bilan ishlashga mayli borlik, xushmuomilalik, keng fikrlay olish, tashkilotchilik, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik kabi shaxsiy sifatlar mavjudligi ham kishining pedagogik ishga yaroqligini ko'rsatadi.

Pedagog o'z maqsadiga erishishi va o'quvchilar bilan munosabatga kirishishi uchun quyidagi sifatlarga ega bo'lishi lozim. Bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ishni sevish, psixologik va pedagogik ziyraklik, kuzatuvchanlik, tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniy, dilkashlik, talabchanlik, qat'iylik va maqsadga intilish, vazminlik o'zini tuta olish. Pedagog pedagogik maqsadga yo'naltirilgan

munosabat jarayonida o'quvchilarning xarakter xususiyatlariga ham alohida e'tiborini qarata olishi lozimdir.

Ta'limni tashkil etuvchi xodimlar bu pedagoglardir. Shunday ekan, ta'limni samarali amalga oshishida kimlar bilan birgalikda ishlashimiz o'rinli. Ma'lumki, pedagogik kasbda maqsadga erishish uchun o'qituvchining faqat bilimdon bo'lishi, u yoki bu fanini chuqur bilishining o'zi yetarli emas. O'qituvchi o'quvchilarga namuna hamdir. U bolalarning yosh va ruhiy xususiyatlarini e'tiboriga olib biror fanni qay darajada, qanday usullar bilan o'rganishni ham, bolalarni qanday tarbiyalash metodikasini ham, inson shaxsning shakllanishi qonuniyatlarini ham bilishi zarur.

Pedagog jamoa bilan ishlashni bilishi, guruh o'quvchilariga munosabati jarayonida bir xil muomalada bo'lishi, ota-onalar bilan ishlashi ish tizimining ajralmas qismidir. Ota-onalar bilan ishlash sinf rahbaridan ular bilan ishonchli va ishchan munosabati o'rnatish pedagog nazokat, chidam, izchil va qat'iy e'tiborini talab qiladi. Tarbiyaning umumiy va vazifalari ota-onalar jamoasi orqali muvoffaqiyatli hal qilinadi. Sinf rahbari ota-onalari tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlashga majbur qilib ogohlantirsa maqsadga erishishning qiyinchiliklarga duch kelmaydi.

Konfliktologiya — konfliktlarning kelib chiqishini, sabab va oqibatlarini o'rganuvchi fan bo'lib, u lotincha „conflictus“ – to'qnashuv, „logiya“ — ta'limot so'zlaridan olingan. Konfliktologiya har qanday darajadagi konfliktlarning kelib chiqishi, paydo bo'lishi, rivojlanishi, hal qilinishi va yakunlanishi qonuniyatlarini o'rganadigan fanlararo soha. Konfliktologiya falsafa, sotsiologiya, psixologiya, tarix, huquq, etika, iqtisod, menejment va boshqa bir qator fanlar bilan yaqin aloqada rivojlanadi. Tadqiqotning yo'nalishiga qarab, konflikt ijtimoiy dialektikaning ko'rinishi, ijtimoiy tizim va ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi omili, ijtimoiy qarama-qarshiliklar sifatida o'rganiladi. Odamlarning psixikasi va ongidagi kelishmovchiliklarni o'rganadi.

Konfliktning paydo bo'lishiga olib keladigan muayyan doiradagi muammolarni hal qilish konfliktning mohiyatini, konfliktologiya ob'yekti va predmetini aniqlash bilan bog'liq holda allaqachon paydo bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Konfliktologiya, yoki konfliktlar yechimi sohasi yangi rivojlanib kelayotgan va taraqqiy etayotgan fan sohalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, konfliktologiya sohasining nazariy asoslari, uning milliy xususiyatlari, ijtimoiy o'ziga xosliklari, konfliktlarning jamiyat hayoti bilan aloqadorligi, shaxslararo konfliktlar, konfliktlarning huquqiy aspektlari, mehnat jamoasidagi konfliktlar masalalari ko'pchilik tadqiqotchilarni qiziqtiradi. Konfliktologik kayfiyat va xususiyatlarni o'rganish jamiyatdagi inqirozlarning kelib chiqishi va ijtimoiy

to‘qnashuvlarning oldini olishga ko‘mak beradi. Konfliktning o‘zaro ta‘sir sub‘yekti — alohida odam, odamlar guruhi va odamlar jamoasi hisoblanadi

Adabiyotlar tahlili (Literature review). V.A.Suxomlinskiy maktabdagi nizolar haqida shunday yozadi: “O‘qituvchi va bola, o‘qituvchi va ota-ona, o‘qituvchi va jamoa o‘rtasidagi ziddiyat maktab uchun katta muammodir. Ko‘pincha mojaro o‘qituvchi bola haqida adolatsiz o‘ylashi bilan yuzaga keladi. Bola haqida adolatli o‘ylang, shundagina hech qanday nizolar bo‘lmaydi. Nizolardan qochish qobiliyati o‘qituvchining pedagogik donoligining tarkibiy qismlaridan biridir. Mojaroning oldini olish orqali o‘qituvchi nafaqat saqlaydi, balki jamoaning tarbiyaviy kuchini ham yaratadi». [5;20-23]

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Pedagogik konfliktologiyani o‘rganish predmeti – bu muammoli vaziyatning paydo bo‘lishi va rivojlanishining tabiati, uning rivojlanish darajasini, pedagogik faoliyat sohasida unga ta‘sir o‘tkazishning mumkin bo‘lgan usullarini o‘lchashdir.

Pedagogik konfliktologiyaning predmeti – bu pedagogik faoliyatda ziddiyatlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va yakunlanish faktlari, mexanizmlari va qonuniyatlari hisoblanadi.

Pedagogik konfliktologiyaning obyekti – ta‘limdagi tizimli, protsessual va samarali nizolar. Usullari:

1. Strukturaviy va funksional – nizoli o‘zaro ta‘sirning asosiy elementlarini aniqlashga, ularning har birining rolini aniqlashga yordam beradi.

2. Protssessual-dinamik – konflikt rivojlanishining asosiy bosqichlari yoki bosqichlarini aniqlash.

3. Tipologiya usuli – ziddiyatli shaxslarning ikkala turini va nizoli ta‘sir o‘tkazish shakllarini guruhlashni, tasniflashni ta‘minlaydi.

4. Prognostik – konfliktning o‘zaro ta‘sirini rivojlantirishning mumkin bo‘lgan variantlarini, shuningdek, nizoni hal qilishning maqbul yo‘llari va usullarini tavsiflaydi.

5. Permissiv – nizoni hal qilishning asosiy strategiyasi va taktikasini o‘rganadi.

Natijalar va muhokama (Result and Discussions). Pedagogik nizolar subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan mojarolar quyidagi o‘qituvchilar toifalari o‘rtasida yuzaga keladi:

- yosh o‘qituvchilar va ish stajiga ega o‘qituvchilar o‘rtasida;
- turli fanlarni o‘qitadigan o‘qituvchilar o‘rtasida (masalan, fiziklar va til mutaxassislari o‘rtasida);
- bitta fanni o‘qitadigan o‘qituvchilar o‘rtasida;
- unvonga, rasmiy maqomga ega bo‘lgan o‘qituvchilar (yuqori toifadagi o‘qituvchi, uslubiy birlashma rahbari) va ularga ega bo‘lmaganlar o‘rtasida;

- boshlang'ich va o'rta o'qituvchilar o'rtasida;
- bolalari bitta maktabda o'qiydigan o'qituvchilar va ushbu bolalarga dars beradigan o'qituvchilar o'rtasida.[3;52]

Tashkiliy nizolar o'qituvchilarning ta'lim muassasasi ma'muriyatining resurslarni (o'quv xonalari, texnik o'quv qo'llanmalari) xolis yoki notekis taqsimlanishi to'g'risida qaroridan noroziligi tufayli yuzaga kelishi mumkin.

Pedagogika konfliktlar ziddiyatlarni, to'qnashuv, qarama-qarshilik mojorolarni pedagoglar va o'quvchilar o'rtasida yuzaga kelmasligi uchun o'qituvchi ziddiyatlarini olidini ola bilishi lozimdir. Zamonaviy tarzda biz konfliktlarni boshqarishimiz ziddiyatlarni munosabatlarini to'g'ri yechimini topishimiz kerak.

Zero, birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: "Ilm" ma'rifat biz uchun bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, yo'qolmaydi ham. Aql zakovatli yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga yetisha olamiz. Mustaqil O'zbekistonning kelajagi bo'lgan sog'lom avlodni tarbiyalash nozik, nihoyatda katta diqqat e'tiborni talab qiladigan, ichki ziddiyatli jarayondir. Shunday ekan, o'qituvchi, o'quvchi va talabaning shakllanish jarayonini zo'r havas va sinchkovlik bilan kuzatish lozim. Uning pedagogik jarayoni barqaror ekan, pedagogik bilim va mahorat egasi bo'lishi kerak.

Jamiyatimiz keng qamrovli bo'lib, u yerda turli xil xarakterdagi shaxslarni uchratishimiz mumkin. Shaxslararo konfliktlar, albatta, faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Masalan, guruh misolida ko'ramiz. Tasavvur qiling, bir guruhda iqtidorli talantli o'quvchilarimiz bor. Ular har bir mavzuni yaxshi o'zlashtirib mustaqil fikrlarini bildira oladilar, fikr doiralari keng bo'lganligi sababli u o'quvchilar o'rtasida to'qnashuv, majoro kelishmovchilik, konfliktlar yuzaga keladi. Har bir guruh a'zosi o'z fikrini to'g'riligini isbotlay oladilar. Bunday holatlarda konfliktni boshqarish o'qituvchi tomonidan bartaraf etiladi. Har bir sohada o'quvchilar o'rtasida konfliktlarni ko'rishimiz mumkin.

Muloqot pedagogik konfliktlarning yechish va boshqarish usullari. Muloqotdagi ziddiyat shakllari turlichadir. Masalan, yuzma-yuz yoki texnik vositalar (telefon, telegraf va shunga o'xshash vositalar) bilan amalga oshiriladi. Oilada konflikt muloqot ayrim a'zolar o'rtasida bo'lishi mumkin. O'zaro munosabatlarga kirishilganda konflikt yuzaga kelmasligining asosiy sabablari, o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Bu jarayonning murakkabligi, kerak bo'lsa, o'zaro til topishishi bir-birini tushuna olish lozim.

O'qituvchilarni psixologik muvofiqligi nuqtayi nazaridan bitta parallel ravishda muvaffaqiyatsiz tanlash; yoki o'qituvchilarni bilvosita "itarish" natijasi

bo'lishi mumkin (darslarni o'qish natijalarini solishtirish, intizomni bajarish, bir o'qituvchini boshqasini kamsitish hisobiga ko'tarish yoki kimdir bilan taqqoslash).

O'zaro da'volarning mohiyatini quyidagicha umumlashtirish mumkin: predmet o'qituvchilari ularga boshlang'ich sinflardan kelgan bolalar yetarlicha mustaqil emas va kattalarning haddan tashqari homiylikiga odatlangan degan fikrni bildiradilar. O'z navbatida, boshlang'ich sinf o'qituvchilari bolalarni o'qish, hisoblash, yozish va bolalarga e'tibor bermaslik va iliqlik uchun ularni o'qitishni o'rgatish uchun ko'p kuch sarflaganliklarini achchiq- lanish bilan aytadilar. G.M. Andreeva o'qituvchilar tarkibidagi guruhlararo ziddiyatlarni tartibga solish imkoniyatini xatti-harakatlarning buzg'unchilik, dushmanlik, salbiy stereotiplarini guruhlararo tajovuzni, mojaroni ro'yobga chiqaradigan va o'zaro tushunishni o'rnatishga xalaqit beradigan xatti-harakatlarning konstruktiv strategiyasi bilan almashtirishda ko'radi.[2;117]

Xulosa (Conclusion). Xulosa qilib aytganda, kichik maktab yoshidagi bolalar juda taqlidchan bo'lishadi. Asardagi yoki ertaklardagi ijobiy qahramonlarning sifatlarini o'zlarida mujassamlashtirishga harakat qiladilar, ular harakatlarida ijobiy tomonlar ko'rinadi. Demak, ta'lim-tarbiya jarayonlari birgalikda amalga oshiriladi. Hozirgi kunda tinglovchi va o'quvchilarimiz faqat o'qituvchilarning bilim saviyasini kuzatibgina qolmay, o'qituvchining ma'suliyatliliigi, qobiliyatliliigi, ishonchliligi, pedagogik mahorati qobiliyati, samimiyligi, ta'lim tizimiga qay tarzda yondashishiga ham e'tiborlarini qaratadilar. Ta'lim-tarbiyaning samarasi, ta'sirchanligi, avvalo, o'qituvchiga, uning bilim saviyasiga, kasbiy tayyorgarligiga, pedagogik qobiliyat va mahoratiga bog'liqdir. O'qituvchi ijodiy fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan bo'lishi, o'z kasbi va bolalarni yaxshi ko'radigan, insonparvar, adolatli, talabchan, pedagogik odobli, har bir o'quvchisi ulg'ayib kelajakda yaxshi inson bo'lishiga ishonadigan, ularning barkamol shaxs, ishbilarmon kishi bo'lib yetishishiga ko'maklashadigan mutaxassis bo'lmog'i lozim.

Adabiyotlar

1. Воронин Г.Л. Конфликт в школе. Социологические исследования №3, 1994 г.
2. Лисеский К.С. Предопределение межличностных конфликтов в системе отношений старше классников а/р диссертации м., 1994.
3. Рыбакова М.М. Конфликт и взаимодействие в педагогическом процессе. - М.: Просве подросток, 1991.
4. Подластий И.Р. Педагогика. – М.: Vldos, 2003. у.

5. Musurmonov R. Musurmonova M. Umumiy oʻrta talim maktablarida pedagogik konfliktlar va ularning profilaktikasi muammolari xucusida. “Xalq ta’limi” j. T.: 2021. № 26 20-23.

6. Jabborova Onakhon Mannapovna. (2019). Psychological and pedagogical foundations of the formation of the artistic perception of students in secondary schools. European journal of research and reflection in educational sciences, 7(10), 914.

7. Jabborova Onakhon Mannapovna, Ismoilova Dilafruz Mukhiddinovna. (2020, may). Optimization of primary education. ACADEMICIA: An international multidisciplinary research journal, 10(5), 1229-1232.

8. Mardonov Sh.K., Jabbarova O.M. Objectives of the lessons of visual arts in primary school. Academic research in educational sciences, Issue 3, 2020, pp 862870.

QARSHI VOHASI SHAROITIDA SHAMISSO ARNIKASINING FENOLOGIYASI

Samatova Sh.A.,

Turon universiteti tabiiy fanlar kafedrasi dotsenti

Eshquvvatova D.K.

Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada Qarshi vohasiga introduksiya qilingan dorivor o‘simlik Shamisso arnikasining introduksiya sharoitida mavsumiy rivojlanish maromini o‘rganish natijalari keltirilgan. O‘simlik umrining dastlabki yillarida bahorgi-yozgi-kuzgi fenoritmotipga mansubligini namoyon qilishi aniqlangan.

Key words: introduction, vegetation, budding, flowering, rosette, aboveground organs, underground organs.

Abstract. The article presents the results of the study of the seasonal development of the medicinal plant Arnica Chamisso, introduced into the Karshi oasis. It was established that the plant in the first years of life belongs to the spring-summer-autumn phenorhythmotype.

Kalit so‘zlar: introduksiya, vegetatsiya, g‘unchalash, gullash, to‘pbarg, yerusti organlar, yerosti organlar

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 maydagi “Dorivor o‘simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-251-son qarori va uni amalga oshirishga oid qabul qilingan boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda dorivor o‘simliklarni madaniy holda yetishtirish, dorivor o‘simliklarning madaniy plantatsiyalarini barpo etish kabi vazifalar belgilab berilgan.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda O‘zbekiston florasida uchramaydigan, Yer sharining boshqa floristik oblastlaridan introduksiya qilinayotgan va iqlimlashtirilayotgan dorivor o‘simliklarni o‘rganish sohasida ko‘pgina tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. *Arnica chamissonis* Less. shunday dorivor o‘simliklardan biri bo‘lib hisoblanadi. Murakkabguldoshlar (Asteraceae) oilasiga mansub bu o‘simlik Shimoliy Amerikaning endemigi bo‘lib, boreal va tog‘li hududlarda yovvoyi holda o‘sadi (1). O‘z vatanida ko‘p yillik o‘tsimon hayotiy shaklga ega. Poyasi kam shoxlanuvchi tik, 20 sm dan 80 sm gacha o‘sadi. Lansetsimon-elliptik shaklli barglar hosil qiladi. Ilzizoldi barglari o‘troq, tukchalar bilan qoplangan, poyaning o‘rtasidagi va uchidagi barglari bandli. Gullari 2-3 sm diametrli savatcha to‘pgulda yig‘ilgan.

O‘simlikdan farmatsevtika sanoatida va kosmetika mahsulotlari ishlab chiqarishda keng foydalaniladi (2).

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu o‘simlik 2023-yilda Qarshi vohasiga introduksiya qilindi. Introduksiya sharoitida uning fenologiyasini o‘rganish maqsadida 2023-2024-yillarda kuzatish ishlari olib borildi. O‘simlikning fenologiyasi botanika bog‘larida umumqabul qilingan metodika bo‘yicha o‘rganildi va quyidagi fenofazalarning muddati aniqlandi: vegetatsiyaning boshlanishi (urug‘dan ekilganda o‘simlikning yer ustiga o‘sib chiqishi); g‘unchalashning boshlanishi va tugashi; gullashning boshlanishi, yoppasiga gullash va gullashning tugashi; urug‘lar hosil bo‘lishining boshlanishi va tugashi; barglar rangining o‘zgarishi. O‘simlikning fenoritmotipi R.A. Karpisonova (1985) ga ko‘ra asoslandi (3).

Natijalar va muhokama. Qarshi vohasida *A. chamissonis* fenologiyasi o‘rganilgan 2023-2024-yillardagi ob-havo ko‘rsatkichlari tahliliga ko‘ra, 2023-yilning qishi 2024-yilga nisbatan sovuqroq, yozi esa nisbatan issiqroq kelgan. Jumladan, 2023-yilda yanvar oyida havo haroratining $-12\text{ }^{\circ}\text{C}$ gacha tushib ketganligi qayd qilingan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkichlar $+4\text{ }^{\circ}\text{C}$ ni tashkil qilgan. 2024-yilda yog‘ingarichilik ham nisbatan mo‘l bo‘lgan. Fevral oyining 2023-yildagi o‘rtacha harorati kunduzi $+13$, kechasi $+5\text{ }^{\circ}\text{C}$ ni, 2024-yilda mos ravishda $+11$ va $+4\text{ }^{\circ}\text{C}$ ni tashkil qilgan. Har ikkala yilning bahor oylari deyarli doimgidek kelgan. Birgina mart oyida katta farq kuzatilgan. 2023-yilning mart oyi 2024-yilnikiga nisbatan ancha issiqroq bo‘lgan. 2023-yilda mart oyining birinchi o‘n kunligida havo harorati $+30\text{ }^{\circ}\text{C}$ gacha, aprelda $34\text{ }^{\circ}\text{C}$ gacha, mayda esa $38\text{ }^{\circ}\text{C}$ gacha ko‘tarilgan. 2024-yilda bu ko‘rsatkichlar mos ravishda $+29$, $+29$, $+36\text{ }^{\circ}\text{C}$ ni tashkil qilgan. 2023-yil aprelda havo 11 kun, mayda 22 kun havo haroratining $30\text{ }^{\circ}\text{C}$ dan oshishi kuzatilgan. 2024-yilda esa bu ko‘rsatkich mos ravishda 3 va 11 kunni tashkil qilgan. 2024-yil mart-may oylarida 2023-yilga nisbatan yog‘ingarichilik ham ancha ko‘p bo‘lgan.

2024-yilda yoz nisbatan kechroq kelgan. Yozning eng issiq oyi hisoblangan iyulning o‘rtacha havo harorati 2023-yilda kunduzi $+38$, kechasi $+23\text{ }^{\circ}\text{C}$, 2024-yilda kunduzi $+37$, kechasi $+23\text{ }^{\circ}\text{C}$ bo‘lgan. 2023-yil yoz oylarida havo haroratining $40\text{ }^{\circ}\text{C}$ dan oshishi kuzatilgan kunlar soni 21 kunni tashkil qilgan va iyulning uchinchi o‘nkunligida $+46\text{ }^{\circ}\text{C}$ qayd qilingan. 2024-yilda havo haroratining bunday ko‘tarilishi 13 kunni tashkil qilgan va maksimal ko‘tarilish 27-28-iyul kunlari qayd qilingan ($+42\text{ }^{\circ}\text{C}$).

Kuz oylari doimgidek kelgan. Haroratning $10\text{ }^{\circ}\text{C}$ dan pasayishi 2023-yilda noyabr oyining dastlabki kunlaridan, 2024-yilda 8-noyabr kunidan boshlangan. 2023-yil dekabrning ikkinchi yarmida kechasi haroratning $-1\text{ }^{\circ}\text{C}$ ga tushishi qayd qilingan.

Qarshi vohasida *A. chamissonis* vegetatsiyasini fevralda boshladi (jadval). Qishning iliq kelishi va o‘simlikning yoshi vegetatsiyani 10-12 kunga ertachi boshlanishiga sabab bo‘ladi. G‘unchalash davri mart oyining birinchi kunlaridan boshlanib, dastlabki gullarning ochilishi martning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Oxirgi g‘unchalar avgust oyining ikkinchi yarmida shakllanib, gullash sentabr oyining ikkinchi yarmigacha davom etadi. Dastlabki gullarda urug‘larning hosil bo‘lishi uchun 20-25 kun kerak bo‘ladi. O‘simlikda iyun oyining birinchi o‘n kunligida dastlabki urug‘lar hosil bo‘ladi. Urug‘lash fazasi oktabrning ikkinchi yarmigacha davom etadi.

Jadval

Qarshi vohasi sharoitida *Arnica chamissonis* ning fenologiyasi

Fenofazalar		Yillar	
		2023	2024
Vegetatsiya boshlanishi		27.02.*	15.02.**
G‘unchalash	boshlanishi	05.05.	02.05
	tugashi	08.08.	15.08
Gullash	boshlanishi	16.05.	18.05
	yoppasiga	30.05.	30.06
	tugashi	09.09.	16.09
Urug‘lash	boshlanishi	09.06.	02.06
	tugashi	10.10.	16.10.

* umrining birinchi yili

** umrining ikkinchi yili

Xulosa. Shunday qilib, Qarshi vohasi sharoitida o‘simlik umrining dastlabki yillarida bahorgi-yozgi-kuzgi fenoritmotipga mansubligini namoyon qildi. Kech kuzda bir yoshli o‘simlikning yerusti organlari nobud bo‘lib, erta bahordan yangi poyalar o‘sib chiqqanligi kuzatildi. O‘simlik uchun bahor va kuz oylari qulay ekanligi, yoz oylarining quruq va issiq sharoitida gullash intensivligining pasayganligi aniqlandi. Bu holat mo‘tadil iqlimli mamlakatlardan keltirib introduksiya qilingan ko‘pchilik o‘simliklarda kuzatilishi qayd etilgan (4, 5, 6).

Adabiyotlar

1. Магуайр, Б. 1943 г. Монография рода *Arnica* (Senecioneae, Compositae). Бриттония, №4: - С. 386–510.
2. Flora of North America: *Arnica chamissonis* // Vol. 21 Page 368, 372. URL:http://www.efloras.org/florataxon.aspx?flora_id=1&taxon_id=250066109.
3. Карписонова Р.А. Травянистые растения широколиственных лесов СССР: эколого-флористическая и интродукционная характеристика. М., 1985. 204 с.
4. Ёзиев Л.Х. Опыт интродукции древесных растений в Южный Узбекистан. – Ташкент: Фан. 2001. -211 с.
5. Berdiyev M., Samatova Sh.A. Fruits of Japanese quince are a valuable commodity for the food and pharmaceutical industry //Acta Biologica Slovenica. – 2024. – Т. 67. – №. 1.
6. Саматова Ш. А., Мейлиева Н. И. Результаты первичной интродукции *Potentilla indica* (Andrews) T. Wolf в экстрааридных условиях Каршинского оазиса //Научные труды Чебоксарского филиала Главного ботанического сада им. НВ Цицина РАН. – 2020. – №. 15. – С. 156-157.

SUT SIFATINI YAXSHILASHDA BIOSTIMULYATORLARNING AHAMIYATI

Jumaqulova Go'zal Sayfiddin qizi

Turon universiteti Tabiiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

guzaljumaqulova0407@gmail.com

Annotatsiya. Kavsh qaytaruvchi hayvonlarni oziqlantirishda optimal rumen muhitini yaratish uchun biostimulyatorlar, modifikatorlar, antioksidantlar, fermentlar va fitobiotiklar kabi turli xil biologik xususiyatlarga ega ozuqa qo'shimchalari ishlatilgan. Tadqiqotlarda biostimulyatorlarning sut ishlab chiqarishga ta'sirini va qoramollarning immun tizimining holatini o'rganildi. Kavsh qaytaruvchi hayvonlarning ozuqaviy sifati yaxshilanishi, parchalanadigan va parchalanmaydigan qismlar miqdori bo'yicha optimallashtirilishi kerak. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, fermer xo'jaliklarida bu muammoni hal qilish yo'llaridan biri kavsh qaytaruvchi hayvonlarning ichak mikroflorasiga probiotik preparatlarning maqsadli ta'sirini o'rganishdir. Hayvonlarda metabolik kasalliklarning oldini olish dietali oziq moddalardan oqilona foydalanish orqali osonlashadi. Sut va sut mahsulotlari inson hayotida muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari biostimulyatorlarning hayvonlarning tanasiga kiritilishi sut ishlab chiqarishni o'zgartirishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: chorvachilik, sut va sut mahsulotlari, energiya manbai, ozuqa, ferment, zootexnik

Kirish. Chorvachilik qishloq xo'jaligining strategik muhim tarmoqlaridan biridir. Sut qayta ishlanib, sigirlardan sut va sut mahsulotlari olinadi, masalan, sariyog' energiya manbai va yog'da eriydigan vitaminlar; kefir foydali laktobakteriyalar va oson hazm bo'ladigan sut oqsili; pishloq oqsil, kalsiy va boshqalar manbai hisoblanadi [1]. Sut va sut mahsulotlari inson ratsionida muhim oziq moddalar manbayi hisoblanadi, chunki ular tarkibida bir qator zarur moddalar va boshqa biologik faol komponentlar mavjud. Aholining sut mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish va importga qaram bo'lmaslik uchun sigirlarning sut mahsuldorligini oshirish zarur. Bu masalada asosiy rol ovqatlanishga beriladi [2]. Oziq-ovqat qo'shimchalarining ijobiy xususiyatlari ko'pchilikka ma'lum. Chorvachilikda ko'p yillardan buyon turli mineral, vitamin, oqsil qo'shimchalari, biostimulyatorlar va boshqalar unumli foydalanilib kelinmoqda [4]. Bu borada biologik faol xususiyatlarga ega bo'lgan ozuqa qo'shimchalari (vitaminlar, minerallar, tabiiy birikmalar, masalan, gumin kislotalari va boshqalar) ayniqsa qimmatlidir. Ular nafaqat hayvonlarning ozuqaviy ratsionini etishmayotgan ozuqa

moddalari bilan to'ldiradi, balki metabolik jarayonlarning faollashtiruvchisi sifatida ham xizmat qiladi, keng qamrovli butun organizmga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [5]. Ma'lumki, chorvachilikni jadallashtirish va sanoat texnologiyalarini qo'llash sigir tanasiga yukni sezilarli darajada oshiradi va uning funksional imkoniyatlarini keskinlashtiradi. Sutning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlariga va ularning biologik qiymatiga ta'sir qiluvchi tashqi sharoitlar majmuasi orasida sog'in mollarni boqishga alohida e'tibor berilishi kerak. Bundan tashqari, ozuqa nafaqat sut mahsuldorligi va sifatiga bevosita ta'sir qiladi, balki bilvosita immunitet tizimiga ham ta'sir qiladi [3].

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi biostimulyatorlarning sut ishlab chiqarishga ta'sirini va qoramollarning immun tizimining holatini o'rganish edi.

Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Ozuqa biostimulyatorining sigirlarning sut mahsuldorligiga va xom sut sifatiga ta'sirini aniqlash.
2. Biostimulyatordan foydalanganda sigirlar qonining biokimyoviy parametrlarini o'rganish.
3. Yuqori mahsuldor sigirlar ratsioniga biostimulyatorlarni kiritishning iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlar klinik-fiziologik, mikrobiologik, veterinariya-sanitariya, zootexnika va matematik usullardan foydalangan holda olib borildi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda sut chorvachiligi chorvachilikning eng daromadli tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Sut – bu eritma, suspenziya yoki suvli emulsiya ko'rinishidagi 250 tagacha turli moddalarni o'z ichiga olgan murakkab biologik sekretsia. Bu moddalarning barchasi inson o'sishi, rivojlanishi va salomatligi uchun zarurdir, shuning uchun sut va sut mahsulotlari to'liq va muvozanatli ovqatlanishning muhim qismidir. Sut suv va qattiq moddalardan iborat bo'lib, ularning asosiy qismini sut yog'i, sut oqsillari, sut shakari (laktoza) va tuzlar tashkil qiladi. Sut chorvachiligi O'zbekiston oziq-ovqat majmuasida an'anaviy ravishda yetakchi o'rinni egallaydi. Bu inson ratsionida sut va sut mahsulotlari mavjudligi bilan bog'liq. Ma'lumki, so'nggi yillarda sigir sutini ko'paytirish muammosining bir qator fiziologik jihatlarini tushunishda muvaffaqiyatga erishildi va ularning yechimlaridan biri biologik faol dorilarni qo'llashdir. Ushbu dorilardan biri to'qimalarning biostimulyatorlari biogen stimulyatorlar hayvonning tanasiga kirib, metabolik jarayonlarni faollashtiradi, vosita ko'nikmalarini kuchaytiradi va oshqozon-ichak traktining sekretor funksiyasini, tananing umumiy qarshiligini oshiradi, bu sigirlarning sut ishlab chiqarishining ko'payishiga olib keladi, shuning uchun biostimulyatorlarning turli dozalari mavjud. Tajribalarda 2021-yilda

Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi fermer xo‘jaligida 32 bosh sog‘in sigir bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Nazorat va tajriba guruhlaridagi hayvonlarga bug‘doy somoni (0,7 kg), makkajo‘xori silosi (24,0 kg), bug‘doy pichan (49,0 kg), to‘liq ozuqa (14,58 kg), optigen (0,05 kg) va beda pichanlari (6,50 kg) berildi. Eksperimental guruhlarining hayvonlari, asosiy dietaga (BR) qo‘shimcha ravishda, to‘liq ozuqaning bir qismi sifatida kuniga 300 g dozada mineral oziqlanish regulyatorini oldi.

Natijalar va muhokama. Ozuqani zootexnik tahlil qilish uchun qabul qilingan sxema bo‘yicha ozuqaning ozuqaviy qiymatini tashuvchisi yemning quruq moddasi hisoblanadi. Ozuqaning quruq moddalari qancha ko‘p bo‘lsa, uning ozuqaviy qiymati shunchalik yuqori bo‘ladi. Ma‘lumki, quyma yemlarning quruq moddalari iste‘moli ulardagi metabolik energiya konsentratsiyasiga va hosildorlik darajasiga bog‘liq. 30 kun davomida eksperimental hayvonlar mushak ichiga har biriga 10 mldan to‘qimalar va peptid biologik faol moddalarning turli dozalari yuborildi. Mualliflar biostimulyatorlarni qabul qilgandan so‘ng, tajriba hayvonlari nafaqat sut miqdorini, balki vaznini ham oshirganini payqashdi. Biostimulyator kiritilgandan so‘ng, eksperimental sigirlardan qon olindi va qonning gematologik parametrlari o‘rganildi. (1-jadvalda keltirilgan)

Butun tajriba davomida nazorat hayvonlari va tajriba guruhlarida leykositlar konsentratsiyasi fiziologik me‘yor doirasida, nazorat guruhida esa $9,4 \cdot 10^9/l$ va o‘rtacha 9,8 ni tashkil qildi. Tajriba guruhlarida $10^9/l$. Nazorat va eksperimental guruhlarda tajriba boshida va oxirida limfositlar soni fiziologik me‘yorda bo‘lgan, sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmagan. Nazorat guruhi – butun davr uchun o‘rtacha tarkib – 34%. Tajriba guruhlarini: I – 27,5%; II – 27,9%; III – 29,05% nisbatida bo‘lgan.

1-jadval Tajriba sigirlarining gematologik qon parametrlari

Ko‘rsatgichlar	Birlik	Guruh			
		Nazorat	Tajriba		
			I	II	III
Tajribaning 1- kuni (n=12).					
1	2	3	4	5	6
Leykotsitlar	$10^9/l$	9,27±0,54	9,91±0,61	10,94±0,85	9,77±0,60
Limfotsitlar	%	28,38±2,20	27,09±2,58	25,87±2,77	28,41±2,19
Bazofillar	%	10,57±0,67	9,17±0,57	11,19±1,75	9,41±0,82
Granulotsitlar	%	51,15±2,72	49,57±2,36	51,77±3,24	50,13±2,94
Eritrotsitlar	$10^{12}/l$	9,45±0,58	8,70±0,30	9,65±0,62	9,17±0,60
Gemoglobin	g/dl	13,79±1,60	10,25±0,23*	10,16*±0,21	13,39±1,67
Trombotsitlar	$10^9/l$	478,83±73,28	317,58±45,01	359,92±54,26	376,92±80,15

Tajribaning oxirgi kuni, 60-kuni (n =12)					
Leykotsitlar	109/l	9,85±0,58	9,02±0,43	9,93±0,57	9,78±0,57
Limfotsitlar	%	29,52±2,02	27,84±1,96	29,80±2,07	29,62±2,15
Bazofillar	%	8,89±0,65	9,08±0,33	8,56±0,50	8,63±0,52
Granulotsit	%	50,14±2,34	44,56±1,74	44,87±1,76	44,15±1,68*
Eritrotsitlar	1012/l	8,66±0,29	8,08±0,25	8,16±0,22	8,12±0,22
Gemoglobin	g/dl	10,41±0,24	11,14±0,46	10,03±0,24	9,95±0,25
Trombotsitlar	109/l	293,25±41,72	340,46±46	295,42±38,76	286,17±36,30

Tajribaning boshida va oxirida bazofillar ulushi pasayish tendentsiyasiga ega, ya'ni nazorat guruhida 15,9% ga kamayganligini ko'rish mumkin. Eksperimental guruhlarda bu ko'rsatkich mos ravishda 0,99%, 23,4 va 8,3% ni tashkil etdi. Barcha ko'rsatkichlar fiziologik me'yorda bo'lgan, sezilarli o'zgarishlar kuzatilmagan; Tajribaning butun davri davomida granulotsitlar soni nazorat guruhiga nisbatan mos ravishda 11,2%, 10,5 va 11,9% ga kamaygan, ammo fiziologik me'yor doirasida bo'lgan. Tajribaning boshida eritrotsitlar sonining tarkibi fiziologik me'yorning maksimal qiymatlarida (5-10 * 1012/l) bo'lgan, tajriba oxirida u o'rtacha qiymatlarga tushib ketgan, ya'ni, nazorat qilish guruhida – 8,65 (1012/l), tajriba guruhida – 8,12 (1012/l). Tajribaning boshida eksperimental guruhlarining gemoglobin darajasi nazorat guruhidagi qiymatlardan past edi: I da – 25,6% ga; ikkinchi o'rinda – 26,2 foiz; III da - 2,9% ga. Nazorat guruhi va III eksperimental guruhning ko'rsatkichlari tajriba boshida fiziologik me'yorlardan yuqori edi. Tajriba oxirida barcha ko'rsatkichlar fiziologik me'yor doirasida bo'lib, o'rtacha qiymatga ega edi: nazorat guruhi – 10,40 g/l va tajriba guruhlari - 10,37 g/l. Tajribaning butun davri davomida gematokrit ko'rsatkichlari fiziologik me'yorda (35-45%) edi va sezilarli o'zgarishlar kuzatilmadi. O'rtacha ko'rsatkich: nazorat guruhi – 39,48%; I - 35,5%; II – 40,39%; III – 39,75%.

Xulosa. Tadqiqotlar biostimulyatorlarning yuqori mahsuldor sigirlarning mahsuldorligi va metabolizmiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Ma'lumki, sog'in mollarning yuqori mahsuldorligini ta'minlashda oziqlantirish va natijada biostimulyatorlarni joriy etish yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Bu laktatsiya davrida eksperimental hayvonlar tanasining funksional faolligi oshishi bilan izohlanadi; ko'p miqdordagi bakteriyalar, zamburug'lar, protoza tomonidan oziq-ovqat fermentatsiyasining murakkab jarayonlari, shuningdek, ozuqa moddalarining so'rilishi va yangi moddalarning sintezi mavjudlari o'rmonda chuqur joylashgan. Bularning barchasi hayvonni zarur energiya va oziq moddalar bilan ta'minlaydi, organizmda sodir bo'ladigan fiziologik jarayonlarga ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida metabolik, ishlab chiqarish va reproduktiv jarayonlarni kuchaytirishga yordam beradi. Ushbu jarayonlarda muhim nuqta – turli xil biostimulyatorlar

yordamida dietani sozlash orqali oshqozon hazm qilishni nazorat qilish qobiliyati. Biostimulyatorlar hayvonlarning immunitetini mustahkamlaydi va ularning mahsuldorligini oshiradi. Chorvachilikni intensivlashtirish va sanoat texnologiyalaridan foydalanish sigir tanasiga yukni sezilarli darajada oshiradi va natijada uning funktsionalligi ravshanligini oshiradi. Texnologik sharoitlarni o'zgartirish, kompozitsiya har doim ham hayvonlarning fiziologik ehtiyojlariga mos kelmaydi va bu holda metabolik kasalliklarga asoslangan kasalliklar paydo bo'ladi. Metabolik buzilishlar natijasida yuzaga keladigan kasalliklar natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar (sut, go'sht) narxi keskin oshadi. Sut parametrlariga va ularning biologik qiymatiga fizik-kimyoviy ta'sir ko'rsatadigan tashqi sharoitlar to'plami orasida sog'in mollarni boqishga alohida e'tibor berilishi kerak, chunki oziqlanish nafaqat mikrobiologik, balki sut mahsuldorligi va sifatiga bevosita va bilvosita ta'sir qiladi. Bundan tashqari, sog'in sigirlarni to'liq va muvozanatli oziqlantirish metabolizmni optimallashtiradi va shu bilan ko'pchilik sut va uning tarkibiy qismlarining sintezini yaxshilaydi.

Adabiyotlar

1. Ананьева Татьяна Васильевна., Остроухова Вера Ивановна. "Факторы, влияющие на молочную продуктивность коров, физико-химические и микробиологические показатели молока-сырья" Известия Тимирязевской сельскохозяйственной академии, no. 2, 2019, pp. 60-71.
2. Айдинян, Т. МЭК на фосфолипидной основе [Текст] / Т. Айдинян // Комбикорма. – 2007. №4. – С. 83.
3. Двинская, Л.М. Биологическое действие и эффективность использования альфа-токоферола и синтетических антиоксидантов в кормлении кур [Текст]: Автореф. дис.... доктора биол. наук. - Боровск, 1976. – 45 с.
4. Двинская, Л.М. Биологическое действие и эффективность использования альфа-токоферола и синтетических антиоксидантов в кормлении кур [Текст]: Автореф. дис.... доктора биол. наук. - Боровск, 1976. – 45 с.
5. Копанев В.А., Гинзбург Э.Х., Семенова В.Н. Метод вероятностной оценки токсического эффекта. – Новосибирск: Наука, 1988.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY MANFAATLARNI HIMOYA QILISH: KICHIK DAVLATLAR TAJRIBASI

Ergashev Kamronbek Bahodir o'g'li

Turon universiteti Xalqaro munosabatlar yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv sharoitida kichik davlatlarning milliy manfaatlarini himoya qilish tajribasi o'rganiladi. Maqolada iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi globallashuv jarayonlarining kichik davlatlar uchun yaratayotgan imkoniyatlari va xavf-xatarlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik davlatlar o'z milliy manfaatlarini himoya qilish uchun turli strategiyalardan foydalanmoqda, jumladan, mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish, xalqaro tashkilotlarda faol ishtirok etish va innovatsion rivojlanish yo'lini tanlash. Maqolada kichik davlatlarning tajribasi asosida milliy manfaatlarini samarali himoya qilish uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, milliy manfaatlar, kichik davlatlar, xalqaro munosabatlar, iqtisodiy rivojlanish, madaniy xilma-xillik

Abstract: This article will study the experience of protecting the national interests of small states in the context of globalization. The article analyzes the opportunities and risks that globalization processes in the economic, political and cultural spheres create for small states. According to the results of the study, small states are using various strategies to protect their national interests, including strengthening regional cooperation, actively participating in international organizations and choosing a path to innovative development. The article developed recommendations for the effective protection of national interests based on the experience of small states.

Keywords: globalization, national interests, small states, international relations, economic development, cultural diversity

Kirish. Globallashuv jarayoni bugungi kunda jahon siyosati va iqtisodiyotining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Davlatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning kuchayishi, xalqaro savdoning kengayishi, axborot texnologiyalarining rivojlanishi globallashuvning asosiy ko'rinishlari sifatida namoyon bo'lmoqda [1]. Bu jarayon barcha davlatlarga, ayniqsa kichik davlatlarga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Kichik davlatlar uchun globallashuv ham imkoniyatlar, ham muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bir tomondan, globallashuv kichik davlatlarga jahon bozoriga chiqish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ilg'or texnologiyalardan foydalanish

imkoniyatini bermoqda. Boshqa tomondan esa, globallashuv kichik davlatlarning milliy iqtisodiyotiga, madaniyatiga va siyosiy mustaqilligiga xavf tug‘dirishi mumkin [2].

Usullar va adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqot asosan ilmiy adabiyotlar tahlili asosida olib borildi. Tadqiqot davomida xalqaro munosabatlar, globallashuv nazariyasi, kichik davlatlar siyosati va iqtisodiyoti bo‘yicha o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi ilmiy maqolalar, kitoblar va hisobotlar o‘rganildi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan asosiy usullar:

Tarixiy-taqqoslash usuli: kichik davlatlarning turli davrlardagi tajribasini taqqoslash orqali globallashuvning ta'sirini o‘rganish;

Tizimli tahlil usuli: globallashuv sharoitida kichik davlatlarning milliy manfaatlarini himoya qilish strategiyalarini yaxlit tizim sifatida o‘rganish;

Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish: kichik davlatlarning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish orqali globallashuvning ta'sirini baholash.

Tadqiqot uchun tanlab olingan asosiy manbalar orasida Kattel va Kaldning kichik davlatlar innovatsion rivojlanishi bo‘yicha tadqiqoti [3], Thorhallssonning Yevropa Ittifoqidagi kichik davlatlar tajribasiga bag‘ishlangan asari [4], hamda O‘zbekiston Respublikasi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutining Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosati bo‘yicha tahliliy hisoboti [5] alohida ahamiyatga ega.

Natijalar va muhokama. Globallashuvning kichik davlatlar uchun imkoniyatlari:

Xalqaro savdoda ishtirok etish imkoniyatlarining kengayishi; Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish; Ilg‘or texnologiyalardan foydalanish; Xalqaro hamkorlikni kengaytirish; Ta'lim va ilm-fan sohasida xalqaro aloqalarni rivojlantirish.

2. Globallashuvning kichik davlatlar uchun xavf-xatarlari:

Milliy iqtisodiyotning tashqi ta'sirlarga nisbatan zaifligining ortishi; Madaniy o‘ziga xoslikning yo‘qolish xavfi; Siyosiy qarorlar qabul qilishda mustaqillikning cheklanishi; Xalqaro raqobatda yirik davlatlar va transmilliy kompaniyalar tomonidan siqib chiqarilish xavfi.

3. Kichik davlatlarning milliy manfaatlarini himoya qilish strategiyalari:

Mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish; Xalqaro tashkilotlarda faol ishtirok etish; Innovatsion rivojlanish yo‘lini tanlash; Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish; Madaniy diplomatiyani rivojlantirish.

4. Muvaffaqiyatli tajribalar:

Singapurning "aqli shahar" konsepsiyasi asosida innovatsion rivojlanishi [6]; Estoniyaning raqamli davlat sifatida jahon miqyosida tan olinishi [7]; Shveysariyaning betaraflik siyosati orqali o'z mustaqilligini saqlashi [8].

Globalashuv sharoitida kichik davlatlarning milliy manfaatlarini himoya qilish murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik davlatlar uchun eng samarali strategiya - bu globalashuvning ijobiy jihatlaridan foydalangan holda, salbiy oqibatlarini minimallashtirish hisoblanadi.

Mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish kichik davlatlar uchun muhim ahamiyatga ega. Masalan, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlari ularning xalqaro maydondagi mavqeni mustahkamlashga xizmat qilmoqda [5]. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlarda faol ishtirok etish ham kichik davlatlar uchun o'z manfaatlarini himoya qilishning samarali usuli hisoblanadi. Masalan, Lyuksemburg va Irlandiya kabi davlatlar Yevropa Ittifoqi doirasida o'z milliy manfaatlarini muvaffaqiyatli himoya qilmoqda [4].

Innovatsion rivojlanish yo'lini tanlash kichik davlatlar uchun globalashuv sharoitida raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Singapur va Estoniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalarga e'tibor qaratish orqali kichik davlatlar global iqtisodiyotda o'z o'rnini topishi mumkin [6, 7].

Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish ham kichik davlatlar uchun muhim ahamiyatga ega. Bu strategiya iqtisodiyotning tashqi omillarga bog'liqligini kamaytiradi va barqaror rivojlanishni ta'minlaydi. Masalan, Birlashgan Arab Amirliklari neft eksportiga bog'liqlikni kamaytirish uchun turizm, moliya va texnologiya sohalarini rivojlantirishga e'tibor qaratmoqda [9].

Madaniy diplomatiyani rivojlantirish orqali kichik davlatlar o'zlarining xalqaro obro'sini oshirishi va "yumshoq kuch"dan foydalanishi mumkin. Masalan, Islandiya o'zining tabiiy go'zalligi va ekologik toza energiya siyosati orqali jahon hamjamiyatida ijobiy imijni shakllantirgan [10].

Shveysariyaning betaraflik siyosati esa kichik davlatlarning o'ziga xos yo'lni tanlash orqali milliy manfaatlarini himoya qilish imkoniyatini ko'rsatadi. Betaraflik siyosati Shveysariyaga xalqaro mojarolardan chetda qolish va o'z iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish imkonini bermoqda.

Yuqoridagi misollar shuni ko'rsatadiki, kichik davlatlar globalashuv sharoitida turli xil strategiyalar orqali o'z milliy manfaatlarini samarali himoya qilish imkoniyatiga ega. Biroq, har bir davlat o'zining geografik joylashuvi, tarixiy tajribasi, iqtisodiy va siyosiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda, o'ziga mos strategiyani tanlashi lozim.

Kelajakda globalashuvning yangi tendensiyalari, jumladan raqamlashtirish va sun'iy intellektning rivojlanishi kichik davlatlar uchun yangi imkoniyatlar va

qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, kichik davlatlar bu o'zgarishlarga moslashish va ulardan foydalanish uchun o'z strategiyalarini doimiy ravishda yangilab borishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik davlatlarning iqtisodiy modeli va uning globallashtirish ta'siriga moslashuvchanligi muhim rol o'ynaydi. Masalan, Irlandiya o'zining soliq siyosati va investitsiya muhitini yaxshilash orqali ko'plab transmilliy kompaniyalarni jalb qilishga erishdi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining jadal sur'atlarda o'sishiga olib keldi. Biroq, bunday model global iqtisodiy inqirozlar davrida o'zining zaif tomonlarini ham ko'rsatdi. Shu sababli, kichik davlatlar uchun iqtisodiy modelni diversifikatsiya qilish va mahalliy korxonalarini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tizimini globallashtirish talablariga moslashtirish ham kichik davlatlar uchun dolzarb masala hisoblanadi. Singapur va Finlyandiya kabi davlatlar o'z ta'lim tizimlarini xalqaro standartlarga moslashtirish va innovatsion ko'nikmalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Bu esa mamlakat iqtisodiyotini bilimga asoslangan iqtisodiyotga aylantirish va global raqobatbardoshlikni oshirish imkonini bermoqda.

Ekologik muammolar va iqlim o'zgarishi masalalari ham kichik davlatlar uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ko'plab kichik orol davlatlari global iqlim o'zgarishi natijasida jiddiy xavf ostida qolmoqda. Bu esa ularni xalqaro maydonda faol pozitsiyani egallashga va global iqlim siyosatiga ta'sir ko'rsatishga undamoqda. Masalan, Maldiv Respublikasi global iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda faol ishtirok etmoqda va bu masalada xalqaro hamjamiyatning e'tiborini jalb qilishga harakat qilmoqda.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi kichik davlatlar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Estoniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli infratuzilmani rivojlantirish orqali kichik davlatlar global raqamli iqtisodiyotda o'z o'rnini topishi mumkin. E-hukumat xizmatlari, kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyalari kabi innovatsiyalar kichik davlatlarga an'anaviy iqtisodiy modellardan tashqari rivojlanish imkoniyatini bermoqda.

Xalqaro huquq va ko'p tomonlama institutlar kichik davlatlar uchun milliy manfaatlarini himoya qilishning muhim vositasi bo'lib qolmoqda. BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida kichik davlatlar o'z ovozini eshittirish va global qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shu bilan birga, xalqaro huquqning ustunligini ta'minlash kichik davlatlar uchun katta davlatlarning ta'siridan himoyalashning muhim vositasi hisoblanadi.

Xulosalar. Globallashuv sharoitida kichik davlatlarning milliy manfaatlarini himoya qilish murakkab, ammo hal qilib bo‘lmaydigan vazifa emas. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Kichik davlatlar globallashuvning ijobiy jihatlaridan foydalangan holda, salbiy oqibatlarini minimallashtirish strategiyasini qo‘llashlari lozim.

Mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish va xalqaro tashkilotlarda faol ishtirok etish kichik davlatlar uchun milliy manfaatlarini himoya qilishning samarali usullari hisoblanadi.

Innovatsion rivojlanish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish kichik davlatlarning global raqobatbardoshligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Madaniy diplomatiya kichik davlatlar uchun xalqaro maydonda o‘z mavqeini mustahkamlashning muhim vositasi hisoblanadi.

Har bir kichik davlat o‘zining geografik joylashuvi, tarixiy tajribasi va resurslari asosida o‘ziga xos strategiyani ishlab chiqishi lozim.

Kelajakda ushbu mavzu bo‘yicha yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish, jumladan, alohida davlatlarning tajribasini batafsil o‘rganish va taqqoslash, hamda globallashuvning yangi tendensiyalari (masalan, raqamlashtirish va sun‘iy intellekt) ta‘sirini o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Stiglitz, J. E. (2002). *Globalization and its Discontents*. New York: W.W. Norton & Company.
2. Keohane, R. O., & Nye Jr, J. S. (2000). *Globalization: What's new? What's not?(And so what?)*. *Foreign policy*, 118, 104-119.
3. Kattel, R., & Kalvet, T. (2006). *Knowledge-based economy and ICT-related education in Estonia: Overview of the current situation and challenges for the educational system*. Tallinn: Praxis Center for Policy Studies.
4. Thorhallsson, B. (2018). *Small States and Shelter Theory: Iceland's External Affairs*. Routledge.
5. O‘zbekiston Respublikasi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti. (2021). *Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosati: tahliliy hisobot*. Toshkent.
6. Mahizhnan, A. (1999). *Smart cities: The Singapore case*. *Cities*, 16(1), 13-18.
7. Kotka, T., & Vargas Alvarez del Castillo, C. I. (2016). *Estonia - A Model for e-Government*. World Bank Group.
8. Goetschel, L. (1999). *Neutrality, a really dead concept?*. *Cooperation and conflict*, 34(2), 115-139.

9. Hvidt, M. (2013). Economic diversification in GCC countries: Past record and future trends. Kuwait Programme on Development, Governance and Globalisation in the Gulf States, 27. London: London School of Economics and Political Science.

10. Oslund, K. (2011). Iceland imagined: nature, culture, and storytelling in the North Atlantic. University of Washington Press.

